



# TAMADDUN NURI

Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy,  
madaniy-ma'rifiy,  
adabiy-badiiy jurnal  
Ikki oyda bir marta chiqadi

## MUASSIS:

Qoraqalpog'iston Respublikasi  
Beruniy tumani hokimligi  
Hamkorlarimiz:  
O'zRFA Qoraqalpog'iston bo'limi  
Xorazm Ma'mun akademiyasi

## JAMOATCHILIK KENGASHI:

Sirojiddin SAYYID  
Muhammad ALI  
Kengesboy KARIMOV  
Iqlob MIRZO  
Guliston MATYOQUBOVA  
Qurban SHONIYOZOV  
O'rozboy ABDURAHMONOV  
Murotboy JUMANOV

## BOSH MUHARRIR:

Munavvara QURBONBOYEVA  
**BO'LIM MUHARRIRI:**  
Anvar ALLAMBERGENOV

**TAHRIR HAY'ATI:**  
Akmal SAIDOV  
Nag'met AIMBETOV  
Qahramon QURONBOYEV  
Karimboy QUROMBOYEV  
Zarifboy DO'SIMOV  
Olmos ULVIVY  
Vahob RAHMONOV  
Baxtiyor KARIMOV  
Alima BERDIMURODOVA  
Marat NIYOZIMBETOVA  
Almagul BAYRIYEVA  
Yashshibek ABDULLAYEVA  
Masharib ABDULLAYEV  
O'ktam MAVLONOV  
Qozoqboy YO'LDOSHEV  
Safo MATJONOV  
Mels QOBULOV  
Userboy ALEVU  
Bozorboy ORAZALIYEV  
Kozimbek TUXTABEKOV  
Dilbar URAZBAYEVA  
**Rassom:** Alibek ABDURAHMONOV

**Sahifalovchi-bezovchi:**  
G'iyosiddin O'NAROV  
**Texnik muharrir:**  
Ulug'bek SAIDOV  
**Ushbu son** "Tamaddun nuri" jurnalni  
tahririyatining kompyuterida  
sahifalandi.  
Jurnal OAK e'tirof etgan  
nashrlarning 07.00.00 "Tarix",  
09.00.00 "Falsafa", 10.00.00  
"Filologiya" ixtisosligi bo'yicha  
ro'yxatiga kiritilgan.

# MUNDARIJA

## JAMIYAT

**Rustam KURBANBAYEV.** Bankrotlik to'g'risidagi ishlarni iqtisodiy sudda ko'rish.....2

## TARIX

**Diyorbek ABDULLAYEV.** Xiva Xonligida mukofotlash an'analari tarixidan (XVI-XIX asrlar).....4  
**Odiljon IN'OMOV.** Qovunchi madaniyat tarkibida turkiy etnik qatlaming ortib borishi.....8  
**Intizor MAMAJONOVA.** O'zbekistonda notariat sohasining vujudga kelishi tarixiy jihatlari.....12  
**Yorqinoy ROZIMOVA.** Xorijiy mamlakatlardagi harbiy ta'lim tizimining qiyosiy tahllili.....15  
**Saparboy NAVRUZOV, Dildora ERKINOVA.** Xiva paxtachiligi tarixidan.....18  
**Shakir YUSUPOV, Xadicha ESHCHANNOVA.** XIV-XV asrlarda Xorazm madaniyati rivojining asosiy bosqichlari.....22  
**Xandona HAKIMOVA.** Qo'qon xonligi siyosiy tarixida "qipchoq fojiasi".....26

## FILOLOGIYA

**Maxsud KURBANIYOZOV.** Tarixiy hikoyatlarning taraqqiyot omillari va ularning tasnifi.....28  
**Marg'uba ABDULLAYEVA.** "Shajarayi turk'da paremik janrlar.....32  
**Asilibek SARTAYEV.** Yer yuzida sog'intirar yolg'iz makon.....37  
**Rustam SAPARNIYOZOV.** O'simliklarning poetik mifologemma vazifasini bajarish hodisasi haqida.....40  
**Nasiba SOBIROVA.** Xorazm marosim folklorining areal xususiyatlari.....45

## FALSAFA

**Farida ESHNAZAROVA.** Ta'lilda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishning ijtimoiy mexanizmlari.....49  
**Arislanbay ORAZBAYEV.** Ijtimoiy reallik tushunchasining mazmun va mohiyati: ijtimoiy-falsafiy tahsil.....53  
**Sunnatillo RAXMONOV.** Jaloliddin Rumiyning tasavvufiy-ifoniylar qarashlari va uning dunyo  
olimlari tomonidan o'rganilishi.....56

## TILSHUNOSLIK

**Gulnoza ERGASHOVA.** G'ozi Olim Yunusovning o'zbek tili siyosiy-huquqiy terminologiyasi shakllanishidagi o'mni..61  
**Maryam BAYRIYEVA.** The role of listening in learning foreign language.....65  
**Olimjon JUMABOYEV.** Ramz psixologik ta'sir ob'ekti sifatida.....68

## NAZM

**Sabrina ALLAMBERGENOVA.** Ona vatanim madhi.....71

**Manzilimiz:** Qoraqalpog'iston Respublikasi, Beruniy tumani  
"Xalqlar do'stligi" ko'chasi, 11-uy. e-mail: qurbanboyeva@inbox.ru  
Tel.: (+99899) 504-84-84

Bosishga 28.03.2022-yilda ruxsat berildi.  
Qog'oz bichimi 60x84 %. Nashriyot hisob tabog'i 6,5. Indeks – 960  
Jurnal 2016-yil 28-sentyabrdra O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot  
agentligi tomonidan № 0843 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.  
Jurnaldan ko'chirib bosilganda "Tamaddun nuri"dan olindi debi izohlanishi shart. Matn  
hamda reklamalardagi ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'ulidir.  
Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
"MAX-PRISTIL" MChJ bosmaxonasida chop etildi. Buyurtma № 14.  
Adadi 620 dona. Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi 6-uy..

ISSN 2181-8258

# BANKROTLIK TO‘G‘RISIDAGI ISHLARNI IQTISODIY SUDDA KO‘RISH



Rustam  
**KURBANBAYEV,**  
Beruniy tumanlararo  
iqtisodiy sudi raisi



**B**ankrotlik atamasi – italyan tilidan kelib chiqib, “singan kursi” ma’nosini anglatadi. Bankrotlik (Sinish) – fuqaro, korxona, firma yoki bankning mablag‘i yetishmaganligidan o‘z majburiyatlar bo‘yicha qarzlarni to‘lashga qurbi etmasligi, qarzdorning majburiyatlar mol-mulkidan oshib ketganligi sababli tovar (ishlar, xizmatlar)ga haq to‘lash yuzasidan kreditorlarning talablarini qondirishga qodir emasligi, shuningdek, byudjetga va boshqa fondlarga majburiy to‘lovilarni ta‘minlashga qodir emasligi tushuniladi.

Agar kreditorlik qarzi bazaviy hisoblash miqdorining kamida uch yuz baravarini tashkil etsa va uch oy ichida to‘lamagan yuridik shaxs, kreditorlik qarzi bazaviy hisoblash miqdorining kamida yigirma baravarini tashkil etsa va uch oy ichida to‘lagan yakka tartibdagi tadbirkor yoki kreditorlik qarzi bazaviy hisoblash miqdorining kamida besh ming baravarini tashkil etsa va olti oy ichida to‘lamagan shaharni tashkil etuvchi korxona bankrotlik alomatlari belgilariiga ega sub‘ektlari hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 25-moddasida bankrotlik to‘g‘risidagi ishlar iqtisodiy sudga taalluqli ekanligi ko‘rsatilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Bankrotlik to‘g‘risida”gi Qonuning 6-moddasiga asosan iqtisodiy sudga qarzdorni bankrot deb topish to‘g‘risidagi ariza bilan qarzdor, kreditor va prokuror murojaat qilish huquqiga ega. Majburiy to‘lovlar bo‘yicha majburiylarni bajarmaganligi munosabati bilan qarzdorning bankrotligi to‘g‘risida ish qo‘zg‘atish haqidagi ariza bilan iqtisodiy sudga qarzdor, prokuror, soliq xizmati organlari, shuningdek ustav fondida davlat ulushiga ega bo‘lgan va pul majburiylari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi oldida qarzi bo‘lgan yuridik shaxslarga nisbatan bankrotlik to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha davlat organi va uning hududi organlari murojaat qilish huquqiga ega. Qarzdorda bankrotlik alomatlari mavjud bo‘lsa, ish iqtisodiy sud tomonidan qo‘zg‘atilishi mumkin.

Bankrotlik to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha davlat organi, shuningdek, davlat soliq xizmati organi va prokurorning qarzdorni bankrot deb topish haqidagi arizalari iqtisodiy sudlar tomonidan davlat boji to‘lovisiz ish yuritishga qabul qilinadi. Sud tomonidan ariza qanoatlantirilgan taqdirda davlat boji qarzdordan undirish orqali qoplanadi.

Belgilangan tartibda va miqdorda pochta xarajatlari qoplanganligini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilmagan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi 155-moddasi birinchi qismining 6-bandiga asosan ariza va unga ilova qilingan hujjatlar qaytariladi.

Davlat soliq xizmati organi va boshqa valoqatli organning qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi arizasiga qonun hujjatlariga muvofiq majburiy to'lovlari bo'yicha qarzni olishga doir choralar ko'rganligi haqida dalillar ilova qilinishi kerak.

Arizaga qarzni undirish to'g'risidagi sud qarori, ijob hujjati yoki kreditor talablari qarzdor tomonidan tan olinganligini tasdiqlovchi dalillar ilova qilinadi. Sudya qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi arizani O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi talablariга rioya etilgan holda berilgan bo'lsa o'z ish yurituviga qabul qilinishi va sud kuzatuvni joriy etish va muvaqqat boshqaruvchini tayinlash to'g'risida ajrim

chiqarishi mumkin. Ishni sudda ko'rish uchun tayinlash chog'ida da'vo taqdim etish huquqiga ega bo'lgan manfaatdor shaxs tomonidan bildirilgan talablarni asoslovchi hujjatlarining asl nusxalarini va sud boshqaruvchisiga nomzodligiga tavsiya berilishini, ajrim tegishli organlarga yuborilishini ta'minlash va boshqa protsessual harakatlarni amalga oshirgan holda sinchiklab o'rganib chiqilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, bankrotlik to'g'risidagi ishlarning bankrotlik holatining vujudga kelish sabablari chuqur sinchkovlik bilan iqtisodiy sullarda ko'rib chiqilishi tartibi ommaga keng yoritilib borilishi, harakatdagi korxonalar inqirozining oldini olishga zamin bo'lib xizmat qiladi.

---

## MA'NOLAR MAHZANI

---



# “QUTADG'U BILIG” HIKMATLARI

Odamlarning sarasi sadoqatli kishidir, sadoqatlini mahkam tut, ey kishilarning sarasi.

Sadoqatli xizmatkor jonsarak bo'ladi, jonsarak xizmatkor o'z xojasini boy qiladi.

Aql-farosatli odam hech narsani unutmaydigan bo'ladi, hisoblab, o'ylab ish yuritadi, xatoliklarga yo'l qo'ymaydi.

Aql-farosatsiz odam ko'rgan va eshitganlarini unutadigan bo'ladi, bunday xazinador o'z ishlarini barbod qiladi.

**Yusuf Xos Hojib**



# XIVA XONLIGIDA MUKOFOTLASH AN'ANALARI TARIXIDAN (XVI – XIX asrlar)



Diyorbek  
**ABDULLAYEV,**  
dotsent, PhD.  
Toshkent  
davlat pedagogika  
universiteti doktoranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarixiy manba hamda adabiyotlarni keng tahlil qilish asosida XVI asr – XIX asr boshlarida Xiva xonligining ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayoti hamda tashqi aloqalarida qo'llanilgan mukofotlash an'anasining holati va ko'rinishlari tadqiq etilgan. Shuningdek, o'zbek davlatchiligi tarixida taqdirlash ishlari hamda mukofotlash tadbirlarining Xiva xonligi va undan keyingi davlatlardagi taqdirini o'rganish borasidagi takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** mukofot, taqdirlash, Xiva xonligi, elchilik aloqalari, pul mukofoti, harbiylarni mukofotlash, mansab va unvonlar taqdim etish.

**M**a'lumki, mukofotlash mexanizmi mamlakatda amalga oshiriladigan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, harbiy va ma'nnaviy-madaniy islohotlarni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Xususan, XVI – XIX asrlarda O'zbekiston hududida mukofotlash tizimi tarixini tahlil etar ekanmiz, ushu davr mobaynida mukofotlash tizimining bir qator o'ziga xos xususiyatlariga alohida to'xtalib o'tish joiz. Bu davrlarda tashkil topgan va hukmronlik qilgan Buxoro xonligi (Shayboniyalar, Ashtarxoniyalar) keyinchalik amirlik, shuningdek, Xiva hamda Qo'qon xonliklarining ichki va tashqi hayotida mukofotlash an'anasiga katta e'tibor berilganligi, u asosan imtiyozlar berish, rag'batlantirishlarni amalga oshirish, sovg'a va in'omlar taqdim etish hamda mansab va unvonlarga tayinlash ko'rinishlarda davom ettirilganligi borasida yangi tarixiy tadqiqotlarga sabab bo'imorda. Mazkur tadqiqotlarni amalga oshirishda O'rta Osiyo xonliklarining mukofotlash tadbirlarini alohida xonliklar kesimida o'rganish va ma'lum xulosalarni chiqarish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'rta Osiyo xonliklari davrida jumladan, Xiva xonligida ham XVI-XIX asrlar mobaynida turli sohalarda rag'batlantirish, mukofotlash ishlari keng qo'llanilgan. Xonlikda xizmat ko'ssatgan harbiylar yoki amaldorlar pul, yer-suv, mol yoki qimmatbaho buyumlar bilan mukofotlanganlar. Turli madaniy, ma'rifiy (sport musobaqalari, shoirlar bilan ilmiy kechalar) tadbirlarda ham xazinadan qimmatbaho mukofotlar tayin etilgan. Xonlik tarixiga oid bo'lgan manbalardan biri "Riyoz ud-davla"da keltirilishicha, Olloqulixon shoirlar bilan bo'lgan savol-javob ilmiy kechalarida har kimni olgan ilmiga yarasha taqdirlashni munosib ko'rib, bir nechtasini dars ta'limi uchun oliy madrasalarga mudarris va bir nechtasini shariat hukmlari ijrosi uchun yon-atrofdagi viloyat, shahar va ellarga qozi va rais etib tayinlagan [9,280-282-b]. Shuningdek, asarda bayon etilishicha, Olloqulixon davrida bir qator Munis, Muhammad Karim, Eshmurod, Bolta, Bekali kabi miroblar faoliyat ko'rsatib, ular alohida xizmatlari uchun xon tomonidan saxiylik bilan mukofotlar olib turganlar. Natijada ular o'z mansablari bilan faxrlanganlar va kasblarini e'zozlaganlar [9,308-b]. Xiva xoni Sayyid Muhammadxon davrida o'ziga tegishli yerlarni xonlikning bir qator vakillariga in'om tariqasida bergen. Masalan, xonlik tarkibiga

kiruvchi Sho'raxon tumanidagi yerlarni ukasi Sayyid Mahmudga hamda xonga chin dildan xizmat qilganlik uchun Muhammad Yoqubboyga mukofot sifatida tortiq qilgan [5,53-b]. Xiva xonligida Beklarbegi qoraqalpoq va boshqa ko'chmanchi xalqlarning oqsoqollariga beriladigan fahriy unvon hisoblangan [8]. Muhammad Rahimxon I davrida xonning maxsus yorlig'i bilan taqdirlangan mulkdorlar, saroy a'yонлари, ruxoniylar va navkarlar soliq va natural majburiyatlardan (qozu, qochu, begor kabi) ozod etilgan. Shuningdek, boquvchisini yo'qtgan kambag'al oilalar, yetim-yesir va nagonlar ham soliq to'lovidan ozod etilgan [15,32-b]. N.Muravyev o'z esdaliklarda ta'kidlashicha, Muhammad Rahimxon o'zining amaldorlari hamda atrofida shaxslarni xizmatlari evaziga va shaxsiy hohishiga ko'ra mukofotlashni xush ko'rgan [13,120-b].

Xiva xonligi qo'shinlarida, navkarlarning maxsus harbiycha kiyimlari, davlat mukofot nishonlari va medallari bo'lмаган. Xizmat ko'rsatgan harbiylar va amaldorlar pul, yer-suv, mol yoki qimmatbaho buyumlar bilan mukofotlangan. Turli tuman choponlar kiyigizish juda keng tus olgan. Ayrim hollarda esa pichoq, qilich va qurol in'om qilingan [15,140-b]. Aynan, in'om tarzida berilgan kalla puli, chopon kiydirish, oltin, yoxud qimmatbaho tosh qadalgan kamar berish ramziy davlat mukofoti tusini olgan edi. Jumladan, navkarlarga urushda ko'rsatgan jasorati uchun choponlar kiyigizilan, ayrim hollarda pichoq taqdim etilgan bo'lsa, xonlar sulolasiga a'zolari, obro'li amaldorlar faxriy mukofot sifatida oltin va qimmatbaho toshlar qadalgan kamar olganlar [16]. Shuningdek, harbiy xizmatchilar, o'zini ijobjiy jihatdan namoyon etgan navkarlar o'nbegi, Bahodir unvonlari bilan taqdirlangan yoki qism boshlig'i lavozimiga tayinlangan [6, 22-b]. Urushlar davomida yarador bo'lgan jangchilar davolanish uchun o'zlar tabibga murojaat qilar, davolanish uchun ketadigan pul xonlik xazinasidan sarflangan. Agarda xonlik ichkarisida o'z fuqarolari tomonidan isyon, qo'zg'olon, fitna yuz bergen taqdirda navkarlar xon tomonidan bekamu ko'st hamma ehtiyojlar bilan ta'minlangan, hatto, o'sha norozilik harakatini necha kunda bostirishganiga qarab pul to'langan. Qo'shni davlatlar Eron yoki Buxoroga hujum qilingan taqdirda xon navkarlariga maosh to'lanmagan. Urushda o'la kiritgan navkar qo'lga kiritgan narsasining beshdan birini xon hazratlariga in'om qilishi shart hisoblangan [16]. Xonlik ichki hayotida jinoyatcilar yoki qullarni jazolash paytida qochgan qochoqlar bozorlarda e'lon qilinib, uning belgilari aytilgan. Ovhilar, ayniqsa turkman ovchilari chegaradan qochoqni tutish uchun jo'natilgan, vazifani uddalaganlar chopon va pul bilan mukofotlangan [7,62-b].

Xiva xonligida mukofotlash va taqdirlash ishlari da mansab va unvonlarning berilishi ham katta odat tusiga aylangan. Bunday taqdirlanishlarga xonning ishonchli kishilari, unga sadoqat bilan hizmat qilgan amaldorlar, yuqori toifa vakillari sazovor bo'lganlar.

Mahalliy-ma'muriy hokimiyat tizimida faoliyat ko'rsatuvchi mansabdar shaxslar muvofiq tarzda alohida unvonlar bilan taqdirlab borilgan. Ko'p hollarda ushbu unvonlar fahriy unvon sifatida namoyon bo'lgan. Shuningdek, hukumat arboblari ham belgilangan unvonlar bilan taqdirlanganlar[17,649-650-b].

Lekin, barcha mansab va unvonlar faqatgina mukofotlash orqali tayin etilganligi haqiqatdan yiroq. Sababi mansab va unvonlar ma'lum bir xizmatlar qilganligidan tashqari, oilaviy qarindoshlik asosida, itoatda ushlab turish maqsadida ham tayin etilgan [15, 89-b]. Xiva xonligida ma'lum bir mansab yoki unvon bilan taqdirlangan kishiga saroy rahbariyati tomonidan noyob buyum, qandaydir belgi yoki yorliq taqdim etilgan. Jumladan, xonlikda otaliq unvonini olgan shahs qilich va pichoq taqqan. Ulardan biri Olloyorxon xizmatlari evaziga otaliq unvoni taqdim etilib, unga yorliq bilan birga oltin pichoq, zarbof chopon va ko'p miqdorda pul taqdim etilgan [15,88-b]. Ayrim hollarda xonlar joylarga borganda shu yerlik aholi orasidan mahalliy mansabdar shaxslarni lavozimiga tayinlagan va taqdirlagan. An'anaga ko'ra, joylarga hokim sifatida Bahodir, otaliq, mahram, Xo'ja, devon kabi mansab va unvon egalari tayinlangan [3,26-b].

Xiva xonligiga oid arxivlarni o'rgangan olimlar tadqiqotlarda XIX asr ikkinchi yarmiga kelib, xonlikda turli mansab va unvonlarda xizmat qilgan davlat amaldorlari pul mukofotlarini ham olganligi to'g'risida katta hajimdagi hisobot ishlari tayyorlanganligi e'tibor tortadi. Unga ko'ra, ro'yxatda 1848-1859-yillar davomida unvon va mansab egalariga 500 tilladan 10 tillagacha bo'lgan miqdorda pul mukofotlari tayinlanganligi qayd etilgan [6,203-207-b].

O'rta Osiyo xonliklari tashkil topgan ilk vaqtlardan buyon ularning barham topishigacha bo'lgan davrlargacha bir-birlarini qo'llab quvvatlash holatlari yo'lga qo'yilmadi. Aksincha ular alohida ajralishib o'z siyosatlari hamda hayot tarzlarini yo'lga qo'ydilar. Kerak bo'lsa shunday holatlar kuzatildiki, ular o'zaro bir birlarining dushmanlariga yordam qo'lini cho'zdilar. Massalan, Xorazm sultonni Dinmuhammad Eron va Buxoro shayboniylari o'tasidagi kurashlarda Eron shohini qo'llab-quvvatlagan hamda ittifoqchilik qilgan edi. Buning evaziga Sulton Eron shohi tomonidan fahriy to'n va yiliga 300 tuman miqdordagi pul mukofoti bilan taqdirlanib, Sabzavor viloyatidan 300 Tabriz tumanini yig'ib olish imtiyozi berilgan. Xojimxon davrida o'z o'g'li Muhammadquli sultonni shoh Abbos I ning taxtga o'tirgani bilan tabriklab, unga katta miqdordagi sovg'a-salomlar va Nodir tuhfalarni jo'natganligi ma'lum [2,77-88-b]. Xiva xonligi hamda Eron o'tasidagi munosabatlar qalinlashib ketgan ediki, hatto tashqi siyosatda ular har qanday vaziyatda bir-birini qo'llab-quvvatlab, kichik xursandchilik uchun taqdirlab turganlar. Massalan, 1716-yilgi rus ekspeditsiyasining xonlik hududiga amalga oshirilganligi qisman unda siyosiy manfaat-

lar ko'zda tutilib, hatto Eronga salbiy ta'siri ko'rsatishi mumkin bo'lganligi Eron hukmdorlarini ham saro-simaga solgan. Ushbu ekspedisiyaning amalga oshmay qolganligi hamda ushbu xabarni Isfahonga Eron hukmdori Sulton Husaynga yetkazgan Xiva xonligi chopari Sulton tomonidan 72 chervon (qizil tilla) bilan taqdirlanib, Xiva xoniga sovg'alar qatorida 2000 tuman pul taqdim qilib yuborgan.

Xonlikda qushbegi ichki va tashqi ishlar, rasmiy marosimlar, sovg'a-salom va in'omlarga ketadigan xarajatlarni nazorat qilgan. Xiva xonligi o'zining ichki va tashqi aloqalarida ham elchilarni yuborish va ularni kutib olish tadbirlarida taqdirlash ishlariga alohida e'tibor qaratganlar. Elchilarni kutish va ularni qabul qilish marosimlarida tashkiliy ishlardan so'ng mukofotlar, sovg'a-salomlar berish ishlari amalga oshirilgan. Xorijiy elchilarga xonlikdan ketish oldidan "xulloi podshohona" (shohona xil'at, to'n) hamda "Savg'oti kiromiy" (do'stlik mazmunidagi noma) berilib, kuzatib qo'yilgan [2, 61-b]. Masalan, Erondan kelgan elchilarga ziyoftlar tashkil etilgach ularga faxriy to'nlar kiydirilib, podshohona sarpolar in'om qilingan [9, 131-b]. Tarixchi N.Allaeva tadqiqotlarida "xil'at kiydirish" marosimini yoritar ekan, ...karvonboshi olib kelgan tugunning og'zi ochilib, ichidan daraxt shohlari rasm-i tushirilgan rang-barang atlas chopon va zardo'zi ipak bilan naqshlangan to'n chiqarib, elchining egniga tashlanganligi, yig'ilganlar tabriklab, muborakbod etganliklarini ta'kidlab o'tgan [2, 62-b]. "Riyozud-davla"-da keltirilishicha, Erondan kelgan Yalangto'sh boshchiligidagi elchilarga ham ketish chog'ida "xil'oi Xurshid shio", ya'ni quyosh shu'lalaridek tovlanuchi xil'at – faxrli to'n kiydirilib kuzatilgan. Shimoliy Xurosondagi Bom viloyati hokimi ham Xiva xonligiga tashrif buyur-gan chog'ida ular tomonidan to'rt ot va to'rt xachir xonga taqdim etilgan. Javob tariqasida Muhammad Rahimxon I ularga shohona ziyofat berib, qimmatbaho hilatlar (ustki kiyim-to'nlar) bilan siylab jo'natgan [9, 406-407-b].

Shuningdek, Muhammad Rahimxon I 1811-yilda buxorolik elchilar Avazmuhammad yasovulboshi va O'rroqboy miroxo'rлarni kutib olganligi hamda ularga "xiлоi garonmoya (qimmatbaho to'n) va kamari til-lopiroya marhamat" taqdim etilib, kuzatilganligi manbalarda bayon etilgan [11, 378-b]. Rus elchisi N.Muravyev ham o'z esdaliklarida Xiva xonligiga bo'lgan sayohati va unga ko'rsatilgan iltifot hamda e'tiroflar xususida to'xtalib o'tar ekan, unga ketish chog'ida xon nomidan taqdim etilgan zar to'n yuzboshi tomonidan kiydirilib, hind parchasidan tikilgan belbog' hamda kumush qinli xanjar topshirilgan. Xonlikda saroy amaldorlariga taqdim etiladigan sovg'alar xon ruxsati bilan amalga oshirilgan. Masalan, rus elchisi N.Muravyev xondan maxsus ruxsat tekkach, mehtar og'a, qushbegi va Hojash mahramga bir bo'lakdan movut, ipak mato va bittadan soat jo'natgan [13, 134-137].

Xiva xonligida elchilar tomonidan olib kelingan tuhfa va peshkashlar (sovg'a) "o'tkardi" iborasi bilan nomlangan. Manbalardan biri "Zubdatu-t-tavorix"da Rahimqulixonning Xurosonga yurishlaridan biri davomida tashrif buyurgan mahalliy hokimlarning har biri o'z hollariga loyiq tuxfa va peshkashlarini o'tkardilar", deb qayd etilgan [10, 61]. Bu iboraning ma'nosini to'ldirib keltirilgan sovg'alarning mutasaddi kishi tomonidan tekshirib, hukmdor nazaridan o'tkazilganligini anglatgan.

Shuningdek, sovg'alarmi ko'zdan kechirilgan holda tekshirib, qabul qilib olish va taqdim etish jarayonida maxsus tartib-qoidalarga amal qilingan. Bunda sovg'alarmi xonga yetkazgan amaldordan alohida ziyraklik talab etilgan. Xususan, N.Muravyev keltirgan sovg'alar orasida shisha chilim bo'lib, yuzboshi sovg'a-ning nomini xonga aytishga jur'at eta olmagan. Sababi bu davrda Muhammad Rahimxon I tomonidan chilim chekish taqiqlangan bo'lib, yuzboshi uni sirka solishga mo'ljallangan idish deb tushuntirgan [13, 127-128].

Xonlikda sovg'a-salomlar tortiq etish ancha nozik masala bo'lib, bu borada chiqqan mojaroli holatlar tarixda qayd etilgan. Xususan Xiva xoni Sherg'ozixon (1714-1728) Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy taqdim etgan sovg'alarmi ro'yxatga mos kelmaganligi sababli qabul qilmagan. Ushbu muammo dastlabki hadyalar shaxsan o'zining nomidan ekanligi, rus podshosining sovg'alar esa alohida taqdim etilishi bildirilgandan so'ng hal etilgan [12, 30]. Bundan anglash mumkinki, hukmdor tomonidan berib yuborilgan rasmiy hadyalardan tashqari elchi tomonidan ham shaxsiy sovg'alar taqdim etish urfga aylangan.

Sovg'a-salomlarning miqdori ham ahamiyatli masala bo'lib, rus podshoholarining hadyalarini asosan "Qirq bo'lak"dan yuborilgan bo'lsa O'rta Osiyo, jumladan Xiva xonligida to'qqiz raqami mukammallik temsoli sifatida ma'lum bir ramziy ma'noga ega bo'lgan. Abdulg'ozixon "Shajarayi turk" asarining to'qqiz bobdan iborat ekanligiga izoh berishda ham ushbu raqamning martabasi yuqori bo'lganligini ta'kidlaydi [1, 12]. Shuningdek, N.Muravyev xonga atab keltirilgan o'n dona shisha idish-stakanni yuzboshiga ko'rsatganda u Xivada shishaning noyobligi va ular xonga juda yoqishini bildirib, lekin ularda to'qqiz raqami xosiyatlari hisoblanganligi uchun o'n dona emas, idishlarning to'qqiztasini hadya qilishni maslahat berган [13, 127]. Eron shohi Tahmosibning Xiva xoniga kuyov bo'lishi munosabati bilan kelin tomonidan Eronga to'qqiz kishining yuborilishi hamda kelinga taqdim etilgan sovg'alar sonining to'qqiztadan bo'lishi ham yuqoridagi fikrga misol bo'ladi [2, 51]. Yoki 1679-yilda Anushaxon tomonidan rus podshosi Fedor Aleksye-yevichga yuborilgan sovg'alar ro'yxatida "9 ta po'lat pichoq bilan birga 9 ta kamon" qayd etilgan [2, 51].

Xiva xonligida qabul marosimlarining ma'lum qis-miga aylangan hadyalar berish, sovg'alarmi tortiq qilish ma'lum bir mazmun-mohiyatga ega ramzlar sifa-

tida munosabatlar xarakteriga katta ta'sir ko'rsatgan. Jumladan, N.Muravyev tomonidan xonga keltirilgan sovg'alar orasidagi 10 funt (410 gr) qo'rg'oshin yana kremniyi porox, ikki kallak qand Xiva xoni saroyida rus hukumati shirin do'stlikni taklif etmoqda va aks holda urush ochilishiga ishora qilmoqda, deb talqin etilgan [13, 127-128].

Madaniy hayotda ham xonlar tomonidan shoirlar, mudarrislar va xizmat ko'rsatgan boshqa vakillar taqdirlanib, mukofotlangan. Jumladan, Muhammad Rahimxon II Feruz 1906–1907-yillarda Urganchda qizlar maktabini tashkil qilgan Xusayn Kushaevdan mamnun bo'lib, bosh-oyoq sarpo bilan taqdirlab, maktab uchun xazinadan mablag' ham ajratgan [4, 101].

O'rta Osiyo xonliklaridan Rossiyaga yuborilgan sovg'alar sifatida qimmatbaho hind chodirlari, tilla bilan naqshlangan dubulg'a va xanjar, "Sadoq" deb ataluvchi tilla bilan naqshlangan o'qdon va o'q-yoylar, Mashhad kamoni, tilla suvi yuritilgan naqshinkor idishlar. Urub chalingan musiqa asboblar turidan bo'lgan kumush tulunbaslar, guldar kimxoyu va nafis matolar shular qatoriga kiradi. N.Allayeva ta'kidlashicha, arg'umoqlar – zotdor otlar, Ogahiy tuyalar O'rta Osiyodan turli mamlakat hukmdorlariga yuborilgan sovg'alar ichida alohida qimmatga ega bo'lgan. O'rta Osiyo xonlari tomonidan Rossiyaga yuborilgan sovg'alar orasida maymunlar va yo'lbarslar ham bo'lgan. Lekin, ko'p hollarda bunday ekzotik hayvonlar yo'lda halok bo'lar, shunda ularning terilari yetkazib borilar edi. Ozod etilgan rus qullari (polonnik) Xiva va Buxoro xonlari tomonidan Rossiyaga yuborilgan eng qimmatbaho hadya hisoblangan. O'z navbatida rus davlatidan ham Xiva xonligiga yuborilgan noyob va qimmatbaho sovg'alar, jumladan, sussar, "Baliq tishlari" deb atalgan morj tishlari, rangli chit va satin matolar, yuft (qizil charm), "Ugor pichoqlari", chinni idishlar, soatlar va boshqalarni ko'rsatib o'tish lozim [2, 53-b].

Yevropa mamlakatlardan ham xonlikka sovg'a-salomlar tarzida keltirilgan noyob buyumlar orasida tulki, kumush soatlar, choynak, yantar hoshiyali oyna, yantardan tayyorlangan qadah, billur qadah, yantardan yasalgan g'iloflar, bir juft nemis to'pponchasi, har xil qaychilar bo'lgan [14, 103-104]. Yuqorida tahlil etilgan sovg'a-salomlar xususidagi o'zaro munosabatlar O'rta Osiyo xonliklari xususan, Xiva xonligi ichki va tashqi hayotida katta ahamiyat kasb etgan edi, u ma'lum qonun-qoidalar asosida olib borilgan hamda xalqlar o'rtasida turli yangiliklar hamda innovatsion ixtirolargacha yo'l ochgan edi.

Yuqorida tahlil etilgan ma'lumotlardan anglash mumkinki, Xiva xonligi ichki va tashqi hayotida mukofotlash tadbirlariga yetarlicha e'tibor qaratilgan. Ichki hayotda davlat oldida xizmat ko'rsatgan shaxslarga yerlar in'om etish, harbiylarga moddiy rag'bat-lantirish yoki turli nodir buyumlardan mukofotlar tayin etish an'anasi bo'lganligi ko'zga tashlanadi. Tashqi

hayotda elchilik munosabatlari orqali sovg'a-salomlar ulashish, xonlarning o'zaro tashqi aloqalarida tuhfalar, sovg'alar orqali ijobjiy va salbiy munosabatlarga kirishganligi, shuningdek, xalqaro aloqalarda sovg'a-salomlarni ulashish islohot hamda innovatsiyalarning joriy etilishiga xizmat qilgan. Shuningdek, O'rta Osiyo xonliklarida mukofotlash an'analarini Xiva xonligi misolida tahlil etar ekanmiz, uning boshlanish nuqtasi (qadimgi va o'rta asrlar) hamda keyingi davrlarda (Rossiya imperiyasi tarkibida, XXSR, XSSR)gi holati tarixini o'rganish tarixiy tadqiqotlarda yangi sahifalarni ochishga xizmat qiladi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abulg'oziy Bahodirxon. *Shajarayi Turk / ma'sul muharrir B.Ahmedov.* – Toshkent: Cho'pon, 1992.
2. Allayeva N.A. XVI – XIX asrning 70 – yillarida Xiva xonligi tashqi aloqalari tarixi. Tarix fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2019.
3. Azizov B.T. *Xorazm navozandalari.XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Sayid Muhammad Rahimxon Soniy davrida yashagan shoirlar haqida esdaliklar.* – Toshkent: adabiyot va san'at, 1994.
4. Davlatiyor Rahim, Shohnazar Matrasul. *Feruz. Shoh va shoir qismati. Feruz haqida tarixiy-badiiy lavhalar.* – Toshkent, 1991.
5. Иванов П.П. “Удельные земли” Сейид-Мухаммед-хана хивинского (1856-1865). Записки института востоковедения академии наук СССР. VI. – Москва: Академия Наук СССР, 1937.
6. Иванов П.П. Архив Хивинских ханов XIX в. Исследование и описание документов и историческим введением. – Ленинград, 1940.
7. Иванин М. Хива и река Аму-Дарья // Туркестанский сборник. – Санкт-Петербург, 1873. Т.68.
8. Yo'doshev M.I. *Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi.* – Toshkent.
9. Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy. "Riyozud-davla". Asarlar. Nashrga tayyorlovchi G'.Karimov. Mas'ul muharrir S.Dolimov. – Toshkent, 1978.
10. Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy. Zubdatut-t-tavorix (tarixlar sarasi) / nashrga tayyorlovchi N.Jabborov. – Toshkent: O'zbekiston, 2009.
11. Munis va Ogahiy. *Firdavs ul-Iqbol / muharrir Sh.Vohidov.* – Toshkent: Yangi asr avlod, 2010.
12. Попов А. Сношние России с Хивой и Бухарой при Петре великом // Записки ИРГО. Санкт-Петербург, 1853. Вып. 9.
13. Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819 и 1820 гг., гвардейского Генерального Штаба капитана Николая Муравьева, посланного в сии страны для переговоров. – Москва, 1822. Часть I.
14. Посольство Флорио Беневи в Персию и Бухару в 1718-1725 гг. / Посланник Петра I на Востоке в 1718-1725 гг. – Москва: Восточная литература, 1986. -159 с.
15. Saburova S.A. *XIX asr va XX asr boshlarida Xiva xonligining davlat tizimi.*

# QOVUNCHI MADANIYATI TARKIBIDA TURKIY ETNIK QATLAMNING ORTIB BORISHI

Odiljon IN'OMOV,  
Nizomiy nomidagi  
TDPU  
tadqiqotchisi (PhD)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Markaziy Osiyo hududlariga turli xil etnik komponentlarning kirib kelishi va ushbu etnik guruhlarning Qovunchi madaniyati aholisiga ta'siri arxeologik artefaktlar asosida yoritilgan.

**Tayanch so'zlar:** turkiy toponimlar, turkiy etnik mansublik, ikki tillilik, migrations jarayonlar, etnoslar, antropologik qiyofa, harbiy qurollar

**Аннотация:** В данной статье раскрыты вхождение разных этнических компонентов на территорию Центральной Азии и влияние этих этнических групп на население культуры Кавунчи на основании археологических артефактов.

**Ключевые слова:** тюркские топонимы, принадлежность к тюркскому этносу, билингвизм, миграционные процессы, этносы, антропологический облик, военное оружие

**Annotation:** The article describes the cultural penetration of various ethnic components into Central Asia and the impact of these ethnic groups on the population of the Kauchi culture through archeological artifacts.

**Key words:** turkish toponyms, turkish ethnicity, bilingualism, migration processes, ethnoses, anthropological appearance, military weapons.

**О**zbekiston hududlari bo'ylab olib borilgan keng ko'lamlı arxeologik izlanishlarga ko'ra, Qovunchi madaniyatining ta'sir doirasasi so'nggi antik davridan boshlab Sirdaryoning o'rta havzalari doirasidan chiqadi. Endi u mintaqaviy tarixiy jarayon emas, balki butun O'zbekiston hududlarida yuz bergan tarixiy voqeilikka aylanadi. Ilk o'rta asrlarga kelganda esa u o'zbek etnogenezinining asosiy muammolariga aylanadi, ya'ni turkiy etnik mansublik ustuvor sharoitda shakllangan Qovunchi madaniyati milodiy eranining boshlaridan, aniqrog'i milodiy eranining II-III asrlaridan boshlab Toshkent vohasi doirasidan chiqib, uning ta'sir doirasasi kengayadi. Arxeologik materialarning tahliliga ko'ra, Qovunchi madaniyatining ta'sir doirasasi sharqda Chatqol [9: 9-62], Pskom va Talos vodiylarigacha kirib boradi [10: 33-77]. Undan Farg'onan vodiysining sharqiy hududlari orqali o'tib Janubiy Qirg'izistongacha yoyiladi [6: 436].

Dastlab Qovunchi madaniyati ta'sir etgan yodgorliklar Shimoliy Farg'ona hududlarida paydo bo'ladi [13: 128-129]. 1960-yilda Ye. Saltovskaya Asht hududida Qiziltepa yodgorligining antik davr qatlamlaridan sirtiga qizil angob berilgan, dastasi hayvon ko'rinishli krujkalarini uchratadi [26: 49]. Xuddi shunday zoomorf ruchkali krujkalar Asht yaqinidagi Mug' qo'rg'onlari va qurumlarida uchraydi.

1966-yilda Ye. Saltovskaya qadimgi Farg'onaning shimoli-g'arbiy qismida, Asht rayoni hududlarida arxeologik izlanishlarini davom ettiradi. U Tojikiston hududidagi Qal'ai Afrosiyob tepaligida stratigrafik qazishmalar olib borish chog'ida, yodgorlikning ilk o'rta asrlarga tegishli qatlamlidan bir xil keramika kompleksini uchratadi. Bu keramika kompleksi xom g'ishtlardan tiklangan xonaning ikki gorizontli poli ustida aralashib ketgan. Keramika tarkibida nafis va jarangdor, tiniq fon ustiga qoramtil

jigarrang gul solingen turli-tuman xushbichim sopol idishlar orasida qizil angob ustiga taram-taram jigarrang rangli naqsh solingen xum va xumchalar, yuqori qismi yupqa, tiniq angobli krujka va bankasimon chovgunlar uchratiladi. Bunday idishlar Qovunchi madaniyatiga xos keramika kompleksi bo'lib, ular To'dai Kalon yodgorligining V-VI asr qatlamlarida ham ko'plab uchratiladi [27: 99-100].

1950-yillarning boshlarida M. Voronets Farg'ona vodiysiga uyushtirgan arxeologik qidiruv ishlari vaqtida Asht dashtlarida qadimgi mozor-qo'rg'onlar ko'plab uchrashini ta'kidlaydi [7: 23]. Keyinroq, 1950-yillarning ikkinchi yarmida Xo'jand viloyatining shimoli-sharqi hududlarida arxeologik izlanishlar olib borgan B. Litvinskiy ham Asht mozor-qo'rg'onlari bilan tanishib, ularning aksariyat ko'pchiligi har xil konstruktsiyali yer usti tosh uyumlardan iborat qurumlar ekanligiga e'tibor qaratadi [13: 72]. 1971-yilda Ye. Saltovska ya Xo'jand-Asht yo'li bo'ylab tog' oldi dashtlarida joylashgan 250 ga yaqin yer usti mozor-qo'rg'onlari o'rganishni davom ettirib, Asht qabristonidan 41 ta qurumlarni olib o'rganishga tuyassar bo'ladi [24: 59-79]. Qurumlar konstruktsiyasi qum-toshli yer yuzasi biroz chuqurlatilib, unga yotqizilgan murda ustiga tuproq tortilmay, tosh uyumlari terilib, ustiga shag'al yotqizilgan. Qurumlar tashqi ko'rinishda aylana shaklda, to'rt burchakli, qabr kamerasi uncha chuqur emas, biroz o'yilgan, kamera qirralari bo'ylab, ya'ni skelet kamerasining atrofiga tosh terilib, tosh yashik yasalgan. Qabrlar asosan bir kishilik, ba'zan jamoaviy qabrlar ham uchraydi. Skeletlar bosh chanog'i kameraning shimoliy, shimoli-g'arbiy va g'arbiy tomoniga qo'yib joylashtirilgan. Ayollar qabrlarida sopol idishlar, urchuqtoshlar, bronzadan ishlangan bilaguzuklar, uzuklar, simdan yasalgan sirg'alar, turli xil pasta va rangli toshlardan yasalgan munchoqlar, surmadon tosh qalamchalari uchraydi. Erkaklar mozorlarida esa sopol idishlardan tashqari temir pichoqlar, temirdan yasalgan uch parrakli o'q uchlari, mitti tosh qayroqchalar, bel kamarining temir to'qalari va suyakdan ishlangan predmetlar uchraydi.

Asht qabristonining birinchi guruh qabrlari tosh yashiklardan iborat bo'lsa, ikkinchi guruh qabrlarning skelet kameralari uzunchoq shaklda bo'lib, kamera atrofiga toshlar terilib, tosh yashik yasalmagan. Kamerada skeletlar boshi bilan shimol yoki g'arbga qaratib ko'milgan. Qurumlar tashqi ko'rinishda aylana yoki biroz cho'zinchoq shaklda. Ammo, qabr topilmalari birinchi guruh mozorlaridan farq qilmaydi.

Uchinchi guruh qabrlarning tosh uyumi aylana shaklda, aylana diametri yuqoridagilardan ancha keng (8-12 m.), balandligi ham ulardan ancha baland, tosh uyumi markazida 70-90 sm.gacha boradi. Skeletlar bosh chanog'i g'arbga va janubi-g'arbga qaratilgan. Qabr ashyoviy dalillari yuqoridagilardan farq qilmaydi.

Demak, uch guruhdagi qurumlardan topilgan ashyoviy dalillar tarkibi va qurumlar ichki konstruktsiyasiga ko'ra ham, Asht qurumlari ko'chmanchi turkiy qabilalar moddiy madaniyatini eslatadi. Ular xronologik jihatdan bir necha bosqichlarga bo'linadi. Asht atrofidagi qurumlarning bir qismi milodiy eraning I-II asrlariga tegishli bo'lsa, boshqalari milodiy VI-VII asrlarga tegishlidir [29: 63]. Ularning har ikkisi ham ko'p jihatdan Qovunchi madaniyatni komplekslariga o'xshab ketadi. Tiniq qizg'ish angobli kosa va miskal, oqizma rangli xumcha va xurmachalar, krujka va krinkalar (stakansimon idishlar) Qovunchi madaniyatini eslatsa, ularning sirtiga solingen naqshlar, siniq chiziqlar, bo'yalgan bir qator uchburchakli geometrik chizmalar kelib chiqish tarixiy ildizlariga ko'ra, so'ngi bronza davrining an'anaviy naqshlariga o'xshab ketadi.

Qovunchi madaniyatining ta'siri Shimoliy Farg'onan Langari Xojiyon qabristoni materiallarida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Langari Xojiyon qabristoni Turkiston tog' tizmalarining quyoshga o'ng'ay tomonida, Chorku qishlog'i bilan Chashmai Mohiyon bulog'i oralig'ida joylashgan. 1954-yilda B. Litvinskiy bu joylarda bo'lib, uning qisqacha tashqi tavsifini bergan [12: 141]. 1981-yilda A. Mirboboyev turli konstruktsiyali 19 ta mozorni olib ilk ma'lumotlarni ola-di [17: 56-72]. Qabrlar asosan gruntli, ichki tuzilishi katakomba yoki ayvon shaklida, ba'zida lahad kamerasida yog'och tobut qoldiqlari ham uchraydi. Lahadga asosan bir kishi qo'yilgan, ba'zida oilaviy (er-xotin va farzandli) katakombalar ham uchraydi. Barcha yolg'iz mozorlarda yotgan skeletlar boshi bilan janubga qaratilgan. Yog'och tobutlarga solib ko'milgan qabrlar ayvonli tuzilishida bo'lib, skeletlarning boshi sharqqa qaratilgan. Qabrlardan topilgan sopol idishlar: uzunchoq noksimon ko'zalar, bo'g'zi tor jumrakli oftoba, xushbichim og'zi keng xurmachalar va suvoriy suvdonlardan iborat bo'lib, ularning aksariyati kulolchilik charxida yasalgan. Yolg'iz qabrlardan topilgan ot egar-jabduqlari, yugan va ular bilan bog'liq temir to'qalar, turli xil bezaklar, temir xanjar va qilich, temir pichoq va o'roq, uch parrakli kamon o'q uchlari va boshqa buyumlarning ko'pligiga qaraganda, Langari Xojiyon qabristoni yarim o'troq, yarim ko'chmanchi etnik guruhlarga tegishli bo'lgan. Bunday xulosaga kelishda temirdan yasalgan suvoriy haykalchalarini antropologik qiyofasi, to'qa halqasi ichiga shoxdor qo'chqor figurasini joylashtirilishi ham guvohlik beradi [17: 65]. Bunday ko'rinishdagи amulet va to'qalar qadimgi turk dunyosining antik va ilk o'rta asrlar davri yodgorliklarida keng tarqalgan [11: 169].

Qovunchi madaniyatining chorvadorlari ta'siri ayniqla Markaziy va G'arbiy Sug'd adir va tog' oldi hududlarida keng tarqalgan. Bunday guvohlik beruvchi Sazag'on qo'rg'onining yosh sanasini O. Obelchenko milodiy III-IV asrlar bilan belgilaydi.

Sazag'on arxeologik kompleksida qo'rg'on № 1 ichidan topilgan mis tanga bo'lib, uning yuz tomonida saklarga xos yuzli hukmdor tasviri tushirilgan. U qirra burunli, qisqa iyakli, pastki iyak jag'i kichkina soqoli bilan biroz oldinga chiqqan, jingalak sochlari orqa bo'ynini yopgan hukmdorning siyomosi edi. Hukmdor boshining chap tomoni ustida qandaydir rivoyat biltigan sug'd yozuvi bor. Tanganing orqa tomonida, uning chetlariga uch tomonidan afsonaviy qushlar surati chizilgan. Surat aylanasining to'rtinchisi tomoni bir qator chekma naqsh bilan o'rabi olingan.

1960-yil bahorida arxeolog O. Obelchenko tomonidan yana uchta qo'rg'on ochib ko'rildi. Ular sharqdan g'arbga mo'ljal olgan katakomba qabrlari va janubdan shimolga yo'naliish olgan ayvonli qabrlar bo'lib, katakomba lahadiga kirish teshigi xom g'ishtlar bilan berkitilgan. Qabrlarda boshi sharqqa qaratilgan odam suyaklari yog'och tobutlarga joylashtirilgan. Skeletlar bosh tomoniga 2-3 tadan sopol idishlar, bir quloqli ko'za va krujkalar qo'yilgan. Ayvonli qabrlari ga qo'yilgan sopol idishlar kulolchilik charxida, katakomba qabrlar sopol idishlari esa qo'lda yasalgan. O. Obelchenko ayvon qabrlarini o'troq aholiga tegishli deb hisoblab, ularni yil sanasini milodiy eranining boshlari bilan belgilaydi, katakomba qabrlarini esa chorvadorlarga tegishli ekanini ta'kidlab, ularni davriy sanasini milodiy II-IV asrlarga tegishli ekanini asoslaydi [21: 63-65].

Quyimozor stantsiyasidan janubi-sharqda, Kampir devor yo'naliishi hududida Lavandak qishlog'i joylashgan. Qishloqning 3 km.cha janubidan Karnob cho'li boshlanadi. Cho'l hududida Lavandak nomi ustida 130 dan ortiq tuproq qo'rg'onlari ikki guruh bo'lib joylashgan. Ana shu Lavandak qabristonida O. Obelchenko V. Shishkin bilan birgalikda 1952-yili arxeologik qidiruv ishlarini olib boradi, kelgusi yil bahor oyida esa mazor-qo'rg'onlarni qazishni boshlaydi. Har ikki guruh qo'rg'onlari ichidan dastlab bittadan qo'rg'on ochilgan [20: 98-100]. Birinchi guruh qo'rg'on ayvonli lahad tuzilishidagi qabrlar bo'lib, ularning lahad kamerasida ikkitadan skelet, erkak va ayol joylashtirilgan. Ayol skeleti boshi bilan shimolga, erkak esa janubga qaratib ko'milgan. Erkak bosh tomonida xum parchalari, sopol chilimdon va kamar to'qasi, ayol bosh tomonida esa charxda yasalgan qadah, yana qandaydir zanglab ketgan temir predmeti, tos suyagi ostidan temir buyum topilgan. Ikkinci guruh qo'rg'onlari kataombali qabrlar bo'lib, lahad kamerasining teshigi xom g'ishtlar bilan berkitilgan. Qabrdan pachoqlangan skeletdan tashqari xum parchalari, chilimdon, ko'za va angoblangan xurmacha, kul va ko'mir parchalari, temir pichoq, qo'yning oldingi oyog'i va kurak suyagi topilgan. Yana bir kataombali qabrdan (boshi janubga qaragan erkak), skelet yonidan temir qilich, bosh tomonidan xum va chilimdon, qo'yning oldingi oyog'i va kurak suyaklari, temir pichoq topilgan.

Bulardan tashqari, Lavandak qabristonidan yana 7 ta qo'rg'on ochib o'rganilgan [20: 103-176]. Ular ayvonli va katakomba qabrlardan iborat bo'lib, lahad qabr ayvonining g'arbiy devori ostida joylashgan. Bunday tartib O'rta Osiyo sharoitida bronza davridan, Sopolli madaniyatidan ma'lum bo'lib, antik davrida keng tarqalgan [3: 38-63. 4: 42-70]. Lavandak qabristonining qabr kamerasi uning ayvonini g'arbiy devori ostida joylashgan, ayvon keng va lahadga 2-3 pillapoya bilan tushilgan. Shunday konstruktsiya li ayvonli lahad qabrlari Quyi Volga va Janubiy Ural dashtlarida keng tarqalgan [28: 95].

O'rta Osiyoda o'rganilgan ayvonli lahad qabrlari milodiy II-IV asrlarga tegishli bo'lib, ularning ayvonlari odatda turli xil toshlar bilan to'lg'izilgan bo'ladi. Lavandak qo'rg'onlari esa lahadga kirish teshigi dastlab qamish bilan yopilgan. Ayvon va lahad poliga ham qamish bo'yra to'shalgan, uning ustiga esa shag'al aralash oq gips yotqizilgan. Bu Lavandak qabristoni uchun harakterli bo'lib, O'rta Osiyoning qolgan ayvonli lahad qabrlarida lahadga tosh plita yotqizilib, uning ustiga bo'yraga o'rallan murda yotqizilgan.

Lavandak va O'rta Osiyoning shu davrga oid boshqa katakomba qabrlarida lahad dromosga nisbatan perpendikulyar tuzilishga ega. Bu holat Toshkent vohasi Qovunchi madaniyati qabrlari uchun xarakterlidir. Lavandak qabristonining skelet yotgan kameralardan charxda yasalgan qadahlar, gardishi tashqariga qayrilgan konussimon kosalar, bir quloqli ko'zalar, qorni keng bo'g'zi tor suvdonlar topilgan. Kataombali qabrlardan esa xum va xumcha parchalari, chilimdon, krujkalar topilgan. Skeletlar boshi bilan janubga, janubi-sharqqa qaratib ko'milgan. Sopol idishlar skeletning oyoq tomoniga yoki bosh tomoniga qo'yilgan. Qabrlarning ko'pchiligi erkaklarga tegishli bo'lib, ulardan uch parrakli temir paykonlar, uchi tashqariga qayrilgan bir tig'li temir pichoqlar, temir xanjar va qilichlar, temir to'qalar va chilim kuldonlari, ayol qabrlaridan kumush uzuk va isirg'alar, bosh kiyimga qadalgan qo'ng'iroqsimon bezaklar, odam surati tushirilgan tumor, nishon va boshqalar topilgan. Lavandak qabristonining № 6 qabridan topilgan oltin nishonga ayol surati tushirilgan. U 1886-yilda Tobol guberniyasidan topilgan kumush medalonni eslatadi. Atrofi patlarga o'rallan bu ayol iloh ovchi yoki suvoriy askar homiysining ramzidir. Marhum tanasida medalon odam suyagini ko'krak suyaklari ustidan topilgan. Illoq qiyofali medalonda hukmdor siyomosi to'liq, mukammal tasvirlangan. Bu Demetriy tangalari dagi Artemida suratini eslatadi. Demetriy tangalari esa mil.avv. II asrning uchinchi choragiga tegishlidir.

Shuni ham nazardan qochirmaslik kerakki, Lavandak qabristoni Quyimozor qabristoni kabi ayvonli lahad va katakomba qurilmalaridan iborat bo'lib, muallif ularni Janubiy Ural va Quyi Volga bo'yи dashtlarining skif-sarmat qabilalari bilan genetik bog'liqligini

ta'kidlaydi [19: 225]. Ammo, muallif sarmat qabilalaring Buxoro Sug'diga kirib kelishini mil.avv. II asrning ikkinchi yarmida yuechjilarning O'rta Osiyo ichki viloyatlariga kirib kelishi bilan bog'laydi [20: 173-176]. Aslida esa, sarmatlar O'rta Osiyo hududlariga unga-cha, yuechjilardan avvalroq, Quyi Sirdaryo orqali Aris va Toshkent vohasiga kirib kelib, Qovunchi madani-yatini tarkib topishida faol qatnashgan edilar. Yuechji-lar esa Sharqiy Turkistondan O'rta Osiyo hududlariga qadimgi Farg'ona, Jizzax, Samarqand va Qashqadaryo orqali Janubiy O'zbekiston hududlariga o'tib ketadilar va mil.avv. I milodiy asr boshlarida qadimgi Baqtriya hududlarida Kushonlar imperiyasiga asos soladilar.

#### **Foydalaniman adabiyotlar ro'yuxati:**

1. Анфимов Н.В. Меото-сарматский могильник у станицы Усть-Лабинской // МИА. – М., – Л., 1951. – № 23.
2. Аскаров А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. – Ташкент, 1977.
3. Аскаров А. Сапаллитепа. – Ташкент, 1973.
4. Брыкина Г.А. Раскопки усадьбы Кайрагач. (Южная Киргизия) "АО 1969 года" – М., 1970.
5. Воронец М.Э. Археологические исследования Института истории и археологии и Музея истории АН Уз.ССР на территории Ферганы в 1950-1951 годах. Тр. Музея истории Уз.ССР. Вып. 2, – Ташкент, 1954.
6. Кибиев А.К. Археологические памятники Чаткала. В сб. "Труды КАЭЗ" Т. II. – М., 1959.
7. Кожомбердиев И. Катакомбные памятники Таласской долины. В сб. "Археологические памятники Таласской долины". – Фрунзе, 1963.
8. Левина Л.М. К вопросу об антропоморфных изображениях в Джетиасарской культуре. В кн. "История, археология и этнография Средней Азии". – М., 1968.
9. Литвинский Б.А. Археологический очерк Исфаринского района. Тр. АН Тадж. ССР, том XXXV, – Сталинабад, 1955.
10. Литвинский Б.А. Изучение курумов в северо-восточной части Ленинабадской области в 1957 г. В сб. "Археологические работы в Таджикистане в 1957 г." – Сталинабад, 1959. Вып. – № 5.
11. Литвинский Б.А. Раскопки могильника в Исфаринском районе в 1956 г. Вып. IV. – Сталинабад, 1959.
12. Мирбобоев А. О работах Чоркуйского ходоговорного отряда в 1981 г. "Археологические работы в Таджикистане". Вып. XXI. – Душанбе, 1981.
13. Обельченко О.В. Куюмазарский могильник. Тр. ИИА АН Уз.ССР. Вып. 8. – Ташкент, 1956.
14. Обельченко О.В. Лявандакский могильник // ИМКУ. – Ташкент, 1960. – № 2.
15. Обельченко О.В. Миранкульские курганы // ИМКУ. – Ташкент, 1969. – № 8.
16. Салтовская Е.Д. Раскопки на Кзылтепе в 1960 г. Археологические работы в Таджикистане. Вып. VIII. 1960.
17. Салтовская Е.Д. Тепа Калаи Афросиёб в Аште (Северо-Западная Фергана). Материальная культура Таджикистана, Вып. 3. – Душанбе, 1978.
18. Сальников К.Ф. Древнейшие памятники истории Урала. – Свердловск, 1952.
19. Спришевский В.И. Некоторые находки из Муххана в собрании Музея истории. Тр. Музея истории АН Уз.ССР. Вып 3. – Ташкент, 1956.



# O'ZBEKİSTONDA NOTARIAT SOHASINING VUJUDGA KELISHI TARİXİY JİHATLARI



Intizor  
**MAMAJONOVA,**  
Toshkent viloyati  
Chirchiq davlat  
pedagogika instituti  
tayanch  
doktoranti



**Annotatsiya:** Maqolada mamlakatimizda notariat sohasi vujudga kelishining tarixiy ildizlari va rivojlanish tarixi yoritildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2018-yil 28-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan murojaatida mamlakatimiz tarixini yaqindan o'rganish va xronologik tarzda o'rganishni qonun darajasiga ko'targanligi kabi masalalar tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** fuqarolik, shartnomaviy, yer, oilaviy, meros, huquqiy munosabat, shariat, odat, notariusning funksiyasi, tarixiy, huquqiy, odat, sug'd hujjatlari, davlat

**Аннотация:** В статье освещаются исторические корни становления и развития нотариального дела в нашей стране. В Послании Президента Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёева Олий Мажлису Республики Узбекистан от 28 декабря 2018 года анализируются такие вопросы, как внимательное изучение истории нашей страны и хронологическое изучение закона.

**Ключевые слова:** гражданские, договорные, земельные, семейные, наследственные, правовые отношения, шариат, адат, функции нотариуса, исторические, правовые, традиция, согдийские документы, государства

**Annotation:** The article highlights the historical roots of the formation and development of the notary industry in our country. The address of the President of the Republic of Uzbekistan Sh.M.Mirziyev to the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan on December 28, 2018 analyzes issues such as the close study of the history of our country and the chronological study of the law.

**Key words:** civil, contractual, land, family, inheritance, legal relations, sharia, adat, functions of a notary, historical, legal, tradition, Sogdian documents, states.

**N**otariat sohasini vujudga kelish tarixi olis moziyga borib taqaladi. Shu bois o'tmish va hozirgi zamон nuqtai nazaridan bunday xolisona yondashuv o'z navbatida tadqiq etilayotgan masalaning mohiyatini teran anglashga imkon beradi. Shuningdek, sohaga oid ilmiy-tarixiy ma'lumotlar, tarixiy tajribani o'zlashtirmay turib, mazkur sohani davlatning huquqiy sohasida tutgan o'rni, ushbu sohaga oid tarixiy ta'limotlarni dialektik birlikda tushunish murakkab masala hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimiz hududida notariat sohasini shakllanishi haqidagi siyosiy-huquqiy ta'limotlar mujassamlashgan ilk manba – Avesto hisoblanadi. Mazkur manbada qayd etilishicha, oqsoqollar kengashning mo'tabar ulamosi-kohin oliy sudya vazifasini bajargan. Shuningdek, unda keltirilgan "vis" tushunchasi ham urug' jamoasi boshlig'i sifatida ijtimoiy-huquqiy vazifalarni bajargan. U katta oila jamoasi oqsoqlari orasidan saylanib, urug' jamoasi bosh-

lig'i, sudya, kohin va jamoa rahnamosi hisoblangan. E'tiborli jihat shundaki, faqatgina "zardushtiylik qonun-qoidalarini yaxshi biladigan Oliy kohin Zaratushtroema" sud jarayonlarini olib borgan. Bu esa o'z navbatida, qadim davrlarda ham diniy amaldorlarning obro'si va nufuzi juda yuqori bo'lib, hatto ular sudyalik lavozimiga urug' jamoasi oqsoqollarini orasidan tanlanib saylangan hamda bir vaqtning o'zida sudya, kohin va jamoa boshlig'i vazifalarini olib borganligidan dalolat beradi.

Shuningdek, o'tmishda sudyalarning hukmi mutloq bo'lgan va unga hech kim e'tiroz bildirishga haqli bo'Imagan. N.Ya.Bichurinning fikricha "Sudya etib esa, dovyurak, kuchli, murakkab ishlarga qodir bo'lgan kishilar tayinlangan". Biroq, fikrimizcha o'tmishda sudyalar nafaqat dovyurak, kuchli, murakkab ishlarga qodir bo'lgan shaxslardan, shuningdek, xalq o'rtaida obro'-e'tibor qozongan shaxslar tomonidan olib borilgan. "Avesto" kitobiga asoslangan holda aytish lozimki, qadimda sudyalar tayinlanish tartibida emas aksincha, oqsoqollar kengashi tomonidan saylanish orqali ushbu vazifani amalgalash oshirganlar.

Mamlakatimiz tarixiga nazar tashlasak, mamlakatimiz hududida musulmon huquqining yoyilishi bilan alohida sud organi – Qozilar sudi tizimi tashkil topdi va rivojlandi. Tarixiy manbalarga tayangan holda aytish joizki, hozirgi kunda mamlakatimizning huquqiy sohasida alohida o'r'in tutgan notarial idoralarning vujudga kelishi va notarial idoralar faoliyatining jamiyat ijtimoiy hayotida tutgan o'rni aynan Qozilar sud tizimi bilan uzyiy bog'liq hisoblanadi. Biroq, biz hech ikkilanmay ta'kidlashimiz mumkinki, qozilar faoliyati bilan uzyiy bog'liq bo'lgan, keyinchalik mamlakatimiz tarixida notarial idoralarni tashkil etilishiga olib kelgan, ilk huquqiy asos, notarial idoraning o'ziga xos ilk huquqiy jihatlari "Avesto" kitobida o'z ifodasini topdi.

Keyinchalik notarial idoralar faoliyatida "majburiyat" kelishuv shartnomasi, qarz shartnomasi ko'rinishida amalga oshiriladigan notarial harakat turi sifatida vujudga keldi, "shartnomaga oid bo'lsa" degan jumladan kelib chiqib aytish joizki, mamlakatimiz tarixida musulmon huquqini keng yoyilishi bilan qozilar tomonidan har xil turdag'i shartnomalar bajarildi. O'sha vaqtida notarius degan nom, yoki notarial harakat degan tushuncha va atamalar bo'Imagan, biroq ushbu kundagi notarial idoralar tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladiki, ular bajargan vazifani o'tmishda oqsoqol, qozi nomi bilan ish bajargan shaxslar bajarib kelganligini tarixiy hujjatlar tasdiqlaydi. Notariatning tarixiy ildizlari qadim-qadim zamonalarga, hali g'or odami boshqalar bilan hamjamiyatda o'zini qanday muammolar kutayotganligini tasavvur ham qilolman vaqtлага borib taqaladi.

Ilmiy izlanishlar shundan dalolat beradi, notarial idoralarning faoliyati uzoq tarixga ega bo'lib, bu jarayon musulmon huquqida ham o'z ifodasini topgan

[3]. Jumladan, "Muxtasar"da hozirgi kunda davlat notariuslari tomonidan hal etilayotgan "Garov" mazkur manbaning – 89-bobida, "Ijara" – 82-bobda, "Kafolat" – 92-bobda, "Ixtilof" – 117-bo'limining 16-18-bandlari, "Vorislik huquqi" [3] to'g'risida so'z yuritiladi, bu holat notarial idoralarning tarixi uzoq o'tmish davrlari ga borib taqalishini tasdiqlaydi. Chunki o'sha vaqtdayoq, vorislik masalalarini muayyan tartibga rioya etgan holda rasmiylashtirilishi talab etilgan. Shuningdek, asosiy shariat normasi hisoblangan Qur'oni Karimda hozirgi kunda ham notariuslar faoliyatida eng murakkab notarial harakatlardan biri bo'lgan meros haqida fikr yuritilib, uning Niso surasi 7-oyatida "Erkaklar uchun ota-onalari va qarindosh-urug'lari qoldirib ketgan merosdan ulush bordir. Ayollar uchun ham ota-onalari va qarindosh-urug'lari qoldirib ketgan merosdan ulush bordir. Bu ulushlar ozmi-ko'pligidan (qat'iy nazar) farz qilingan haqlardandir" [3], deyiladi. 8-surada "Meros taqsimida uzoq qarindoshlar, yetim va miskinlar ham hozir bo'lsalar, ularni ham shu merosdan bahramand qilib, yaxshi so'zlar aytinlar" [3], – deyilgan. Mazkur surani bizlar ushbu kunda notariuslari tomonidan merosga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnomani berish vaqtida marhumning voyaga yetmagan farzandlari va qaramog'ida bo'lgan shaxslarning meros olish vaqtida ularning huquqlari qonun bo'yicha himoyalanganligida ko'ramiz. Niso surasi 11-oyatida "Olloh farzandlaringizga bir o'g'il uchun ikki qiz barobarida meros berishni amr qilur" [4], deb ko'rsatib o'tish bilan merosni taqsimlash haqida fikr bildirilgan. Niso surasining 12-oyatida "Sizlarga xotinlaringiz qoldirgan merosdan, agar ulardan farzand qolmagan bo'lsa – yarmi tegur [4]". Qur'onning ushbu surasidagi qoidalari tarixiy materiallardan ko'rinishicha, revolyusiyaga qadar Turkiston yerlarida amal qilib kelgan [5]. Shuningdek, 11-oyatining davomiy qismida marhumning qilgan vasiyati va qarzlarini ado etilgandan so'nggina merosni taqsimlash mumkinligi ko'rsatib o'tiladi. Ushbu holat O'zbekiston Respublikasining "Notariat to'g'risida"gi qonuni 57-moddasida ushbu fikrlarning umumiyligi jihatlari saqlanib qolganligini guvohi bo'lamiz. Ya'ni, hozirgi kunda amalda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi "Notariat to'g'risida"gi qonunining 57-moddasida "notarius merosxo'rlar tomonidan meros qabul qilib olin-guniga qadarli, ish haqi bo'yicha da'volarni va ularga tenglashtiriladigan da'volarni qanoatlantirish, meros mol-mulkni qo'riqlash va uni boshqarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni va qonunlarda meros mol-mulk hisobidan xarajatlarni qoplash haqida Farmoyish berishligi ko'rsatilgan" [6].

O'zbekiston Respublikasi Milliy Arxivida saqlanayotgan hujjatlar [7] va boshqa tarixiy manbalarga tayanib shunday xulosaga kelish mumkinki, shariat va odat normalariga tayanib ish ko'rilmagan davrlarda notarial harakatlarni amalga oshiruvchi maxsus shaxs-

lar bo'limgan, lekin nizoli ishlar yoki shikoyatlarni hal etish yuzasidan qozilarga murojaat etilib, bu masalalarni qozilar guvohlar ishtirokida hal etganlar. Qozilar mazmun jihatdan notarial harakatlarni ham hal qilganlar [8]. Masalan: Xorazm davlatchiligidagi bunday holatni ko'rishimiz mumkin [9]. O'sha vaqtarda fuqarolar o'tasidagi munosabatlar odad normalari bilan tartibga solinib, bu odad normalari huquqiy va huquqiy bo'limgan odatlarga bo'linib, huquqiy odatlar davlat tomonidan tan olingen va yuridik odatlar deb atalib, yuridik kuchga ega bo'lqan [6].

O'zbekiston Respublikasi Milliy Davlat Arxivida saqlanayotgan hujjatlar Respublikamizning notarial idoralar tarixi o'ziga xos boy tajribaga ega ekanligini ko'rsatadi. Bular qatorida, Qo'qonda – 1890-yildan boshlab rasmiylashtirilgan notarial hujjatlar aniq va ravshan tuzilganligini [10] aytish mumkin. Bajarilgan har bir notarial harakat alohida tartib raqami bilan re-estr daftariga qayd etilgan, notarial harakatning turi, undirilgan davlat boji, notarial hujjatni olganlik haqida murojaat etgan shaxsnинг imzosi reestr daftarda notarius tomonidan yuksak saviya bilan qayd qilingan. 1890-yilda faoliyat ko'rsatgan notarius Aleksandr Frayberger tomonidan yuritilgan reestrlarga qayd etilgan notarial harakatlardan notarius tomonidan majburiyat bilan bog'liq shartnomalar, vasiyatnomalar, ko'chmas mulk bilan bog'liq shartnoma, ishonchnomalar notarial tartibda quvohlantirilqanligi ko'rindi [11].

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Saidov A.X.“Vajneyshiy pamyatnik shariata musulmanskogo mira”// Xidoya Kommentarii musulmanskogo prava Tashkent “O’zbekiston” 1 tom 1994.  
–S. 25-44.

2. Muxtasar. –T.: Cho'lpion. 1994. –205, 189, 214, 275 b.
  3. Qur'oni karim Niso surasi, 7-oyati "Cho'lpion" Toshkent Alouddin Mansur tarjimasi, o'zbekcha izohli tarjima 55 –b.
  4. SGA UzSSR.f.R-38.op.2,d,15,l.14.
  5. O'zbekiston Respublikasi Milliy Davlat Arxivi (MDA)Fond №l-660, Ro'yxat №2, yig'ma jild №11, varaq №1, O'zR MDA Fond №l-126, Ro'yxat №1, yig'ma jild №1712, varaq №2, O'zR MDA Fond №l-126, Ro'yxat №1, yig'ma jild № 1713, varaq №35. O'Zrmda Fond №l-126, Ro'yxat №1, yig'ma jild №1713, varaq №28, O'zR MDA Fond №l-126, Ro'yxat №1, yig'ma jild 1713, varaq №18, varaq №16, varaq №12, varaq №90, varaq №8, varaq №7, varaq №3, varaq №1, O'ZR MDA Fond №l-310, Ro'yxat №1, yig'ma jild № 2348, varaq № 23, varaq №4, varaq №3, varaq №1, varaq №3
  6. Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах обитавших в Средней Азии в древние времена. М.: 1950.–50c.
  7. Толстов С.П. "Древний Хорезм". Опись исторический археологического исследования–МГУ 1948.–С.56
  8. Vorobeva S.I. Jamiyatda huquq va urf odal-lar.-T.: 1986. 12-b.
  9. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivi fond I.660, OP№2, DN№1, LN№1, LN№11, LN№12.
  10. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivi fond I.660, OP-№4, D-№16, L-№6, L-№12, L-№75, L-№85, L-№88.
  11. Иванов П.П. Архив Хивинский ханов XIX век. Исследование и описание документов с исторического введения Л-1940. – С.203-214.



UDK: 355.232.61

# XORIJIY MAMLAKATLARDAGI HARBIY TA'LIM TIZIMINING QIYOSIY TAHLILI

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada xorijiy mamlakatlarning harbiy ta'limi tizimini ilmiy tadqiq qilishning dolzarbligi, harbiy ta'limning milliy tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishning nazariy-metodologik va amaliy xarakterdagi qator sabablari hamda zaruriyati bilan o'zaro bog'liqligi, jumladan bunda ta'limning jahon va milliy tajribasidan foydalananish asosida sohaviy belgilangan ta'lim tizimi sifatida harbiy ta'limning istiqbolli tizimini loyihalashtirish kabi ma'lumotlar mujassam.

**Kalit so'zlar:** harbiy ta'lim yo'nalishi, vatanparvarlik, harbiy ta'lim-tarbiya, mudofaa, ijtimoiy muammolar, ruhiy holat, harbiy-huquqiy, nizom talablari, harbiy vaziyat, xavfsizlik choralar

**Аннотация:** Актуальность исследования системы военного образования зарубежных стран взаимосвязана с рядом теоретических, методологических и практических причин и необходимостью поднять отечественную систему военного образования на качественно новый уровень, в том числе с перспективами военного образования, как отраслевая система образования, например, системный дизайн.

**Ключевые слова:** направление военного воспитания, патриотизм, военное образование-воспитание, оборона, социальные проблемы, психическое состояние, военно-правовые, уставные требования, военное положение, меры безопасности

**Annotation:** The relevance of research in the system of military education of foreign countries is interrelated with a number of theoretical, methodological and practical reasons and the need to raise the national system of military education to a qualitatively new level, including the prospects of military education as a sectoral education system. such as system design.

**Key words:** military education, patriotism, military education, defense, social issues, mental state, military-legal, statutory requirements, military situation, security measures.

**K**ishilik jamiyatining porloq kelajagi hayotiy ehtiyoj sifatida ta'lim tizimiga ko'rsatilayotgan e'tibor bilan belgilanadi. Tobora globallashib, shiddat bilan taraqqiy etib borayotgan mamlakatning uzlusiz ta'lim tizimiga innovatsiyalar tattiq etish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta'limda sohaviy integratsiyalarni amalga oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. "Ta'lim to'g'risida"-gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning qabul qilinishi natijasida ishlab chiqilgan kadrlar tayyorlash milliy modeli orqali raqobatbardosh zamonaviy kadrlar tayyorlashning asosi yaratildi.

Hozirgi kunda pedagogika fani faqat yosh avlodni tarbiyalash va shakllantirish uchungina zarur bo'lib qolmay, balki fanning roli jamiyatning barcha soha-



Yorqinoy ROZIMOVA,  
O'zbekiston  
Respublikasi  
Qurolli Kuchlari Aka-  
demiyasi  
Gumanitar fanlar  
kafedrasi katta o'qituv-  
chisi, t.f.n.



larida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Binobarin, mamlakatimiz mudofaa salohiyatini mustahkam-lash O'zbekistonni rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining [2, 2-b.] ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab olindi. Ushbu Strategiyaga binoan 2017-yilda boshqa sohalar qatorida harbiy sohada ham keng ko'lamli o'zgarishlar amalga oshirildi. Qisqa muddatda dastlabki aniq natijalarga erishildi va yangilanayotgan Qurolli Kuchlar tizimi bo'yicha strategik yondashuv ishlab chiqildi. Bu esa "yosh avlodimizda qat'iy hayotiy pozitsiya va Vatanimiz taqdiri uchun yuksak mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish alohida muhim ahamiyatga ega. Shuni hisobga olib, mamlakatimizda o'rta maktabdan boshlab olyi o'quv yurtlarigacha qamrab oladigan uzlusiz harbiy ta'llim va vatanparvarlik tarbiysi bo'yicha o'ziga xos noyob va yaxlit tizim yaratilmoqda" [1], deya bayonot qildi Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. Ma'lumki, Vatan himoyasida toblangan mard o'g'onlari o'zining mardlik va jasurlik fazilatlari, yuksak vatanparvarlik tuyg'usi bilan obro'-e'tibor qozongan harbiy xizmatchilar yoshlarga har tomonlama ibrat va o'rnak namunasi hisoblanadi.

O'zbekiston istiqlolga erishganining ilk kunlari danoq yosh avlodga katta e'tibor qaratildi. Binobarin, uzlusiz ta'llimda amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar yoshlar, ayniqsa, bo'lajak harbiylarni o'z ona-Vataniga, milliy g'oyaga sadoqat, ajodlar va milliy qadriyatlarga nisbatan faxr-iftixon ruhida tarbiyalanishida yuqori o'rinni egallaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyundagi "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmonida bu o'z aksini topdi. Farmonga muvofiq Sohibqiron Amir Temuring Vatanga sadoqat, el-yurtni ardoqlash, mardlik, fidoyilik va adolatparvarlik kabi yuksak fazilatlari yosh avlod uchun o'rnak bo'lib xizmat qilishini inobatga olgan holda Respublikaning barcha harbiy akademik litseylariga "Temurbeklar maktabi" nomi berildi.

Harbiy ta'llimning zamonaviy paradigmasi harbiy tahidillar yuzaga kelayotgan harbiy-siyosiy sharoit, urush va qurollangan kurash mazmuni o'zgarishi; ta'llimning baynamilallahushi va harbiy ta'llim tizimiga mamlakat ta'llim tizimining ta'sir etishi; harbiy kadrlarni tayyorgarlik mahorati va sifatiga talabning ortganligi hamda harbiy ta'llim tizimini samarali boshqaruvga [5, 72-75-b.] zaruriyati bilan ifodalanadi. Bu esa nafaqat ushbu tizimning oldindan rejalashtirilgan kelajakdagi o'zgarishlarida namoyon bo'ladi, balki mamlakatimiz Qurolli kuchlarining mudofaa qobiliyati va jangovar tayyorgarligida ularning ta'sirini ilg'ash mumkin. Bu jihatdan harbiy ta'llimning milliy tizimini rivojlantirish uchun katta amaliy diqqat-e'tibor xorijiy

mamlakatlarning (Rossiya, AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Kanada kabi qator boshqa davlatlar) harbiy ta'llimning tizimli tahlili va ularning harbiy kadrlarning ta'llim va tarbiyasiga nisbatan yondashuvlariga qaratiladi.

Xorijiy harbiy pedagogikaning zamonaviy holati umuman olganda harbiy xizmatchilar ta'llim va tarbiysi muammolari bo'yicha yagona metodologiyasing mavjud emasligi bilan xarakterlanadi. Shu bilan bir vaqtida ofitser kadrlarni pedagogik tayyorlashning holati va nazariyasi, amaliyotining rivojlanishining predmeti A. Akerkpect, M. Eynskau, M. Kollins, K. Evelin va boshqa xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlari hisoblanadi.

AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya va NATOning ayrim boshqa mamlakatlari oly harbiy ta'llim muassasalarida ta'llim tizimi asosida odatda bixevoirizm, rationalizm, neotomizm, ekzistensializm, neopozitivizm, pragmatizm, neofreydizm kabi turli xil psixologik va pedagogik nazariyalaridan foydalaniadi. Dunyodagi geopolitik va harbiy-strategik jarayonlarning mavjud o'zgarishlari bilan bog'liq holda NATO armiyasining harbiy xizmatchilar tayyorgarligining mazmuni va yo'nalishlari sezilarli islohotlarga yuz tutadi.

NATO blokining harbiy o'quv muassasasidagi ofitserning tayyorgarligiga – mamlakatning harbiy-siyosiy manfaatlari, ofitserlarga nisbatan jamiyat va harbiy amaliyotning talablari, pedagogik va psixologik fanlarning holati, ofitser va oddiy askarlar tarkibini jamlashning uslublari, ularning harbiy-kasbiy tayyorlashning tizimi va boshqa omillar ta'sir ko'rsatadi. Ta'llim va tarbiyaning asosiy maqsadi harbiy xizmatchi shaxsini o'z mamlakatining vatanparvar fuqarosi, o'z ustida ishlab kamolotga erishishga doimiy intiluvchi jangovor professional sifatida shakllantirish va rivojlantirishni ko'zda tutadi [4, 384-b.].

Ma'lumki, zamonaviy armiyalarda ta'llim jarayoni ko'p rejali xarakterga ega. Zamonaviy xorijiy armiyalardagi ofitserlarni tayyorlashning tashkiliy tomonidan odatda uch yo'nalish bo'yicha amalga oshiriladi: boshlang'ich tayyorgarlik (ilk ofitser unvonini egallashiqa qadar); harbiy xizmatni o'tash jarayonidagi tayyorgarlik; mustaqil tayyorgarlik. O'z-o'zidan ma'lumki, Rossiya, Belorussiya va boshqa qator xorijiy mamlakatlarning harbiy ta'llim tizimi va ularning asosiy jihatlarini qiyosiy tahlil qilish chog'ida turli mamlakatlarning o'ziga xos xususiyatlari mavjudligini ko'rish mumkin. Bu esa quyidagi jadvalda o'z aksini topgan:

Rossiya, Belorussiya va qator xorijiy mamlakatlar harbiy ta'llimi tizimining qiyosiy tahlili ushbu mamlakatlarning armiyasi maxsus va kasbiy tayyorgarlikning turli darajalariga ega harbiy kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlovchi harbiy ta'llim muassasalarining keng tarmog'ini ko'zda tutadi. Harbiy ta'llim muassasalari bilan bir qatorda harbiy kadrlarning tayyorgarligi fuqarolik ta'llim muassasalarida ham amalga oshirila-

di. Xizmat jarayonida harbiy xizmatchilar amaliyotda va o'qish muddatlari turlicha bo'lgan har xil kurslarda doimo o'zlarining harbiy hamda maxsus bilimlarini takomillashtirib boradilar. Qurolli kuchlar safiga xizmatning shartnomaviy tizimi qo'llaniladi, lavozimga tayinlashda va ofitser unvonini egallashda attestatsiyalar o'tkaziladi, harbiy xizmatchilar kasbiy sifatlarini baholashning reyting tizimi keng qo'llaniladi.

Shunday qilib, ofitserlar tayyorgarligi harbiy xizmatchilar tayyorgarligining asosiy tarkibiy jarayoni hisoblanadi va odatda ular: harbiy ta'lif muassasalarida; mutaxassisligi bo'yicha tayyorlov kurslarida; maxsus tayyorlov kurslarida; oliy tayyorlov kurslarida amalga oshiriladi. Ofitser kadrlarga qo'yiladigan asosiy talablar orasida quyidagilar muhim o'rinni egallaydi: qo'l ostidagilar ta'limi va tarbiyasining zamonaviy metodlaridan foydalana olish ko'nikmasi, harbiy xizmatchilarning jipslashgan jamoalarini tuza olish qobiliyati, qo'l ostidagilar bilan to'g'ri o'zaro munosabatni qura olishi, shuningdek, ularda o'ziga ishonch va dadillik tuyg'ularini rivojlantirish, o'z muomalasi va qo'l ostidagilar xatti-harakatlarini asoslab bera olishi lozim. Harbiy xizmatchi deganda, ko'z o'ngimizda, eng avvalo, qomatiga harbiy libos yarashgan, tug'ilgan yurti va oq sut bergen xalqini jondan seuvuchi, zamonaviy harbiy bilim va ko'nikmalarga ega, tinchlik va barqarorlikni saqlashdek olijanob maqsad yo'lida har qanday jasoratga tayyor mard va botir o'g'lonlar namoyon bo'ladi. Hozirda Milliy gvardiya saflarida jangovar shayligi va kasbiy malakasi yuqori, chuqur bilim va intellektual salohiyatga, o'z muqaddas harbiy burchini bajarish yo'lida qat'iy iroda va mustahkam tayyorgarlikka ega bo'lgan, yurtimizga sadoqatli, mard va fidoiy insonlar ko'p. Biroq, bu kadrlarni zahirasini shakllantirishda tobora globallasshib borayotgan zamon talablariga javob bera oladigan uzlusiz ta'lif mexanizmini takomillashtirib, unga ilg'or inno-

vatsiyalarni tatbiq qilish doimo dolzarb masala bo'lib qolaveradi. Binobarin, bo'lajak harbiy xizmatchilarining kasbiy tayyorgarligi – bu yuqori darajadagi kasbiy mahorat va kasb malakasini oshirish, xizmat, jangovar va jismoniy tayyorgarlikning barqarorligini yuqori saviyada ta'minlash, yuksak ma'naviy va axloqiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan tashkiliy va uzlusiz jarayondir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoyev Sh. Qurolli Kuchlarimiz – mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining mustahkam kafolatidir / O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi nutqi – Elektron resurs: <http://uza.uz/oz/politics/urolli-kuchlarimiz-mamlakatimiz-barqarorligi-vataraiyetini-11-01-2018sphra-seid=4108356>.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoniga sharh. // Xalq so'zi. – Toshkent, 2017. – № 28(6722) – B.2.


3. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevraldagi 140-son qarori. Elektron resurs: <http://lex.uz>

4. Военная психология и педагогика: Учебное пособие / Под ред. П.А. Корчемного, Л.Г.Лаптева, В.Г.Михайловского. - М.: Изд-во "Совершенство", 2008. – 384 с.

5. Кернасовский Ю.М. Военное образование: современное состояние и перспективы развития – Рига, "Народная света". – 2006. – № 3. – С. 72 – 75.




# XIVA PAXTACHILIGI TARIXIDAN



Saparboy  
**NAVRUZOV,**  
dotsent, tadqiqotchi



Dildora ERKINOVA,  
*UrDU magistranti*



**Annotatsiya:** Ushbu maqolada paxta daraxtining ona vatani, undan tayyorlanadigan mahsulotlar, paxta daraxtining boshqa hududlarga tarqalishi, shu jumladan O'rta Osiyo hududida va Xivada paxtachilikning rivojlanish tarixi haqida mashhur sharqshunos olim V.V.Bartold va boshqa tadqiqotchilar tomonidan to'plangan ma'lumotlar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** O'rta Osiyo, podsho Rossiysi, Gerodot, Kserks, Paxta daraxti, tropic o'simlik, pud, "ko'lcha", funt, mahalliy o'g'it, go'ng (dars), g'o'vecha, chigit, desyatina.

**Аннотация:** В статье анализируются данные, собранные известным востоковедом В. В. Бартольдом и другими исследователями о родине хлопчатника, его продуктах, распространении хлопка в другие регионы, в том числе об истории развития хлопчатника в Хиве.

**Ключевые слова:** Средняя Азия, царская Россия, Геродот, Ксеркс, Хлопковое дерево, тропическое растение, пуд, "пруд", фунт, местное удобрение, навоз (дарс), хлопок, чигит, десятина.

**Annotation:** The article analyzes the data collected by the famous orientalist V. V. Bartold and other researchers about the birthplace of cotton, its products, the spread of cotton to other regions, including the history of the development of cotton in Khiva.

**Key words:** Central Asia, Tsarist Russia, Herodotus, Xerxes, Cotton tree, tropical plant, pud, "pond", pound, local fertilizer, manure (dars), cotton, chigit, tithe.

nsonning paxtachilik bilan shug'ullanish tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi. Miloddan avvalgi 4-3-ming yilliiklardoq Afrika, Hindiston yarim oroli va hozirgi Eron hududlarida paxta xo'jalik ehtiyojlari, hamda bozor uchun keng ko'lamda ekilardi. Paxta yetishtirish O'rta Osiyoda birmuncha keyinroq boshlangan bo'lsada, ko'p o'tmay ajdodlarimiz paxtachilik sir-asrорlarini puxta egallahsha muvaffaq bo'lgan edilar.

Sharqshunos olim akademik V.V.Bartold Turkiston tarixi bilan shug'ullanar ekan, mamlakat xo'jaligining yetakchi sohasi bo'lgan agrar sohada dehqonchilik madaniyatining yuksak ekanligini e'tirof qilgandi. O'rta Osiyoda Podsho Rossiysi-ning agrar siyosatida qishloq xo'jaligi, ayniqsa paxtachilik serdaromad soha bo'lib qoldi. Shu bois Turkistonda paxtachilik tarixi olim tadqiqotlarida muhim o'rinnegallardi. Jumladan: "Turkistonda paxta va paxtachilik haqida ilk ma'lumotlar xitoyliklarga tegishlidir. Arxeologik ma'lumotlarda bayon qilinishicha, O'rta Osiyoda yangi asrning ilk davrlaridayoq paxta ekilganligi ko'rsatilgan" [1,437]. "Tarix otasi" Gerodot bu haqda yanada qiziqarliroq xabarlar bergen. Jumladan: "Ahamoniylar shohi Kserks boshchiligidagi forslarning Yunonistonga yurishi paytidagi hindu jangchilarining harbiy libos ko'rinishidagi kiyim-kechaklari jang sharoitida qulay va bejirimligi bilan yunonlarni hayratlantirgandi" [2,334]. Bu kiyim-kechaklar asosan Amerikada o'suvchi tropik daraxt tolasidan tayyorlangan gazlamadan tikilgan edi.

Paxta daraxti o'simlik sifatida mavjudligi eramizdan oldingi 694-yilga doir toshbitiklarda ko'rsatilgan [3,48]. Akademik V.V.Bartold nazarida, VII-VIII asrlardagi arab istilochiligi manbalarda ifodalaran ekan, Turkiston va G'arbiy Osiyo munosabatlarini qizg'in tarzda yuksaklikka ko'targandi. Ayniqsa, Turkiston paxtachiliginin muvaffaqiyatlari o'zaro hamkorlik va madaniy aloqalar natijasidir. Shu narsa xarakterliki, Turkiston paxtachiligi va gazlama tayyorlash hamda paxta tolasini ishslash kabi murakkab jarayonlar takomillashuvi G'arbiy Eron hamda Xuziston paxta tolasidan tayyorlangan gazlama hunarmandchiliga andoza bo'la olgan edi.

Arab sayyohi Ibn Xavqal ko'rsatishicha, Samarcand viloyatidagi "vedar" hamda Samarcand shahridan 4 farsax shimoli-g'arba joylashgan arablar mas'kani bo'l mish "Samani" qishlog'i O'rta Osiyodagi paxta gazlamasi ishlab chiqaradigan markazlar edi. Sayyoh ta'kidlashicha, "Xurosonda hech bir odam yo'q edi-ki, uni kiymaydigan: hatto na Amir, na vazir, na qozi, na mulkdor boy, hatto na bir musofir topilmasdi". Bu matodan tayyorlangan kiyim sariq rangda bo'lib, o'ziga xos tovlanar, kishi egnida yumshoq va yoqimli, nazokatli jilvalanarkan; ayniqsa qish mavsumida kiyishga qulaydir. Shuningdek o'rta asr manbalarida ko'rsatilishicha Buxoro shahri yaqinida "Zandanachi" qishlog'i o'zining paxta tolasidan tayyorlangan gazlamalari, kiyim-kechaklari nafaqat O'rta Osiyoda, balki boshqa o'ikalarda ham ma'lum va mashhur edi. Shu sababdan savdogarlar bu mollarni boshqa yurtlarga sotish uchun olib ketishgan. "Buxoro va Urganchlik savdogarlar 1616-1619-yillarda Astraxan va Qozon shaharlari orqali qizil rangli tor va keng "Zandaniy" gazlamalarni rus shaharlari olib borib sotilgan.

Ma'lumki, sharq qo'lyozma manbalarida O'rta Osiyodagi Samarcand, Buxoro shaharlari qatorida Marv va Xorazmda tayyorlangan gazlamalar haqida ham ma'lumotlar mavjud. Jumladan: Istanriy ko'rsatishicha Xorazm hunarmandlari tayyorlagan bejirim paxta va ipak gazlamalari sharqda turli mamlakat bozorlariga hatto, uzoq turklar yurtiga ham olib ketilgan.

XVIII asr ikkinchi yarmidan boshlab musulmon dunyosi uzil-kesil madaniy tushkunlikka tushgach, Yevropa sanoati birinchiligini ta'minlash jarayoni barcha paxta yetishtiruvchi mamlakatlar: Sharqdan to G'arbiy Yevropagacha, Misrdan to Hindiston hatto Rossiyadan ham paxta keltirilib, gazlama holatiga keltirilgach, uni ishlab chiqaruvchi mamlakatlarning o'zlariga qaytarilgan.

XIX asr ikkinchi yarmida Xiva qishloq xo'jaligida paxtachilik yetakchi sohaga chiqib oldi. Xiva 1873-yilda istilo qilingach sharqshunos olim A.L.Kun Xorazmda etnografik ilmiy-tadqiqot o'tkazar ekan, quydagi xulosaga kelgan edi. "Mahalliy aholining asosiy mashg'uloti dehqonchilik bo'lib, xo'jalikda paxta yetishtirish muhim o'rinni egallaydi. Mahalliy paxta navi "g'o'vecha" O'rta Osiyo navlaridan tolasining nozikligi, mayinligi kabi sifatlari bilan ajralib turardi" [4,32].

XIX asr o'rtalariga kelib to'qimachilik sanoat xomashyosi sifatida paxtaga bo'lgan talab yanada osha bordi. Turkiston paxtachiligin tadqiq qilgan M.A.Terentevning ko'rsatishicha, xonlikdan:

- 1) 1864-yili 409575000 so'm narxda
- 2) 1865-yili 254210000 so'm narxda
- 3) 1866-yili 568035000 so'm narxda
- 4) 1867-yili 727129000 so'm narxda paxta sotib olinib, Rus sanoatchilariga yetkazib berilgan [5,148]. Shuni ta'kidlash joizki, Xiva xonligida paxtachilik tarixi masalasi ilmiy jihatdan o'rganilmagan. Lekin XIX asr birinchi yarmiga doir ma'lumotlarda xonlikka tashrif buyurgan sayyoh va kuzatuvchilar paxta va paxta yetishtirish haqida juda kam ma'lumotlar qoldirishgan. Jumladan: Xiva xonligini 1873-yilda kuzatgan I.Krauze kundaliklarida "Xorazm paxtasi "g'uvacha" Urganch, Gurlan, Xo'jayli va Xiva atroflarida ko'plab ekiladi" deb yozgandi. Uning kuzatishlarida paxta aprel oyida ekilib, bir tanob yerga 4,5 botmon paxta chigit sevilgan. Paxta pishib yetilib, terilgan paxta tozalangach 25 botmongacha hosil olingan. Shuningdek paxta savdosini ta'riflar ekan, Xiva xonligining paxta savdosini Rossiya bilan bo'lismeni ko'rsatar ekan, tarkibida 1000, hatto 2000 tuyadan iborat savdo karvoni erta bahordan paxta, ipak va ko'nchilik mahsulotlari va boshqa mollar bilan Orenburgga kelib, kuzda Astraxanda hamda Nijniy Novgorod shaharlari da savdo qilib, o'zlariga kerakli mollarни olgach (qand, sukno, temir, qurol-yarog', cho'yon idishlar bilan) Xivaga qaytib ketganlar" [6,40]. XIX asr oxirida Rossiya to'qimachilik sanoati talablari o'sishi bilan paxta yetishtirish qishloq xo'jaligining yetakchi sohasiga aylandi.

XIX asr oxiriga kelib xonlikda paxta yetishtirish ahvolini ilmiy-tadqiqot qilgan V.I.Masalskiy ko'rsatishicha "xonlikda paxta yetishtirish hajmi unchalik katta emas: har yiliga o'rtacha 300 000 pudni tashkil etib, mahalliy zaruriyat uchun ishlatilganidan qoladigan 100 000 pudga yaqinini chor Rossiyasiga yuboradi" [7,22].

Paxta ekish va uning parvarishiga jiddiy e'tibor berarkan, Orest Shkapiskiy voha dehqonchiligidni jiddiy kuzatgan holda asrning oxiriga kelib ikki xil: mahalliy va Amerika navlari o'stirilgan edi. Mahalliy paxta navi "g'uvacha" ko'p hajmda ekilmasdan, yer egalarining shaxsiy xo'jaligi zaruriyat uchun yetishtirilgan. Bu nav tolasidan dehqon xo'jaligi hayotida zarur anjomlar: ko'rpato'shak, to'n, kiyim-kechaklar, turli liboslar tayyorlangan [8, 22]. Podsho hukumati sanoatchilar O'rta Osiyoda paxtachilikni rivojlantirishni rag'batlantira borib, paxta navlarini yaxshilashni yo'nga qo'yishgan. Shu boisdan Xiva xonligi va Amudaryo bo'linda ham paxtaning Amerika navi ekila boshlandi. Ayni damda, har ikkala hududda paxtachilik novatorlari vujudga keldiki, ular birinchilar qatorida o'z ekin maydonlarida yangi Amerika paxta navlarini sinovdan o'tkazib, mahalliy sharoitga mos holda iqlimlashtirdilar. XX asr boshlarida Xiva xonligi tadqiqotchisi S.Kondrashov ta'kidlashicha, "Rossiya davlat apparatining moliya tizimi amerika paxtasi bilan jon kechirardi, Amerika

paxtasi butunlay sotuv bozoriga tushib, xo'jalik hayoti unga bog'lanardi, hatto xo'jalik egasi uchun kreditlar ochilib faqatgina hosil ko'zlanardi” [9,79]. Lekin, agrotexnika nuqtai nazaridan qaralganda, bu navlarning har ikkalasida ham bir-biridan farqi deyarli yo'q edi. Mahalliy “g'o'vecha”ni ekish uchun “otiz” – yerni tayyorlash uchun kamroq mehnat sarf qilinsa, Amerika navini ekishga tayyorlashda o'ziga xos tayyorgarlik talab qilinardi.

Paxta ekiladigan yer maydonlarini tayyorlash ishi ancha oldin boshlanardiki, yer avvalo kuzda shudgor qilingan. So'ngra yerni mart, aprel oylarida haydab yer tayyorlanadi. Jumladan: har bir desyatina yerga 350-400 arava miqdorida go'ng (dars) to'kib yer o'g'itlangan. Tadqiqotchi S.Konrashov “Har bir arava 20 pud hisobida, jami mavsumda 7-8 ming pud mahalliy go'ng bilan o'g'itlantirilgan. Dalaga sepilgan bu o'g'itlar esa, omoch va mola yordamida tekislanib, yer yuzasi bo'ylab taqsimlangan. Paxta ekiladigan maydonlar aprel oyining 10-30-kunlari sug'orilgan. Sug'orish muddati avvalo vaqtga qarab, suv kelishiga bog'liq holda o'zgarishi, qisqarishi mumkin. Lekin paxta ekiladigan maydonlar kamida 2-3, ko'pi bilan 6-7 marta sug'oriladi. Kichkina “ko'lcha” otizlar birin-ketin sug'orilgan.

Paxtani ekish tadbirlari aprel oyi oxiridan 10-15-maygacha cho'zilgan. Urug' sepish ishi oxirgi suv berilgan kundan 7-8 kun o'tgach, o'tkazilgan. Sepilgan urug' omoch yordamida yerga qorilib, yerga yana ikki marta mola urilgan. Urug' yaxshilab saralangach, har bir desyatina yerga 2,5 yoki 5 pudgacha urug' sepilgan. Paxtani parvarishlash ishi vegetatsion davrda o'tkaziladi. Jumladan: nihollar qalinini yulib tashlash (yakkalash), ketmonlab tagini yumshatish, yovvoyi o'tlardan tozalash ishi paxta ekilgandan keyin bir oy o'tgach, ya'ni paxtada 7-8 barg paydo bo'lgan holatda o'tkaziladi. Dehqon bu tadbirni qo'liga o'roq ushlagan holda chala o'sgan paxtani tubi bilan qo'porib tashlab, yo'l-yo'lakay ko'kargan yovvoyi o'tlarni ham o'rib olgan. Shunday qilib, 5 pud miqdorida ekilgan urug'ning har bir desyatinasini 80-85 foiz darajada unib, nihol beradi. Mabodo urug' sepilgan yerdagi paxta to'liq ko'karmasa yoki zararlansa shu maydon qalin sifatida qoldiriladi. Har bir desyatina yerga taxminan bir kv. sajen hisobiga 27-30 tub paxta niholi ko'karib, o'ttacha 64800 tub nihol unib chiqadi.

Tadqiqotchi S.K.Kondrashov o'tkazgan dala tajriba kuzatishlarida Amudaryo bo'limining Sho'raxon qishlog'ida har bir sajenga 27 tub paxta niholi ko'karib, har bir desyatina hisobiga 64800 dona tub nihol unib chiqishiga erishilgan. Kalta minor qishlog'ida paxta ekilgan yerkarning har bir kv. sajenda 30 tub nihol unib chiqqan. Shunday qilib o'rtalari hisobda har bir desyatina paxta chigit ekilgan yerdagi 72000 tub paxta niholi undirilgan. Tajriba sifatida ekilgan har uchala joyda ham paxtaning balandligi 61,4 sm dan 67,5 sm gacha ko'tarilgandi. S.K.Kondrashov tadqiqotlarida paxta parvarishida kuzatilgan yana bir holat borki, u ham paxta ekilgan har bir desyatina yerdagi ko'karib chiqqan yot va yovvoyi o'tlar

hajmi 48 pudga teng bo'lgan [9, 45]. Paxtachilikning dastlabki parvarishida qilinadigan dehqon mehnati asosan bu o'simlikni yagonalash, ya'ni qalin ko'kargan nihollarni yulib tashlash va yerni ketmon bilan chopiq qilib, paxta niholining tomiri va atrofini suv yurishiga moslab yumshatishdan iboratdir.

Paxtachilikda bunday “operatsiya” dehqon uchun og'ir mehnat. Uning hisob-kitobicha, har bir desyatina yerga o'ttacha 14 dan 16 kungacha mehnat sarflangan. G'o'za parvarishidagi ikkinchi og'ir “operatsiya” chopiq, o'roq ishlatmasdan, faqat ketmon bilan qilingan. Ikkinchi chopiq ham birinchi ishlov berishga o'xshash tarzda har bir paxta tubi atrofida ketmon bilan yumshatilgan va yovvoyi o'tlar chopib tashlangan. Ikkinchi chopiq paxta novdasini yot o'simliklar bosib ketishdan saqlaydi.

Paxta suvni kam talab qiladigan o'simlik sifatida ma'lum. S.K.Kondrashov o'z kuzatishlarida birinchi sug'orishni urug' unib chiqqach, nihol bo'y tortgach, deyarli paxta unib chiqqandan 7-8 hafta keyin o'tkazilgan. Ikkinchi suv esa, paxtaga gullash arafasida berilgan. Tajriba kuzatishlar davrida dehqon paxtaning holatini ko'proq kuzatgan. Kuzatish jarayonida o'simlikning tashqi ko'rinishida gul rangi asosiy ko'rsatkichdir. G'o'zaga uchinchi sug'orish ishi esa, urug' ekilgach 3-4 oydan keyin o'tkaziladi. Ayni damda ko'saklar pishib yetila boshlaydi. Paxta yig'im-terimiga ko'saklar yoppasiga pishilib yetilgandan so'ng kirishilgan.

Tadqiqot davrida S.Kondrashov yig'im-terim mavsumida paxta dalalarini kuzatar ekan, quyidagi manzaraga guvoh bo'lgandi. Terimchi paxta dalasiga tushiboq, ochilgan paxta ko'saklaridan tola-momiqlarini terib, xalta-qoplarga solgan. Har bir paxta ekilgan maydon “ko'lcha” paxtasi yig'ib olingach, boshqa “ko'lchaga” o'tilgan. Shunday tarzda tartib bilan barcha otiz-ko'lchalar paxtasi yig'ilgan. Terimchi bir kunda o'ttacha 2 puddan 2.5 pudgacha tera olgan [9,48]. Quyidagi xo'jaliklarda turli xil natijalarga erishildi.

	Xo'jaliklar	Yer maydoni kv sajen hisobida	Yig'ilgan paxta pud hisobida	1 desyatina yer hisobida
1	Qalandarboy xo'jaligi	2804	130,75	111,91
2	Rayimqulov xo'jaligi	5492	433,25	189,33
3	Jaslonov xo'jaligi	2691	111,5	100,33
4	Berdiniyozov xo'jaligi	2771	185,0	160,23
5	Davlatkeldiev xo'jaligi	3700	180,0	116,76

Shunday qilib chizmada ko'rsatilgan umumiy natija “har bir desyatina yer hisobiga o'ttacha 135,71 pud xosil olingan”. Agar bu ko'rsatgich o'zaro taqoslanganda Sirdaryo paxtakorlari oladigan hoslilga

nisbatan Xorazm vohasidagi paxtachilikda yuqori darajaga erishilgan [9,30].

Tadqiqotchi aniqlashicha, paxtaning birinchi terimi hosilning deyarli yarim qismini bergan. Kondrashov yana bir holatga e'tibor bergandi: Xo'jayli bekligidagi A.Safaryants xo'jaligida yangi ekilgan yerlarda o'r-tacha ishlov berish muddatida 4 ta terim davomida olingen hosil natijasi quyidagicha edi: 13543 kv sajen ya'ni 5,64 desyatina hisobida bo'lib, har bir desyatina hisobiga 188 pud 15 funt hosil olingen [9, 55]. Bu natija voha paxtachiligidagi yuksak natija edi. XIX asr oxiri XX asrga doir Xiva paxtachiligi to'g'risida xarakterli ma'lumotlar chorizmning Amudaryo bo'limi amaldori tadqiqotchi O.Shkapskiyning asarlarida ham mavjud. U o'z kuzatishlari xoramlik dehqonning paxta yetishtirish tashvishlariga batafsil to'xtalgan. Jumladan: paxta ekiladigan yerni tayyorlashda "paxta urug'i sepiladigan har bir desyatina yerga 800 arava mahalliy dars (go'ng) qum bilan aralashtirib o'g'itlangan. Bu maydon 5-10 marta omoch, mola bilan haydalgan. Kamida 3-4 marta sug'orilgach, aprel oyidagina urug' sepilgan. Paxta niholi nish uring ko'karib chiqqach, yoz bo'yи deyarli sug'orilmagan. Chunki, bu davrda paxta o'simligi suv talab qilmaydi. Lekin zaruriy hollardagina bir, ikki marta sug'orilgan. Butun yoz bo'yи chopiq qilinib, qo'shimcha tarzda o'g'itlantirilgan. Avgust oyining boshida terimga kirishilgan. Sentyabr oyi oxirigacha uch marta paxta yig'ib-terib olingen. Har bir desyatina paxta maydonidan 100 pud ko'rak yig'ilib, uning momiq paxtasi chanog'idan qo'lda sug'irib olin-gan. Paxta orasidagi chigit esa qo'l bilan tozalangan. Shkapskiy paxta navlari haqida fikr yuritar ekan, "Xiva paxtasini yetishtirish, uni olib ketish arzonroq tushadi, lekin mahalliy g'o'za, Amerika naviga o'xshamaydi. Ko'rak ochilmasdan tarsillab yoriladi, xolos. Uning momig'ini yig'ib olish "qiyinroq ish". Mahalliy paxta yetishtiruvchi dehqon daromadlari haqida fikr yuritar ekan: "Har bir desyatina paxta maydonidan 100 pud ko'rak olinsa, har bir desyatina paxta yerdan 20 pud toza paxta momig'i olinib, naviga qarab 4 rubldan 7 rublgacha daromad qilishi mumkin" [8,50].

Shunday qilib, XIX asr oxiri XX asr boshlari Xiva xonligida paxta yetishtirish mustamlakachilik tuzumida iqtisodning yetakchi sohasiga aylandi. Tadqiqotchi V.Lobachevskiyning 1909-yilgi ma'lumotlari xonlik paxtachiligidagi 34775 desyatina yer paxta yetishtirish ajratilgan. Demak xonlikda paxta ekilgan maydon jami ekin yerlarining 15,8 %ni tashkil qilgan.

1910-yili o'tkazilgan aholi ro'yxatiga binoan Mang'itda 6250 tanob yer paxta bilan band bo'lib, ekin yerlarining 25%, Xonqa bekligidida 3000 tanob yerda 20%, Qilichboyda esa 3600 tanob yerda 20%, Yangi Urganch bekligidida 5000 tanob yerga paxta ekilib 20% ga teng bo'lgan. Xiva bekligidida 7500 tanob yerga paxta ekilgan bo'lib, bu 15% paxta maydonlarini tashkil etgan [10,58]. XIX asr oxirida xonlik paxtachiligini tadqiq qilgan V.Masalskiy "jami ekin maydonlarning deyarli

10%ga paxta ekiladi" [7,18] deb yozgan edi. Amerika Qo'shma Shtatlari hamda Kavkazortida ekilgan paxtadan olingen hosil har bir desyatina yerga nisbatan 15 pudni tashkil qilgan, Xiva xonligida esa, har bir desyatina hisobiga 20 dan 25 pudgacha hosil beradi" [7,20], deb yozgan edi. Shuningdek, M.Ivanin ham o'z tadqiqotlarida "har bir tanob hisobiga 15 dan 25 pudgacha hosil olinadi" [11,54] deya ta'kidlaydi.

Chorizmning O'rta Osiyoga istilochilik yurishlari ning siyosiy-iqtisodiy sabablari Turkistonda Amerika paxtasining tarqalishini kuchaytirib, XX-asrning 70-yillarida Yevropada paxta narxining ko'tarilishi oqibatida o'lkada paxtachilikni o'stirishga turki bo'ldi. Mahalliy paxta navlari orasida Xorazmda yetishtiriladigan "g'o'vecha" o'zining sifati va mayinligi jihatidan ustunlik qilgan. Bu nav tolasining uzunligi o'rta hisobda 20 mm gacha cho'zilgan. Ayniqsa, 1866-yildan boshlab Turkistonda Amerika paxtasini ekish yo'lga qo'yilgach [12,27], paxtachilik alohida davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Turkistonda, Xiva va Buxoroda paxtachilikning rivojlantirilishi orqali o'lkaza katta mablag'lar olib kelindi. Lekin, bu mablag'lar chor hukumatining amadorlari, banklar, firmalar, sudxo'rlearning foydasiga o'zlashtirildi. O'lkada kambag'allar xonavayron bo'ldi. Ayniqsa paxta oldi-sotdisi bilan shug'ullangan firmalar, dallollar va boshqa vositachilar o'z halqini aldab, qimmat sotib, mahalliy aholini o'rgimchak iplariga o'xshash panjalariga ilindirib olgach, ulardan qutilishning hech iloji bo'lmasdi [13, 16].

#### Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. В.В.Бартольд. Хлопководство в Средней Азии с исторических времён до прихода русских. Собр соч том-1, М.1963
2. Геродот. История в девяти книгах. Спб.2022, седьмая книга с. 334.
3. Хеостов М. История восточной тоговели. Казань,1907, с. 48-49
4. А.П.Кун. Культурный оазис Хивинского ханства. // Туркестанские ведомости. 1873 №32
5. М.А.Терентьев, Россия и Англия в борьбе за рынок. Спб. 1876, с 148.
6. И.Краузе. Известие императорского русского географического общества. 1874,т.х. с.40
7. В.И.Масальский. Производство хлопка в России и попытки введения культуры хлопчатника в южных губерниях и в Предкавказье. Спб. 1889
8. О. Шкапский. "Как Хивинцы ведут полевое хозяйство на своих безводных землях". М.1900
9. Кондрашов С. Орошаемое хозяйство и водопользование Хивинского оазиса. М. 1916.
10. В.Лобачевский "Военно-статистическое описание Туркестанского военного округа. Хивинский район. Ташкент. 1912
11. М.Иванин "Хива и река Амударья" М. 1873
12. Мирзаев.А, "XIX аср охири XX аср бошларида Америка пахтасининг иқлимлаширилиши". // Ўзбекистон тарихи, 2012. 3,4-сонлари, 27-30-бети

# XIV-XV ASRLARDADA XORAZM MADANIYATI RIVOJINING ASOSIY BOSQICHLARI



**Shakir YUSUPOV,**  
Urganch davlat  
universiteti  
tadqiqotchisi



**Xadicha  
ESHCHANNOVA,**  
Urganch shahridagi  
30-IDUM o'zbek tili  
fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Amir Temur va Temuriylar davri Xorazm madaniyatining rivojlanish tarixi mamlakatning ichki va tashqi siyosiy holati bilan bog'liqligi va tarixiy manbalar ma'lumotlari bilan birga arxeologik tadqiqotlar natijalari hamda shu davrga oid arxeologik topilmalar misolida madaniy rivojlanishning davriy bosqichlari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Chig'atoy ulusi, anonim tangalar, Qo'ng'iroq So'filari, "Zafarnoma", maqbara va minora, Orolbo'y, arab-fors tarixshunosligi, qurilish inshootlari, dehqonchilik va hunarmandchilik markazlari, arxeologik va manbashunoslik tadqiqotlar.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются взаимосвязи истории развития культуры Хорезма в эпохе Амира Темура и темуридов с внутренней и внешней политикой страны и а также раскрываются периодические этапы культурного развития на основе исторических источников, результатов археологических исследований и археологических находок данного периода.

**Ключевые слова:** Улус Чагатай, анонимные монеты, Кунградские суфии, "Зафар-наме", мавзолей и минарет, арабо-персидская историография, строительные объекты, центры земледелия и ремесел, археологические и источниковедческие исследования.

**Annotation:** This article reveals the history of the development of Khorezmian culture during the reign of Amir Temur and the Temurids, the results of archeological research, as well as the periodic stages of cultural development on the example of archeological findings.

**Key words:** Chigatay Nation, Anonymous Coins, Kungrad Sufis, Zafarnoma, Mausoleum and Minaret, the Aral Sea, Arab-Persian Historiography, Construction, Agricultural and Crafts Centers, Archaeological and Source Studies.

**XIV-XV** asrlarda Xorazm madaniyatining rivojlanish tarixi ichki va tashqi siyosiy voqealarga bog'liq bo'ldi. Shu paytgacha, Xorazm vohasi xalqlari madaniyati tarixining Amir Temur va Temuriylar davri maxsus o'rganilmay keldi. Shu davrlarda yana nafaqat Xorazm, balki Sohibqironning markazlashgan davlati hududlaridagi chekka viloyatlar va elatlar tarixi bo'yicha ham chuqur ob'ektiv tadqiqotlar olib borilmagan edi.

Amir Temur va Temuriylarning Xorazmdagi siyosatini anglash uchun shu davrdagi tarixga nazar tashlash kerak. Lekin bunda tarixiy haqiqat mukammal o'rGANILISHI shart.

Chingizxon yurishlaridan so'ng (1219-1221) Xorazm davlati majburan ikki qismiga: janubiy Chig'atoy ulusiga (Xiva, Kat), shimoli-g'arbiy qismi esa Jo'ji ulusi-

ga (Oltin O'rda davlati) ajratildi. "Yaso" tartibiga ko'ra hatto davlat poytaxti Gurganjning bir qismi Chig'atoy-larga tegishli bo'lgan. Bu keyinchalik Amir Temur va yarim mustaqil Xorazm davlatini tashkil qilgan Qo'ng'irot So'filari orasida nizolarni keltirib chiqargan. Lekin bu holat Oltin O'rda davlatidagi siyosiy inqiroz-larga taalluqli bo'ldi.

XIV asrning 60-yillarida Jo'ji ulusida (Oltin O'rda) har xil siyosiy guruuhlar orasida keskin kurashlar avj oldi. Bu holat xon Jonibekning (1357-yil) va Berdibekning (1359-yil) sirli o'limidan so'ng ancha avjga chiqdi. Oltin O'rda davlati bu davrdan siyosiy jihatdan ancha zaiflashdi. Shundan foydalangan Xorazmning mahalliy hokimlaridan yarim mustaqil Qo'ng'irot So'filari siyosat maydoniga chiqib keldilar. Shu vaqtidan Xorazmda Oltin O'rda xonlari nomidan tangalarni zarb qilish to'xtadi va "ismi noma'lum" chaqa-pullar chiqarila boshlandi [11.219].

So'nggi marta Gurganjda Oltin O'rda xonlari nomidan tanga 1361-yilda Xizirxon nomidan chiqarilgan. So'ng shu kabi anonim tamg'alangan tangalar 1380-yilda To'xtamish nomidan Xorazmda zerb qilindi.

1360-1370-yillarda yangi tipdagi (shakldagi) anonim tangalar zerb qilinib, ulardagi yozuvlarda xonlar ismi tushirilib, o'rniga avvalgi to'rtta xalifalar nomi zirk qilingan va "podsholik xudodan" degan yozuvlar bitilgan.

Bu kabi tangalarning ilk turi, nusxasi hijriy 762-, 772-yillarda (1360-1361 yy. va 1370-1371 yy.) zerb qilingan. Bu holatni qadimshunos olim M.E.Masson Xorazmda Oltin O'rda xonlaridan yarim mustaqil Qo'ng'irot So'filaring taxtga kelishi bilan bog'laydi [4.53-68]. Keyin uning fikrini Rossiyalik tangashunos va qadimshunoslар G.A.Fedorov-Davidov[10.93-99] va B.I.Vaynberglar ham ta'kidladilar [1.104-114]. Ular ham bu sulola vakillarini "yarim mustaqil" noiblar (podsho) qatoriga qo'shami. Lekin, boshqa bir rus qadimshunosi S.A.Yanina ularning fikriga qarshi chiqdi va "Qo'ng'irot So'filari yarim mustaqil holatda tarix sahnasiga chiqmadi" degan fikrda turdi [15.62].

Lekin shuni aytish joizki, Xorazmda yangidan shakllangan sulola vakillarining tarix maydoniga chiqishi shu davrdagi Oltin O'rda davlatidagi siyosiy inqiroz, parokandalik va Xorazmdagi tarixiy holat bilan aloqador bo'lsa kerak. Chunki XIV asrda Xorazmda O'zbek xon vakili Qutlug' Temurdan (1312-1336) so'ng kuchli noib boshqarmadi. Saroyda ham murakkab holat, xon vorislari to'ntarishlari avj oldi. Shundan foydalanoqchi bo'lgan mahalliy zodagonlar, savdogar, amir va ruhoniylar o'z foydalari hisobiga ma'qul tushgan Qo'ng'irot So'fi vakillarini davlat boshqaruviga ko'targan bo'lsa kerak [3.31].

Shu tarixiy vaziyatda, ya'ni XIV asrning 60-70-yillarida Xorazmda Oltin O'rdadan ajralishga harakat kuchaydi. Bu davrda Oltin O'rda xonlari tomoni-

dan nomi zirk qilinmagan (anonim) chaqa, tangalar ko'plab zerb qilindi.

XIV asrning 60-yillarida Movarounnahrda ham chig'atoylar boshqargan siyosiy kuchlar kurashlari avj oldi. O'zaro nizolardan so'ng Amir Temur hokimiyatni to'liq egalladi (1370-yil). Bulardan tashqari, shu asrning 80-yillarida Oltin O'rdaga chegaradosh davlatlar siyosiy hayotida ham katta o'zgarishlar bo'layotgan edi. Ko'chmanchilar davlatining shimolida Dmitriy Donskoy (1350-1389) boshchiligidagi rus knyazliklari Moskva atrofiga birlasha boshlagan, Movarounnahrda esa Amir Temur yangi qudratli sultanat tuzgan edi.

Lekin Xorazmda Qo'ng'irot So'filaring noo'rin harakatlari Amir Temurga ko'p tashvishlar keltirdi. Hijriy 768-yilda (1367-yil) Husayn So'fi chingiziyar tarafidan shimoli-g'arbiy Xorazmdan bo'lingan Chig'atoy ulusiga tegishli Kat va Xiva shaharlarini zabit etdi. Dastlab Amir Temur So'filarni tinch yo'l bilan bo'ysundirishga harakat qilib ko'rdi.

Nizomaddin Shomiyning yozishicha, Amir Temur Xorazm hokimini tinch yo'l bilan bo'ysundirishga urinib ko'rdi va 1371-yilning mart oyida Gurganjga Alafa To-vachi boshchiligidagi elchilar yubordi. U bilan Xorazm hokimi Husayn So'fini do'stlik va birdamlik munosabatlari o'natishga da'vat etuvchi noma ham yuboradi. Biroq Husayn So'fi Amir Temurga ijobiy javob bermay, "Bu viloyatni (Janubiy Xorazm – Kat, Xiva shaharları) men qilich yordamida qo'lga kiritdim, shuning uchun uni faqat qurol yordamida tortib olishlari mumkin" kabi javob bergan [6.516].

Amir Temurning bu hatti-harakatini Sharafuddin Ali Yazdiy ham yozgan. "Zafarnoma"da "Xivak va Kot (zakoti) Chig'otoy ulusug'a taalluq turur va eyasi yo'q jihatdan sen olur erding. Dahl qilmag'aysen va bizga taaluq kishiga topshurg'aysenkim, do'stlug' aromizda bo'lg'ay" [12.72]. Lekin shundan keyin yuborilgan ikkinchi elchi Shaykulislom Jamoladdin Keshiyni esa "qal'aga soldi" – (zindonga) tashladi. Bu Amir Temurning Xorazmga urush boshlashiga olib kelgan.

Sohibqiron 1370–1388-yillar oralig'ida Xorazmga besh marta yurish qildi, Gurganjni bosib oldi va So'filar sulolasini bu yerda tugatildi (1388-yil). Poytaxt shahar vayron qilindi, ko'plab olimlar, hunarmandlar Movarounnahrga ko'chirildi [5.524].

Jo'jilar (Oltin O'rda) tarafdarlari bo'lgan mahalliy So'filar sulolasini, Janubiy Xorazmdagi chig'atoylar vorislari orasidagi noo'rin harakatlarga qaramay, XIV-XV asrlarda hokimiyatni egallab, Xorazm madaniyatini rivojiga tarixining o'ziga xos bosqichini yaratdilar.

Bu davrning birinchi bosqichi XIV asr boshidan, to shu asrning 70-yillarigacha cho'ziladi. Bu bosqich Xorazm madaniyatining rivojlanishi bilan xarakterlanadi. O'rta Osiyo mo'g'ul hukmdorlari davrida Xorazm Oltin O'rdanining boy viloyati bo'lgan. XIV asr boshlarida Xorazm vohasi iqtisodiy va ijtimoiy hayotida biroz jonlanish kuzatilgan. Oltin O'rda noibi Qutlug' Temur

va uning rafiqasi To'rabebekxonim Urganchda bir necha yirik maqbara va minora qurdiradi. XIII asrning oxi-ri – XIV asr boshlarida mahalliy aholi o'rda tasarrufida bo'lgani bilan madaniy, siyosiy jihatdan mustaqil bo'lishga harakat qildi. Bu bosqichda viloyatning qadimiy shaharozlik madaniyati rivojlanib bordi, hunarmandchilik an'analarini yangi davr madaniy yutuqlari bilan chambarchas bog'lanishi davom etdi. Mo'g'ul hukmronligi davridagi qisqa inqiroz keyingi madaniy-ma'naviy hayotdagi o'sishga olib keldi. Oltin O'rda davrida shimoli-g'arbiy Orolbo'yi shaharlari madaniyat markazlariga aylandi.

XIII-XIV asrlar Xorazm hududi to'g'risida tarixiy manbalar ko'p emas. Siyosiy, geografik, tarixiy mazmundagi ma'lumotlarni biz arab-fors va O'rta Osiyo feodal tarixshunosligi xarakteridagi adabiyotlarda uchratamiz.

Jumladan, bu davr bo'yicha rimliklar Plano Karpini, aka-uka Pololar XIII asrning 40-60-yillarida Oltin O'rda, O'rta Osiyo hududida bo'lganida Organso nomi bilan Urganchni eslab o'tadi [7.209]. Ularning ma'lumotini fransuz qiroli Lyudovik IX elchisi Andre Londjumo, italiyalik Djovanni Marinololar Orolbo'yi shaharlari to'g'risidagi ma'lumotlari bilan to'ldiradi. Yevropaliklar ma'lumotlarini arab-fors tililarida yozgan Ibn Battuta, Shihobiddin Fazlulloh al Umariy, Ibn Arabshoh o'z axborotlari bilan to'ldiradi [8.129,174].

Mualliflar o'z axborotlarda Xorazm vohasi madaniyatining markazi bo'lgan Urganch "chiroyli turk shaharlaridan bo'lib, unda katta bozor, keng ko'chalar, alohida ajralib turuvchi keng qurilishlar bor" degan ma'lumotlar keltiradilar. Bulardan tashqari, Urganchda ko'plab namozgohlar, masjid-madrasalar, minoralar, shifoxonalar va boshqa qurilish inshootlari mavjud bo'lgan.

XIV-XV asrlar Xorazm madaniyati tarixining asosiy muhim bosqichi sifatida, XIV asrning 70-yillaridan keyin boshlab, alohida davr, ya'ni Amir Temur va Temuriylar davri sifatida izohlanadi. Amir Temur davrida tuzilgan kuchli markazlashgan davlat, qaytadan qurilgan shaharlari, ajoyib inshootlar, hunarmandchilik va savdoning gullab-yashnaganligi va nihoyat uning davrida o'rnatilgan tinchlik bu davr madaniy taraqqiyotining asosiy omillari hisoblanadi. Shu davrda nafaqat Xorazm, balki Sohibqironning markazlashgan davlati hududlaridagi chekka viloyatlar ham taraqqiy qilgan edi.

XIV asrning 70-yillaridan – XV asr oxirlarigacha bo'lgan davrlarni o'z ichiga oluvchi ikkinchi bosqichda Xorazm vohasi hududlarida, jumladan, janubiy va shimoli-g'arbiy yerlarida yangi iqtisodiy, madaniy rivojlanishlar yuz berdi.

Sohibqironning Xorazmga harbiy harakatlarida Xorazmning janubiy hududlari talofat ko'rmadi. Birinchi yurishida (1372-yil iyul) Amir Temur Kotni

egallab, so'ngra Gurganjni qamal qildi. Ammo Husaynning vafot etganligi munosabati bilan taxt vorisi Yusuf So'fi sulh so'radi ("va aroda kishi solib yarash so'zini ayturdi"). Amir Temur sulh tuzib, Samarqandga qaytdi deb yozadi muarixlar [12.74].

Yusuf So'fi Amir Temur qaytib ketgandan so'ng yana Kot shahrini bosib oldi, unga bo'ysunishdan bosh tortadi. Bunga javoban Sohibqiron hijriy 774-yil ramazon oyida (1373-yil yanvar) Qizilqum orqali Xorazmga ikkinchi yurish qildi. Lekin yurish Buxoro atrofida to'xtatildi. Chunki Xorazm amirlaridan biri Hasan Surij Amir Temurni urush harakatlarini to'xtatishga ko'ndirdi va "amir kumush tanga tovon pulni olib xorazmliklarga aziyat yetkazmay Samarqandga qaytdi" [12.75]. Bu yurishlari davrida Sohibqiron faqat Janubiy Xorazm hududlarini (ya'ni chig'atoiylargacha tegishli Kat va Xiva atroflarini) Mavarounnahrga qo'shib oldi. Amir Temurning Xorazmga uchinchi yurishi hijriy 777-yil bahor oyida (1375-yil mart) bo'ldi. Lekin bu harbiy harakat ham oxiriga yetkazilmay tugatildi [13.79]. Bu harakatlar davrida Xorazm shaharlari va elatlarining talofat ko'rganligi to'g'risida ma'lumotlar manbalarda ko'rsatilmagan. Shunga asoslanib ta'kidlash mumkinki, viloyatning janubiy hududlari Amir Temur askarlarini tarafidan ziyon ko'rmagan.

Temuriylar davri tarixi bo'yicha Xorazmning shimoli-g'arbiy hududlarida olib borgan arxeologik izlanishlar ancha samarali natija beradi. Mo'g'ul bosqinchilari yurishlari davrida Amudaryo suvining Daryoliq va O'zboy orqali Kaspiy dengizi va Bolqon tog'i tarafga oqishi bu hududda katta maydonda sug'orish inshootlari qurilishiga, dehqonchilik va hunarmandchilik markazlarining vujudga kelishiga asos bo'lgan.

Eronlik Hamdulloh Qazviniy (XIV asr) "Jayxun (Amudaryo) oldinlari Sharq dengiziga (Orol) quyar edi. Mo'g'illar boshqaruvi davrida o'z suvini Kaspiy dengiziga yubordi", deb ma'lumot qoldirgan. Lekin Abulg'ozixonning ta'kidlashicha "keyinchalik daryo o'zanini o'zgartirib Sariqamish pasttekisligidan Orolga qaytadan quyadigan bo'ldi". Bu voqeа 1573-yili sodir bo'lgan. Ya'ni, shimoli-g'arbiy Xorazm hududlarida, Amir Temur va Temuriylar davrida Urganchdan g'arbg'a qarab obod va xalqi tinch yashagan hudud vujudga kelgan.

Xorazmning g'arbiy hududlaridagi geomorfologik, arxeologik-topografik tadqiqotlar Vazir-Devkesgan, Adoq (Oqqal'a), Shemaha qal'a, Butantov, O'zboy va Sariqamish atroflari Temuriylar davrida shahar, qishloqlar ancha ko'p joylashgan hududlardan biri ekanligini ko'rsatadi.

Arxeologik va manbashunoslik tadqiqotlar Ustyurt tekisligida joylashgan o'rta asr shaharlari Shemaha qal'a (Qumkent), Adoq (Oqqal'a), Vazirdan tortib, Temuriylar davridagi sug'orish inshootlari Gurlan kanali (Bag'dod, Bag'dodik), Eski O'kuz (Amudaryo), Asaf O'kuz kabi daryo tarmoqlari viloyatning shimo-

li-g'arbiy elatlar (Xuroson) bilan aloqlarda muhim ahamiyatga ega bo'lganligini ko'rsatadi.

Ya. G'ulomov bu davr haqida "Janubiy Xorazmning sug'oriladigan yerlari va Xiva, Hazorasp, Xonqa, Kat kabi shaharlari Oltin O'rda va Temuriylar davrida ham yashab keldi", "bu shaharlар o'sha vaqtда Xorazmning iqtisodiy va madaniy jihatdan umuman yuksalishini ifodalar edi", "Kat va Xivada saqlangan ayrim arxitektura yodgorliklari, hatto bu vaqtda madaniy hayotning bir qancha yuksalganligidan ham dalolat beradi" deya fikr bildirgan edi [2.184].

Xorazmning shimoli-g'arbiy chegaralarida XV-XVI asrda qurilgan qal'a-shaharlarning Xuroson yo'lda joylashishi va Temuriylar davrida savdo-sotiq, harbiy maqsadlarda foydalanaligani bu joylarda madaniy yuksalishning davomiyligini ko'rsatadi. Bu joydagi qishloq qurilishlari o'rta asrdagi Xorazm shaharlariiga xos kungurali devorlar bilan himoyalangan. Devorlari kuzatuv minoralari-burjlar va shinaklar bilan mustahkamlangan. Bular, shubhasiz, Temuriylar davrida ham qurilish ishlari davom etib g'arbiy Xorazmda ham yirik shaharlар bo'lganidan dalolat beradi [9.312-314].

Bularning barchasi Xorazmning Temuriylar davri madaniyatiga taalluqli bo'lib, voha aholisining markaziy hududlar bilan yaqin aloqada bo'lganini ko'rsatadi. Shubhasiz, SarIQamishning moddiy madaniyati, xo'jalik hayoti Xorazmning XV-XVI asrlar shahar madaniyati rivojlangan hududlari bilan o'zaro aloqada bo'lgan. So'nggi o'rta asrlar manbalarida bu hudud sharqdan (Movarounnahr va Xorazmdan) g'arbg'a (Xuroson va g'arbg'a) yo'nalgan mamlakatlararo va qit'alararo savdo yo'li tizimida hamda siyosiy voqealarda muhim rol o'ynaganligini ko'rsatadi.

Amir Temur va Temuriylar davrida qayta tiklash kabi ibratlari siyosatni Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq davlatlari misolida ham ko'rsa bo'ladi. Sohibqiron farmoni bilan Ozarbayjonning Baylokan shahri yonda Barlos kanali, Xurosonning Murg'ob vohasi bosh irrigatsiya tarmoqlari bo'lgan kanallar qayta tiklandi. Bunday obodonchilik ishlari Marv vohasida, Ozarbayjonda, Eronda, Xorazmda, ya'ni Temuriylarning chekka, chegara hududlarida ham qishloq xo'jaligi va hunarmandchilikning, savdo-sotiqning rivojlanishiga va shu orqali shahar madaniyatining o'sishiga sharoit yaratdi.

Xorazm hududlarining 1388-yili Amir Temur tomonidan Movarounnahrga qo'shib olinishi jarayonlari

vohadagi shahar madaniyatining rivojlanishini to'xtatmadи. Aksincha, yangi savdo yo'llari bilan birga eski karvon yo'llari ham harakatda bo'ldi, yangi inshootlar qurildi, hunarmandchilik rivojlandi. Amir Temur davlati tarkibiga o'tgan Xorazm shaharlarda osoyishta holat o'rnatilib, feodal urushlarga barham berildi va nati-jada iqtisodiy o'sish jarayonlari qaytadan boshlandi. Tarixiy manbalar ma'lumotlari bilan birga, arxeologik tadqiqotlar natijalari ham Amir Temur va Temuriylar davrida Hazorasp, Xiva, Kat, Gurganj (Tosh qal'a), Vazir (Devkesgan) kabi shaharlarning mudofaa devorlari, aholi turarjoylari va boshqa inshootlar qayta qurilganini tasdiqlaydi. Shemaxaqa'l'a, Adoq, Misdah-kon, Tosh qal'a, Oqqal'a, Puljoydag'i Amir Temur va Temuriylar davriga oid arxeologik topilmalar bu davrda madaniy yuksalishi yuz berganligini ko'rsatadi.

#### Foydalanaligan adabiyotlar ro'yxati:

1. Вайнберг Б.И. К истории Кунградских Суфи // МХЭ., вып.4. М., 1960.
2. Гуломов Я.Г. Хоразмнинг сугорилиши тариhi. Тошкент, 1959.
3. Кдырниязов М.-Ш.Культура Хорезма XIII-XIVвв.// АДД.-Самарканد, 2005.
4. Массон М.Е.Монетный клад XIV в. из Термеза // Бюллетень САГУ, 1929., вып 18.-№ 7.
5. МИТТ.Том.1. М.-Л,1939.-С.524.
6. МИТТ.Том.1.М.-Л,1939.-С.516.
7. Плано Карпини Дж. История монголов. М., 1957. –С.46, 209.
8. Становление и расцвет Золотой Орды. – Казань, 2011. –С.129, 174.
9. Толстов С.П. По следам древнекорезмийской цивилизации.-М., МГУ. 1948. -С.312-314.
10. Федоров-Давыдов Г.А. Из истории политической жизни Хорезма XIVв.// КСИЭ,- вып.30.-М.,1958.С.93-99.
11. Федоров-Давыдов Г.А. Нумизматика Хорезма золотоордынского периода// Нумизматика и Эпиграфика. Том.IV.-М.,1965.– С 219.
12. Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Тошкент,1997.-72 б.
13. Янина С.А. Золотые анонимные монеты Хорезма 60-70 х гг. XIV в.в собрании Государственного исторического музея // Нумизматический сборник. Часть.4,вып.2. М..1972.-С.62.



# QO'QON XONLIGI SIYOSIY TARIXIDA “QIPCHOQ FOJIASI”

*yoxud “qipchoqlar qirg‘ini” va uning oqibatlari*



Xandona  
**HAKIMOVA**,  
O‘zbekiston Milliy  
universiteti  
tarix fakulteti  
2-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada XIX asr o‘rtalarida Qo‘qon xonligi siyosiy tarixida “Qipchoq fojiasi” yoxud “Qipchoqlar qirg‘ini” nomini olgan siyosiy jarayonning sodir bo‘lish sabablari hamda uning oqibatlari xususida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Xudoyorxon, Musulmonqul, Azizbacha Chustiy, “Xo Darvesh”, Baliqchi hududi, “bug‘da”, Safar Serker, Uychi qishlog‘i

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются причины и последствия политического процесса, получившего в середине XIX века в политической истории Кокандского ханства название “Кипчакская трагедия” или “резня кипчаков”.

**Ключевые слова:** Худоярхан, Муслимкуль, Азизбаха Чусты, “Хо Дервеш”, рыбачий район, «бугда», Сафар Серкер, село Учи.


**Annotation:** This article focuses on the causes and consequences of the political process, which took the name “Kipchak tragedy” or “Kipchak massacre” in the political history of Kokand Khanate in the middle of the XIX century.

**Key words:** Khudoyorkhon, Muslimkul, Azizbacha Chustiy, “Ho Darvesh”, Balikchi territory, “bug‘da”, Safar Serker, Uychi village.

**Q**o‘qon xonligining tarixini o‘rganish masalasida bir narsani ta’kidlash joizki, Qo‘qon xonligida yuqori hukmron tabaqanining ijtimoiy va etnik jihatdan xilma-xil bo‘lishligi turli guruuhlar o‘rtasida muttasil davom etadigan hokimiyat uchun kurashining asosiy sababidir. Xonlikda hukmronlik qilgan xonlardan ko‘pi saroy fitnalari oqibatida o‘ldirilganlar, o‘nlab shahzodalar amador va sarkardalar saroy to‘ntarishining qurbanbi bo‘lganlar. Bunday qarama-qarsi turishlar va o‘zaro kurashlar Qo‘qon xonligini oxir oqibatda inqirozga uchrab, chor Rossiyanı mustamlakasiga aylanishiga sabab bo‘lgan bosh omillardandir [1, b.100].

Qo‘qon xonligi XIX asrning 40-yillaridan boshlab siyosiy beqarorlik davriga kirdi va bu holat 1876-yilgacha davom etdi. Tabiiyki, bunday holat xonlikning zaiflashuviga sabab bo‘ldi. XIX asrning 40-yillaridan boshlab qipchoq va qirg‘izlar alohida nufuzga ega bo‘la boshladi. Bu holat xonlikdagi siyosiy vaziyatni izdan chiqishiga, o‘zaro qirg‘inlar davriga kirishiga sabab bo‘ldi.

Qo‘qon Buxoro amirligidan mustaqil bo‘lgach (1842-yil), Musulmonqul bo‘lib o‘tgan hodisadan xabardor bo‘lib, o‘z qo‘smini bilan Namanganga keladi va qizini Sheralixonning o‘g‘li Namangan hokimi Xudoyorga nikohlab beradi. Musulmonqul o‘z qo‘smini bilan Qo‘qonga keladi. Natijada 1845-yilda (hijriy 1261) Musulmonqul boshchiligidagi qipchoqlar ko‘magida oq kigizda Xudayorxon taxtga ko‘tariladi. Murodxon yo‘q qilinishi bilan Musulmonqul boshchiligidagi qirg‘izlar uni qo‘llab-quvvatlagan holda hokimiyat uchun yana bir haqiqiy da‘vogar bo‘lgan – Sheralixonning yana bir o‘g‘li, Sarimsoqxonni qo‘lga oldi. Qo‘qon ruhoniylarining nufuzli vakili Miyon Xalil hazratlarini Toshkentga jo‘natgan Musulmonqul xiyla-nayrang



yo'li bilan Sarimsoqxonni xon deb e'lon qilishga va'da berib, Toshkentdan Qo'qonga kelishga taklif qiladi, lekin uni o'ldirish uchun yashirin ravishda buyruq beradi va 1846-1847-yillarda Baliqchi tumanida xoinlik bilan o'ldiradi [2, c 738].

Bu voqealardan so'ng haqiqiy hokimiyat butunlay Musulmonqul qo'liga o'tdi, U xondan keyingi ikkinchi shaxs bo'lib, mingboshi lavozimini egalladi va keyinchalik, qipchoqlar davlatdagi barcha asosiy lavozimlarni egallay boshladи. Masalan, Luliyon qabilasidan ya'ni lo'lilardan chiqqan beklarbegi Azizbek parvonachi ismli kishi Toshkentga hokim qilib yuborilgan (u asli Chustlik bo'lib, Azizbachcha deb ham atashgan) [3, c 117]. Shu bilan keyinchalik Qo'qon xonligi tarixida qipchoqlar hukmronligi davri boshlanadi.

Qipchoqlar hokimiyatni qo'iga kiritgach, uy-joylarni, yerlarni, sug'orish tizimi tarmog'ini zo'rlik bilan tortib olib, o'z mulkiga aylantira boshladilar. Qo'qoning yangi bozori sobiq egalarining yuzlab do'konlari bo'lishiga qaramay, qismlarga bo'lingan holda sotildi. Anchadan beri, Qo'qon va Ustrushona o'rtasida bir necha yildan beri urush bo'lib, uzoq davom etgan vayronkorlik natijasida 1848-1849-yillarda O'ratega viloyatini vayron qilindi. Qal'a bosib olinadi, himoyachilari qattiq jazolanadi. Tarixchi N.Nabiyevning keltirishicha, "900 ta kesilgan kallalardan piramida qurildi, O'ratega zindoniga tashlangan 200 dan ortiq sarbozlar havo yetishmaslidan halok bo'ldi" [3, c 41], deb qayd etadi.

Musulmonqul Toshkent yaqinidagi mag'lubiyatdan so'ng Ketmontepadan najot topadi, qaynotasi panohida bo'ldi. Qo'qonda qipchoqlarni o'rab olib, ommaviy qatl qilishga kirishdilar. Qipchoqlarga qarshi kurash xalq harakatiga aylanib, butun xonlikka, barcha shahar va qishloqlarga tarqaldi va ular qipchoqlarni kaltaklab, qirib tashlashga kirishdilar [4, b 120]. Qipchoqlar qirg'ini boshlandi. Rus tatqiqotchisi V.Nalivkin "Na ayollar, na bolalar, na qariyalar aymadi. Bunday shafqatsizlikni mo'g'ullar bosqinidan oldin ham, keyin ham hech kim ko'rmagan. Bu "Qipchoq" nomli butun bir qabila ittifoqining fojasi edi" [5, c 210], – deb qayd etgan. Keyinchalik qipchoqlar o'zbek va qirg'iz xalqlari tarkibiga qo'shilib ketgan.

1853-yil boshida Musulmonqul Uychi qishlog'i yaqinida (Namangan viloyati hududida) qo'iga olinib, u yerdan Qo'qonga olib kelindi [7, c 58]. Qipchoqlarga nisbatan dahshatli, g'ayriinsoniy qirg'in davom etdi. V.Nalivkin yozadiki, Musulmonqul qo'iga olinib, Qo'qon shahriga kirganida har 150–200 metrda uni to'xtatib turishgan, uning oyog'i ostida qabiladosh-

lari so'yilgan, toki Musulmonqul kishanlangan ustun o'rnatilgan katta maydonga yetib kelgunicha bu davom etgan. "Asirga olingen qipchoqlarning qolganlari chuqurlarga qamalgan; har 2-3 soatda och va chanqagan holda 2-3 tasi bu yerga olib kelinib, pillaning etagida so'yilgan". Boshqa bir rus tilidagi manbada esa bu fojiali kunlarda Musulmonqul oldida 600 nafar qipchoq qatl etilgani qayd etilgan [6, p 353]. Tatqiqotchilar V.V.Velyaminov Zernov, N.Petrovskiy, A.Kun ma'lumotiga ko'ra, Musulmonqul oradan uch kun o'tib qo'y bozorida osib o'ldirilgan [8, p 23].

Xulosa qilib aytganda, siyosiy voqealar tahlili shuni ko'rsatadiki, markaziy hokimiyatning zaif tomonlarini hisobga olib, ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi qabilalar boshliqlari o'zlarini mas'uliyatsizlik his qilib, siyosiy hokimiyatni zo'rlik bilan egallab oldilar, jamiyatda qonunbuzarlik va tartibsizlikni kuchaytirdilar. Bularning barchasi ma'rifatsizlikdan, o'z va qabiladoshlarining manfaatlarini butun jamiyatdan ustun qo'yadigan, butun jamiyatga o'z qabiladoshlarini qarama-qarshi qo'yan etnik guruuhlar siyosiy rahbarlarining ahmoqligidan edi. Natijada zo'ravonlik zo'ravonlikni keltirib chiqardi, bu esa yuzlab va minglab begunoh odamlarning o'llimiga olib keldi.

#### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shamsuddinov R., Karimov Sh., Ubaydullayev O'. Vatan tarixi -T.: Sharq. 2010.
2. Петроеский Н. Очерки Коканского ханства // Вестник Европы. 1876.
3. Набиев Р.Н. Из истории Кокандского ханства/Р.Н. Набиев. – Ташкент: Фан, 1973.
4. Mirzo, Olim Maxdumxoji. Tarixi Turkiston. So'zboshi va izoxlar muallifi Sh.Voxidov. Arab yozuvidan tabdil Sh. Voxidov va R. Xolikova.
5. Наливкин В. Краткая история Кокандского ханства/В.Наливкин. – Казань: Типография Императорского Университета, 1886.
6. Velyaminov-Zernov, V.V. Historical Information Concerning Kokand Khanate from Muhammadali to Khudayarkhan.// The work of the eastern branch of the Imperial Archaeological Society. The second part. - SPb., 1856.
7. Кун А. Очерки Коканского ханства. (Читано в общем собрании 4 февраля). Известия ИРГО. Том X11/А.Кун. - СПб., 1877.
8. Beisembiev, T.K. ,The History of Shahrukh" as a Historical Source / T.K. Beisembiev. - Alma-Ata: Science, 1987.

# TARIXIY HIKOYATLARNING TARAQQIYOT OMILLARI VA ULARNING TASNIFI



Maxsud  
**KURBANIYOZOV,**  
Qoraqalpoq davlat  
universiteti  
f.f.f.d. (PhD)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XIV asr o'zbek adabiyotidagi nasriy asarlar janriy xususiyatlari, hikoyatlarning paydo bo'lishidagi adabiy-estetik qonuniyatlar, ijtimoiy-siyosiy, tarixiy-madaniy sharoit tavsiflanadi.

**Kalit so'zlar:** o'zbek adabiyoti tarixi, didaktika, didaktik asar, hikoyat, hikoyatlar tasnifi, "Qissasi Rabg'uziy", Oltin O'rda adabiy muhiti

**Аннотация:** В данной статье описаны жанровые особенности прозаических произведений в узбекской литературе XIV века, литературно-эстетические закономерности возникновения рассказов, общественно-политические и историко-культурные условия.

**Ключевые слова:** история узбекской литературы, дидактика, дидактические произведения, рассказы, классификация рассказов, "Киссаси Рабгузий", литературная среда Золотой Орды

**Annotation:** This article describes the genre features of prose works in the Uzbek literature of the XIV century, the literary and aesthetic laws in the emergence of stories, socio-political, historical and cultural conditions.

**Key words:** history of Uzbek literature, didactics, didactic works, stories, classification of stories, "Qissasi Rabguziy", literary environment of the Golden Horde.

Jahon ilm-fani joriy global dunyoda "Qissasi Rabg'uziy"ga yanada ko'proq tayanishi, adabiy-tarixiy, diniy-ma'rifiy merosni tarixiy-qiyosiy, tarixiy-tipologik, germenevtik yo'sinda, nazariji jihatdan baholashi lozim. Biroq sho'rolar tuzumining yakkahokim sinfiy mafkurasi va ateistik adabiy siyosati hukm surgan g'oyat murakkab, qaltis davrlarda "Qissasi Rabg'uziy" tipidagi diniy-ma'rifiy asarlarni nafaqat adabiy-genetik asoslari, shakli va uslubi jihatidan keng targ'ib qilish, milliy madaniyat hamda ma'rifatimizning muhim bo'g'ini sifatida kompozitsion, struktur-semantik, janriy aspektlarda atroflicha tahlil etish imkonsiz edi. Faol iste'molda bo'lib kelgan interpretatsiya vostalariga murojaat qilish badiiy matn ma'no qatlamlarini xalqimizga yanada yaqinlashtirish jahon adabiyotshunosligining dolzarb masalasiga aylandi.

Oltin O'rda o'zbek adabiyotining estetik tamoyillari axloqiy-ta'limiyl tushunchalarga asoslangani bilan diqqatga sazovor. Ayni paytda ma'naviy-madaniy va axloqiy jihatdan ancha yuksalgan mana shu Oltin O'rda davlatida turkiy adabiyotga va turkiy adabiy tilga e'tibor kuchaydi. Garchi bu davrdagi adabiyot – turkiy adabiyot, til – turkiy til deb yuritsa ham, turkiy tilli xalqlar orasida alohida mavqe tutgan Oltin O'rda adabiy muhitida yaratilgan asarlar har jihatdan – mavzu, til jihatdan har bir o'zbek kitobxoniga juda yaqin [1:74]. Zotan, Oltin O'rda o'zbek adabiyoti alohida davr sifatida qaralgandagina, geografik jihatdan keng qamrovga ega bo'lganini tasavvur qila olamiz. Birinchidan, bu davrdagi o'zbek adabiyoti Itil daryosi bo'yлari-da yaratilgan bulg'or xalqining og'zaki ijodi va yozma adabiyoti bilan aloqalarga

sabab bo'ldi. Jumladan, Oltin O'rda davlati tashkil topa boshlashi arafasidayoq O'rta Osiyodan mo'g'ullar bosqini bilan birga bulg'or davlati tomon yozma adabiyot syujetlari va xalq og'zaki ijodi namunalari ham siljib, o'sha tomonga ketdi. Albatta, bu qonuniy hodisa bo'lib, adabiy jarayon faqat etnik mansublik vositasida emas, balki tildagi yaqinlik orqali ham ko'chib borganini ta'kidlashimiz kerak. Bulg'or-tatar adabiyotining ko'zga ko'ringan namoyandasini deb talqin qilinayotgan Qul Alining "Qissai Yusuf" asari haqida shunday fikrni ilgari surish mumkin. XIX asrdayoq Yusuf qissasi syujetining tarqalishi haqida Yevropaning mashhur turkolog olimlari A.Krimskiy, K.Brokkelman, A.Borovkov, tatar olimlari G.Gaziz va G.Rahim kabilalar o'z fikr-mulohazalarini bildirganlar. Bu olimlarning deyarli hammasi "Yusuf" qissasining vatani O'rta Osiyo, yanada aniqlashtirib, Buxoro yoki Mavarounnahr degan fikrlarni ilgari surgan edilar. Ayniqsa, turk olimi M.F.Ko'prulizoda bu qissaning vatani "taqvodor va zohid Xorazmdir" [2:277], deb so'z yuritadiki, bunga qo'shilmaslik mumkin emas. Zotan, Xorazm o'lkasida yaratilgan "Qissasi Rabg'uziy" tarkibidagi eng go'zal "Yusuf qissasi"ning va uning tarkibidagi hikoyatlarning e'tiborga molik jihatni va bu turkum qissalar Sharqda e'tibor qozongani mana shu asarning o'zida alohida ta'kidlab o'tiladi. Rabg'uziy "Qissai Yusuf Siddiq alayhissalom"ning ibtidosida mazkur qissani bayon qilishga kirishar ekan, "ahsan" demakda hikmat ne erdi?" deya o'z oldiga savol qo'yadi va quyidagicha javob beradi: "Javob ul tururkim, Qur'on ichindagi qamug' qissalardin telimrak, foydasi ukushrak Yusuf qissasi turur. Ul yo'ldin "Ahsan-ul-qasas" (qissalarning eng go'zali – M.K.) tedilar" [3:100]. Rabg'uziuning mana shu biringina izohi "Yusuf" va "Yusuf va Zulayho" turkum qissalarining manbayi va manshayiga aniqlik kiritadi. Biz bu o'rinda Qur'oni Karimdag'i "Yusuf surasi" ilm ahliga ma'lum bo'lgani uchun, u haqda to'xtalmaymiz. Qolaversa, bu mazkur tadqiqot doirasiga sig'maydi. Ehtimol, Yusuf syujeti haqida so'z yuritgan yevropalik olimlar "Qissasi Rabg'uziy"dagi mazkur ma'lumotdan bexabar bo'lsalar kerak. M.F.Ko'prulizodaning "Yusuf qissasi" haqida bildirgan fikri ancha mantiqli, "Qissasi Rabg'uziy"ning geografik hududiga mos keladi, ayni paytda Rabg'uziuning ma'lumotlariga hamohangdir. Oltin O'rda mazkur madaniy markazlaridan va o'lkalaridan biri bo'lgan Xorazm, shubhasiz, O'rta Osiyo adabiy jarayonini turkiy qavmlar yashaydigan boshqa o'lkalarga ham yetkazish uchun "ko'priklar" vazifasini bajargani aniq.

"Qissasi Rabg'uziy" haqida so'z yuritilganda, albatta, Oltin O'rda davlatini mustahkamlashga va Ko'prulizoda aytganidek, "taqvodor va zohid"lar o'lkasiga aylantirishga qaratilgan adabiyotni yaratish asosiy maqsad bo'lganini anglash mumkin. Tom ma'nodagi "taqvodor va zohid" ona adabiyot Oltin O'rda o'zbek adabiyotida paydo bo'ldi. Zotan, bu

o'lkadagi ma'naviy mulk ham, ko'proq diniy-ma'rifiy adabiyotdan iborat edi. Oltin O'rdada bu asarlar dan boshqa epik ijod namunalari ham bor. Masalan, Xisom Kotibning "Jo'mjo'ma sulton" dostoni, shuningdek, Qutbning "Xusrav va Shirin" dostoni, Sayfi Saroyning "Guliston bit-turkiy" kabi eski o'zbek tiliga tarjima qilingan asarlar ham mavjud. Ammo, hikoyatchilikda yuqoridagiday "Qissasi Rabg'uziy", "Nahjul-farodis" singari diniy-ma'rifiy asarlarning ahamiyati katta bo'lib, ommaga solihlik va to'g'rilik, halollik va rostgo'ylik yo'lini ko'rsatishda muhim vazifa bajardi va bugungi kunda ham shu vazifadan chetda emas.

Rabg'uziy asosiy maqsadini bayon qilish uchun qissalar tarkibidagi hikoyatlardan istifoda etganda, asosiy yukni hikoyatlarga yuklaydi. Avval aytib o'tganimizday, qissalar tarkibida hikoyatdan tashqari bir necha janrlar – rivoyat, xabar, latifa, naql kabi janrlar, albatta, hikoyatga xizmat qiladi. Yana "Qissai Yusuf Siddiq alayhissalom" qissasiga qaytamiz. Qissada Zulayho Yusufga oshiq bo'lib, o'z niyatini amalga oshirish payida turgan paytda, Rabg'uziy qissaning aynan shu voqeasini yanada kengroq tarzda kitobxonga yetkazmoq uchun imom Muhammad ibn Hasan Shayboniyga bir ayolning oshiq bo'lib qolgani va imom bu ayol bilan zino qilishdan qanday qilib o'zini saqlab qolgani to'g'risidagi hikoyatni keltiradi [3:125].

Rabg'uziuning bu hikoyatni keltirishdan maqsadi – Zulayho bilan imom Muhammadni yo'ldan urmoqchi bo'lgan ayol o'tasidagi "esizlik", Yusuf bilan imom Muhammad o'tasidagi "ezgulik"ni namuna qilib ko'rsatgan. Rabg'uziy, o'zi aytmoqchi "ezgulik" va "esizlik"ni mazkur qissadagi boshqa janrlarga emas, aynan hikoyatga yuklaydi.

"Qissasi Rabg'uziy" hikoyatlari qissalar tarkibida voqealarni bog'lovchi vosita sifatida qo'llangani bilan diqqatga sazovor. "Qissasi Rabg'uziy"ga deyarli zamondosh boshqa asarlar tarkibidagi aksariyat hikoyatlar ham aynan shu vazifani bajarish uchun ham yaratilgan. Jumladan, Mahmud Ali ibn as-Saroyining "Nahjul-farodis" asari tarkibidagi hikoyatlarni misol sifatida keltirish mumkin. Butun bobning mohiyati va xulosasini Mahmud Ali hikoyat orqali kitobxon ko'z o'ngida gavdalantiradi. Ayniqsa, "Nahjul-farodis" asaridan o'rin olgan hikoyatlarning asosiy mohiyati oxirgi – to'rtinchibobda – "Haq taolo hazratidin yiratg'u yavuz amallar bayani ichinda turur" degan bobda mujassamlangan. Mahmud Ali hikoyatlarga alohi-da urg'u berish orqali diniy-ma'rifiy asarlarning Oltin O'rda adabiy muhitini belgilovchi asosiy omillardan biri va o'zbek adabiyotining o'ziga xos tamoyillarini belgilaydigan vosita ekanini ko'rsatib berishga erishgan. "Nahjul-farodis" hikoyatlarining asosiy tamoyilliari – ulug' payg'ambarlar va avliyolardan qolgan xokisorlik, mo'minlik, halollik, karam va saxovat, xullas, insonni kamolotga yo'llaydigan fazilatlardir. Mahmud

Ali xuddi Rabg'uziy singari, payg'ambarlar, avliyolar va mutasavviflar to'g'risidagi hikoyatlar sog'lom jamiyatning asosi va sog'lom aql egalarining a'moli ekanini tasdiqlagan. Bu asardagi har bir hikoyatda – nohaq qon to'kish, zino, may ichish, takabburlik, yolg'on va g'iyybat, dunyoni sevmak, kin va hasad kabi qator ilatlarni fosh qilgan hikoyatlarda ham yuqoridagiday tamoyillarning aniq alomatlarini ko'ramiz.

Hikoyatlardan ma'lum bo'ladiki, Oltin O'rda davlatini boshqargan mo'g'ul beklari butunlay boshqa muhitga tushgan bo'lib, ular avval kechirgan hayot tarzidan bu davlatdagi ma'naviy muhitning afzalliklarni anglab yetgan edilar. Zotan, yuqoridagi hikoyatda ilgari surilgan harom va halol luqma haqidagi o'gitlar musulmonlik aqidalari orasida muhim o'r'in tutgan va hozir ham shunday. Insonlarninggina emas, jamiyatning sog'lomlashuvi ham, aslida, halol luqmadandir.

"Nahjul-farodis"dagi qanoat borasida ilgari surilgan hikoyatlarga nazar tashlaylik. Insonning ko'p fazilatlari, ayni paytda jamiyatdagi insoniylik burchlari aslida qanoatga bog'liq. Mahmud Alining bu mazmundagi hikoyatlari, boshqa mavzudagi didaktik hikoyatlari kabi, bir nuqtada tutashadi – insonni kamolotga olib borish. Boriga qanoat hosil qilmoq, ayniqsa, insoniyatning eng go'zal axloqini yaqqol ko'rsatib turadi. Go'zal axloqning bu turi haqidagi hikoyatlariga "Nahjul-farodis"da alohida o'r'in berilgani bejiz emas. "Qissasi Rabg'uziy"dagi "Qissai Qorun alayhil'a'na"dagi hikoyatda Omil degan odamning merosiga egalik qilish ilinjida qarindoshi uni o'ldiradi. Ammo o'z qarindoshini meros ilinjida o'ldirgan odam merosdan mahrum qolur [4:20], degan hukm mazkur hikoyatni mohiyatan "Nahjul-farodis"dagi hikoyatga yaqinlashtiradi. Har ikkala hikoyatda aytimoqchi bo'lgan g'oya – luqmaning halolligidir. Qolaversa, insonning qanoati uning jonini ham omon saqlaydi, ammo moddiy olamga ruju qo'yishday ochko'zlik insonning ma'naviy olamini ham izdan chiqaradi. Hikoyatlarda ilgari surilgan bu o'gitlar bugungi hikoyalar kabi, pinhon emas, balki ochiq-oshkora. "Qissasi Rabg'uziy" va "Nahjul-farodis"dagi hikoyatlarning bu xususiyati davr hikoyatchiligining jo'nligi emas, mumtoz adabiyotdagi hikoyatlarning didaktik mazmun bilan belgilanadi. Shu bilan birga, bu hikoyatlar o'z davrida teran mazmun-mohiyat kasb etganini ham nazarda tutishimiz kerak. Didaktika – davrga xizmat qilish uchun yaratilgan, keyingi davrlar undan keragini olgan, nokeragiya e'tibor qaratmagan. Didaktik asarlar, u qaysi janarda bo'limasin, mavhumlikdan xoli. Inson moddiy olam bilan emas, balki ma'naviy olami butunligi bilan tirik. Mana, o'sha hikoyat:

Olimlarda bir olim shogirdi evinga bordi. Ul shogirdi ustodi o'nginda sufra yoydi. Valekin sufrasinda quruq yetmak bor erdi taqi hech mangu narsa yo'q erdi. Bu shogird xijolat ichinda bo'ldi ersa, bu manini taqi ustodi taqi farosat birla bildi. Ul quruq yetmakni

*tanovul qilmishdin so'ng ustodi aydi bu shogirdinga kim: "Turg'il, zindon qapug'inga boroling", tedi ersa, shogirdi taajjub qildikim "Bu ustodim zindon qapug'inga barmaqi ne mani uchun bo'lg'ay?" teb tafakkur ichinda qoldi. Qachonkim zindon qapug'inga ettilar ersa, boqarlar: ba'zilarni ururlar, taqi ba'zilarning eliglarini kesarlar, taqi ba'zilarni uqubat qilurlar. Ustod aydi shogirdinga: "Ey shogirdim, bilurmisen, seni bu yerka ne mani uchun kelturdim?" tedi ersa, shogirdi aydi: "Ey ustodim, bilmadim", tedi ersa, ustodi aydi: "Bilgil, ogoh bo'lg'il, ushbu kimarsalarkim azob va uqubat qilurlar, bular ul kimarsalar tururlarkim, qurug' yetmakka qanoat qilmadin artuksi narsalarka tama qilip, musulmonlar molini ug'urlap, xiyonat qilip, muncha azob va uqubatqa sazo bo'ldilar", tedi. Bu orada bu zindonlig'lardin bir kimarsa adaqi buqag'lug', bo'yni zanjirlig' kishi keldi taqi aytur: "Ey azizlar, ingan ach tururman. Necha kun bo'ldikim, taom tanovul qilmishim yo'q. Bir pora yetmak bersangiz. Haq taolo rizosi uchun", tep darxost qildi ersa, ustod aydi: "Ey buqag'ulug' kimarsa, sen agar bir pora yetmakka qanoat qilmish bo'lsa erding, mundag' uqubatqa sazo bo'limg'ay erding", tedi. Ul kishi aydikim: "Ey aziz, rost so'zlading. Haqiqat hol mundog' tururkim bayon qildingiz", tedi ersa, ustod aydi shogirdinga: "Ey shogirdim, bu yerka kelganimiz qanoat qilmaqg'a nafsuz rozi bo'lsun tep kelduk", tedi [5:208].*

Yuqoridagi "Nahjul-farodis"dan va "Qissasi Rabg'uziy"dan keltirilgan hikoyatlardagi halol luqmaning afzalligi haqidagi hikoyatlarga mazkur hikoyat xulosa yasayotganday taassurot qoldiradi. Boriga qanoat va halol luqma g'oyalarini Rabg'uziy barcha hikoyatlarida ilgari suradi.

Shu tariqa XIV asr o'zbek adabiyoti hikoyatchiligining o'ziga xosliklari va qirralari mana shu ikkala asarga tayanadi. "Qissasi Rabg'uziy"dagi qissalarning maqsadi ham, "Nahjul-farodis"dagi tarixiy voqealar bayoni ham hikoyatlarda didaktik mazmun asosiy o'rinda qilib yaratilishiga olib keldi.

Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy" asari boshqa "Qisasul anbiyo"lardan faqat tuzilishi va til jihatidagina emas, balki muallifning biron dalilni tasdiqlash yoki rad qilish uchun sinchkov olim sifatida munosabat bildirgani bilan ham farq qiladi. Shuning uchun ham Rabg'uziy tanqidchi va yetuk manbashunos olim sifatida har bir payg'ambar bilan bog'liq voqealari, dalil, obraz yoki biron detalni turli manbalarga qiyoslaydi, qaysi biri ishonchli va ishonchsiz ekanini dalillashga harakat qiladi. Shu o'rinda Rabg'uziyning yana bir mahoratiga to'xtalib o'tish joiz: u tanqidchi sifatida qarashlarini tasdiqlash yoki mavjud olimlarning qarashlarini yoki xalq og'zidagi voqealarni rad qilish uchun rivoyat hamda xabar janrlaridan foydalanadi. Yana Rabg'uziyning rivoyat janridan foydalanish usuli BeRUNIYNIKIGA o'xshashini alohida ta'kidlash darkor. BeRUNIY ham "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar"

asarida yil hisobining to'g'ri yoki chalkash ekanini tasdiqlash uchun rivoyat janridan foydalangan edi.

Rabg'uziy deyarli har bir qissa tarkibida "savol" va "javob" keltiradi. Bu "savol" va "javob"larni voqealarga aniqlik kiritish, ularga kitobxonni ishontirish, noo'rin savollarga, shubha va gumanlarga o'rinn qoldirmaslik uchun keltiradi. To'qbug'abek Nosiruddinga aytganiday, kitobxon nuqsonli qissalarga duch kelganda, albatta, uning oldida noaniqliklar, mubham savollar bo'lishi muqarrarligini Rabg'uziy anglagan.

Hikoyatlar mazmuni va tuzilishidagi o'xshashlik, hikoyatlarning qissa qahramonlariga bog'liqligidagi bir xillik, shubhasiz, bu janrdagi asarlar Sharq xalqlarining yaxlit badiiy tafakkuri mahsulidir, deb aytishga imkon beradi. Bu hikoyatlarni bir necha turga bo'lib o'rganish mumkin. I.Ostonaqulov "Qissasi Rabg'uziy" tarkibidagi janrlarni, xususan, qissa va hikoyatlarni quyidagicha uch turkumga bo'lib o'rganishni taklif qiladi:

1. Afsonalar (yerde hayotning paydo bo'lishi, Odam Ato va Momo Havo haqidagi qadimgi rivoyatlar asosida yaratilgan asarlar).

2. Kitobiy-adabiy asarlar (Tavrot, Injil va "Qur'on"-da hikoya qilingan qissalar asosida yaratilgan asarlar).

3. Tarixiy asarlar (Iskandar, Abdulmutallib, Muhammad payg'ambar va uning bilan bog'liq shaxslar haqidagi hadis va boshqa tarixiy manbalar asosida yaratilgan asarlar)[6]. Shuningdek, I.Ostonaqulov bunday turkumlash natijasida yodgorlikdagi barcha qissa va hikoyatlarni ilmiy tahvilga tortish imkonini paydo bo'ladi, deb biladi. Biz esa, avvalo, "Qissasi Rabg'uziy"da afsona janri uchramasligini aytmoqchimiz. Shu bilan birga, I.Ostonaqulov afsona va rivoyat janrini bir deb qaraydi. Aslida, bular alohida-alohida janrlar bo'lib, afsonada uydirma voqealar, rivoyatda tarixiylik tamoyili borligini nazarda tutishimiz kerak. Qolaversa, "Qissasi Rabg'uziy"dan tarixiy asarlarni alohida ajratib olish o'zini oqlamaydi. Zotan, asardagi barcha janrlarda uchraydigan qahramonlar tarixiy shaxslardir. "Qissasi Rabg'uziy"dagi barcha janrlarni Rabg'uziyning o'zi alohida ko'rsatib o'tgani bois qissalarni alohida janr, ularning tarkibidagi janrlarni ham alohida-alohida o'rganish kerakligi o'z-o'zidan anglashiladi. Bizningcha, "Qissasi Rabg'uziy"dagi hikoyat janrini quyidagicha tasniflash maqsadga mu-

vofiq bo'lib, qissa janridan (qissalarni adabiy janr sifatida alohida o'rganish va tasniflash kelgusida amalga oshiriladigan ishlardir) va boshqa janrlardan alohida ajratib o'rganish taqozo etiladi:

1. Mutasavviflar va tasavvuf axloqiga oid hikoyatlar.

2. Axloqiy-ta'limi hikoyatlar.

3. Ijtimoiy mazmundagi hikoyatlar.

4. Mo'jizaga oid hikoyatlar.

Hikoyatlarning bir necha turga tasniflanishi Rabg'uziyning hikoyat tanlashdagi mahoratidan va o'z davrining ijtimoiy hayotini teran anglab olganidan dalolat beradi. Buyuk tarixiy shaxslar, afsonaviy donishmandlar asosiy qahramon bo'lgan hikoyatlar Rabg'uziy didaktik qarashlarining eng oliy nuqtasi sifatida yuzaga chiqqan.

Hikoyatlardagi mo'jizaviy voqealar didaktik mazmuni yorqinroq yuzaga chiqarish bilan bir qatorda, hikoyatlarni sehrli ertaklarga yaqinlashtirgan va Rabg'uziy Sharq xalqlari og'zaki ijodini juda yaxshi bilganining isboti bo'lib xizmat qilgan.

Hikoyatlarning qissalar bilan munosabati haqida so'z ketganda shuni aytish kerakki, Rabg'uziy bir necha hikoyatlarni bitta hikoyatga birlashtirib, qissa mazmuniga va hajmiga teng hikoyat yaratgan hamda kitobxonga ma'lum bir qahramonning faoliyatini to'liq gavdalantirib beradigan epik parchalarni hosil qilgan. Bu epik parchalar qismlarini Rabg'uziy yaxlitlashtirgan. Rabg'uziyning bunday ijodiy usuli asardagi hikoyat janrining originalligini ta'minlagan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rahmonov N. O'zbek adabiyotini davrlashtirish masalalari. Toshkent: Mumtoz so'z, 2016.
2. Koprulizada M.F. Turk adabiyati tarixi. Istanbul, 1926.
3. Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziy. Qissasi Rabg'uziy. 1-kitob. Toshkent: Yozuvchi, 1990.
4. Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziy. Qissasi Rabg'uziy. 2-kitob. Toshkent: Yozuvchi, 1991.
5. Nehjul-feradis. II. Metin. Turk Dil kurumi yiyhlari: 518.
6. Ostonaqulov I. Qisas ar-Rabg'uziy – adabiy asar. NDA, Toshkent, 1993.



## “SHAJARAYI TURK”DA PAREMIK JANRLAR



Marg'uba  
**ABDULLAYEVA,**  
filologiya fanlari  
doktori, dotsent,  
Toshkent davlat  
o'zbek tili  
va adabiyoti  
universiteti

**Annotatsiya:** Maqolada xalq donishmandligining nodir namunalari bo'lgan paremiyalar tadqiq etilgan. Abulg'oziy Bahodirkhonning adabiy-tarixiy asari “Shajarayi turk”dagi paremiyalarning janr xususiyatlari o'rganilgan. O'zbek mumtoz adabiyotshunosligida paremik turning o'ziga xos jihatlari qiyosiy sharhlar orqali ko'rsatib o'tiladi. Tarixiy shaxslar tilidan aytildan masallar, hikmatli so'zlar, o'gitlar, naqllar ma'lum bir tarixiy jarayonda yuzaga kelganligi ilmiy asoslangan. “Shajarayi turk”dagi O'g'uzxon, Chingizxon, Berdibekxon, Qolxon kabi tarixiy shaxslarning sifatlarini ko'rsatishda muallif paremiyalardan mahorat bilan foydalanganligi tahllillarda ochib beriladi. Xalq maqol va naqllarining podshoh va sarkardalar tilidan aytilishi tarixiy asarlarning badiiy qimmatini oshirishga xizmat qilgan.

**Kalit so'zlar:** paremologiya, paremik janrlar, tarixiy asar, Abulg'oziy, “Shajarayi turk”, masal, naql, o'git, maqol, hikmatli so'zlar, tahvil

**Аннотация:** В статье рассматриваются паремии, являющиеся редкими образцами народной мудрости. Исследуются жанровые особенности паремий в литературно-историческом произведении Абулгази Баходирхана “Шаджараи тюрк”. В узбекской классической литературе особенности паремического типа показаны через сравнительный комментарий. Он научно основан на том, что притчи, мудрые изречения, проповеди и притчи, рассказанные языком исторических личностей, происходили в определенном историческом процессе. Анализ показывает, что автор умело использовал паремы, чтобы показать в “Шаджараи тюрк” качества таких исторических личностей, как Огузхан, Чингисхан, Бердебекхан, Калхан. Чтение народных пословиц и поговорок на языке царей и полководцев служило повышению художественной ценности исторических произведений.

**Ключевые слова:** паремология, паремические жанры, историческое произведение, Абулгази, “Шаджараи тюрк”, притча, повествование, наставление, пословица, мудрые изречения, анализ

**Annotation:** The article deals with proverbs, which are rare examples of folk wisdom. The genre features of proverbs in the literary and historical work of Abulgazi Bahodirkhan “Shajarai Turk” are studied. In the Uzbek classical literature, the features of the paremic type are shown through a comparative commentary. It is scientifically based on the fact that parables, wise sayings, sermons and parables told in the language of historical figures took place in a certain historical process. The analysis shows that the author skillfully used parems to show the qualities of such historical figures as Oguzhan, Genghis Khan, Berdibekhan, Kalkhan in “Shajarai Turk”. Reading folk proverbs and sayings in the language of kings and generals served to increase the artistic value of historical works.

**Key words:** paremology, paremic genres, historical work, Abulgazi, “Shajarai Turk”, parable, narration, instruction, proverb, wise sayings, analysis.

**P**aremiologiya xalq donoligini o'rganuvchi fandir. Paremiya deb, tilda barqaror bo'lgan, nutqda sintaktik jihatdan gap shaklida keluvchi, pand-nasihat, ta'limi mazmunni yetkazish uchun qo'llanuvchi birikmalarga aytildi [10]. Adabiyotshunoslikda to'rtinchı adabiy tur "paremiya" to'g'risida B.Sarimsoqov matbuotda bir qancha chiqishlar qilgan edi. Olimning "Adabiy turlar haqida mu-lohazalar", "Paremik kechinma tabiatı" nomli maqolalari shular jumlasidandir. B.Sarimsoqov paremik tur tabiatı haqida gapirib, "badiiy kechinmaning bu shakli yuqoridagi uch adabiy turga xos kechinmadan o'zining barqaror tabiatı va tarkibida hissiy nisbatga qara-ganda aqliy nisbatning ustunligi bilan farqlanib turishi-ni" [13] ta'kidlagan. Chunki maqol va matal, topishmoq va aforizmlar voqeа-hodisalarning o'zini emas, balki ular haqidagi fikr va xulosalarni ixcham shaklda yaxlit, lo'nda ifodalaydi. Shundan kelib chiqib, olim paremik turga maqol, matal va topishmoq bilan bir qatorda yozma adabiyotdagи aforizmlar, obrazli ifodalar, qanotli so'zlar, aniq ifodalar, mantiqiy va g'ayrimantiqiy iboralar, ta'rix, muammo va fardlarni kiritadi. Bu tur tarkibiga kiruvchi janrlar umuminsoniy ahamiyatga ega bo'lgan favqulodda dono fikrlar obrazli ifoda etilishi bilan ajralib turadi. Tarixiy asarlarda ham masal (maqol), o'git, hikmat, iboralar, otalar so'zi orqali badiiy talqin etilgan.

Paremik janrlarni maqollar misolida tadqiq etgan M.Temirova o'zbek va qirg'iz maqollarini qiyosiy o'rganadi [15;17]. Bu janrlarning turli davrlarda turlicha nomlar bilan atalganini aniqlaydi. Naql atamasi O'rta Osiyo xalqlari orasida qadimdan mavjud bo'lib, turli xil ma'nolarni anglatgan. Dastlab, folkloarning ayrim janrlari shu nom bilan yuritilgan. U adabiy jarayonda yuz berib, turkiy xalqlar madaniyati, axloq falsafasi zamirida paydo bo'lgan. "Zarbulmasal" arabcha so'z bo'lib, aybdorni masal bilan urmoq (tanqid qilmoq)ni anglatadi. Muhammad Jobalrudi (XVII asr) bu so'zni masal va tamsilning sinonimlari sifatida qo'llagan, boshqa o'rinda uni ramzli hikoya ma'nosida keltirgan [16;260]. "G'iyos ul-lug'at"da uni nutqda u yoki bu ko'chma ma'noni tashuvchi, deb ko'rsatilgan. O'zbek xalq nasrida esa masal naql atalgan. Zarbulmasal dastlab yozma adabiyotning alohida janri bo'lgan. "To'rt ulus tarixi" asarida O'g'uzxonning xotinlariga munosabati, kichik xotinini sevishi va bundan avvalgi xotinlarning rashk alangasida kuyishi bilan bog'liq voqealar xalq ichida zarbulmasalga aylangani aytildi [9; 44]. Zarbulmasal deyilganda, O'g'uzxon va uning xotinlari to'g'risidagi hikoyatlar nazarda tutilgan. Keyinchalik, u masal atamasi bilan yuritilgan. Naql rus folklorida "pritcha", forslarda naql masal, maqol [5; 744], tojik tilida u ertak, matal, masalni bildiradi [14; 219]. Turkman tilida naql topishmoq [14], qozoq va qirg'iz tillarida metel [7; 550] deb yuritiladi. Turkiy xalqlar folklorida turli xil janrlarga mansub asarlar naql atalgan. Ayniqsa, qadimgi yodnomha, xalq kitoblari, qo'lyozma-

larda berilgan afsona, rivoyat, doston, maqol, matal va hatto, topishmoqni ham naql atash hollari uchrab turadi [6; 214]. Shuning uchun bo'lsa kerak, Ozarbayjonda ertak naql [3; 260] deb yuritiladi. Naql og'zaki hikoyani anglatadi [11; 105]. Naql arabcha so'z bo'lib, uch xil ma'noni bildiradi: birinchisi, harakat, ko'chish, ya'ni ko'chma ma'noli voqeа va hodisalar shu nomlar bilan atalgan. Ikkinchisi, voqeani bayon qilish, hikoya qilish; uchinchisi, og'zaki nasriy turning alohida janrlari, qissa, ertak, matal bir butun holda naql deb yuritilgan [4]. Naql asosan hikmatli fikr, o'gitlar majmui. Binobarin, naql hayotiy voqeа va hodisalardan falsafiy umumlashmalar yaratib, majoziy yo'l bilan ibratlari xulq, muomalani bayon etuvchi hikoyadir. Demak, naql aql, odob, donolikni ulug'lab, anglash va baholash imkonini beradi. Bu janrda aqliy nisbat ustun bo'lib, hayotiy tajriba asosida hissa-xulosa chiqariladi.

O'zbek mumtoz adabiyoti hamda xalq og'zaki ijodi asarlarida noqil va naql atamasi juda ko'p uchraydi. Biri aytuvchi, bayon etuvchi, yana biri hikoya ma'nosi ni anglatadi. Dastlab, qissa, maqol, ertak, matal, topishmoq, dostonlar ham naql deb yuritilgan. Noqil o'rnak olsa arziydigan axloq, odob normalari haqidagi hikoya qiluvchini bildiradi. Naqliy asarlar asosan ta'limi-estetik funksiyani ado etadi [6; 216].

"Shajarayi turk"da paremik janrlardan samarali foydalanilgan. "Masal" arabcha so'z bo'lib, o'rnak, maqol, hikoyat ma'nolarini bildiradi. Mumtoz adabiy istilohda masal termini maqol va frazeologizm ma'nolarida ishlatilgan [17: 146]. Mahmud Koshg'ariyining "Devonu lug'atit-turk" asarida "savlashdi" janri to'g'risida ma'lumot berilgan. A.Abdurahmonov bu adabiy janrni masal janriga tenglashtiradi. *Savlashdi* turkiyda masal aytuvchi ma'nosida ham izohlangan [1; 331]. Tarixiy nasr namunalarida bu janr adabiy jarayon talablari asosida ma'lum o'zgarishlarga uchragan. Janr imkoniyatlari kengaygan, umumlashma xususiyatlarni ifodalagan. "Shajarayi turk"da keltirilgan masallar maqol va frazeologik birlikni o'zida ifoda etgan. Abulg'ozasi asarida masallardan keltirib, fikrini tasdiqlash va asoslash uchun qo'llaydi. Masalan, asarning muqaddima qismida "Turkning masali turur: "O'ksuk o'z kindigini o'zi kesar" – tegan" [2; 11]. Nazarimizda, Abulg'ozasi masal deganda, mumtoz adabiy istilohga ko'ra xalq maqollarini nazarda tutgan. Bu o'sha davrda maqolning masal nomi bilan qo'llanganini ko'rsatadi. Adabiy janrlar takomilida ham aynan shu holatni kuzatish mumkin. Chunki ko'pgina xalqlar og'zaki ijodida maqol va hikmatli so'zlar, hatto, ertaklar ham masal deb atalganini aytib o'tish o'rindilidir. Abulg'ozasi asarining birinchi bobida o'zbek masalini keltiradi: "*It semirsa, egasin qopar*", degan. Muallif Alanchaxon zamonidagi to'qchilikka shukr qilmagan xalq ichida budparastlikni tasvirlash ma'nosida bu masaldan foydalangan. "*Bu kungi ishni tanglag'a solg'an kishining ishi hech bitmas*". Mazkur maqol Chingizzxon tomonidan aytildan bo'lib, jang qilmaslik uchun otlari-

ning oriqligini bahona qilgan beklariga nasihat qilish mazmunini ifodalaydi. Chingizxonning o‘z o‘g‘illari va yaqinlariga qilgan nasihatlarida ham naql janriga xos belgilari mavjud. Faqat bu majoziy uslubda emas, real voqealarga asoslangan holda xalq og‘zaki ijodi an‘analarini qo‘llash orqali amalgalashiriladi. “Shajaratay turk”da hukamolar, ulamolar va oqsoqollarning ibratli so‘zlaridan ham keltirilib, asarning ta‘limiy-estetik qimmatini oshirishga erishgan. Masalan, hukamolar tilidan: “*hech nimarsaning martabasi to‘qquzdan yuqori bo‘lmas, niyoyati to‘qquz turur*”, deb aytadi. Bu hikmatli so‘z mo‘g‘ullarning to‘qqiz xonidan olinganini asarning boshqa o‘rinlarida aytib o‘tadi.

Chingizxonning nayman eli ustidan g‘alaba qozongani voqealari tasvirida bir necha hikmatli so‘z va maqollarini keltiradi. “Burungi yaxshilar aytib turur: “*O‘n darvesh bir palosning yuzina sig‘ar. Ikki podshoh er yuziga sig‘mas*”, – teb”. [2; 54]. Yoki naymanning beklari tilidan aytigan o‘gitni olaylik. “*Turadin va ev, eldin ayrilib, yot yurtga borib ko‘r qidirib yuruguncha o‘lgan yaxshi*”. Dushman qo‘lida xizmat qilgandan ko‘ra jasorat bilan o‘limni sharaf deb qabul qilishi ham o‘quvchini to‘lqinlantirib yuboradi. Yana shunday naqllardan biri Chingizxon tomonidan Sulton Jaloliddinga qarata aytigan edi. “*Otadin o‘g‘ul tug‘sа, shundoq tug‘sun*”. Chingizxon Sultonning ishlariga taxsinlar aytib, mardligi va jasoratiga qoyil qolganini tasvirlash uchun berilgan, mazkur o‘git mazmuni shunday. Har bir ota borki, o‘zidan shunday mard farzand tug‘ilishini istaydi. Asarda “Chingizxonning ba‘zi masalalari va biliklari va rasm va qoidalari zikri” [2; 80–81]da podshohlarning hukm chiqarishi, har bir kishining qobiliyatiga qarab ish va lavozim berish kerakligi to‘g‘risidagi o‘gitlari asarning ta‘limiy-estetik funksiyasini belgilaydi. Asarlarda keltirilgan bilig, o‘git va maqollar o‘sha davr kishilarining aqliy zakovatini, dunyoqarashini o‘zida ifoda etadi. Masal, maqol, hikmat (aforizmlar) va ibora (frazeologik birlilik)lar hayotiy tajribalar asosida yaratilgan dono fikrdan iborat bo‘lib, voqelikni kuzatish orqali tajriba to‘plash va uni obrazli ifodalash hamda u haqda xulosa chiqarish natijasida yaratilgan adabiy shakklardir.

“Berdibekxon bin Jonibekning xon bo‘lg‘anining zikri”da ixcham syujetga ega bo‘lgan bir masal keltirilan. “Jonibekxon o‘lgandan so‘ng Tabrizdin Berdibekxon Saroyjq keldi. U kun aza tutdilar. Azadin so‘ng tamom shahzodalar va umarolar Berdibekxonni xon qildilar. Bu Berdibekxon ajab zolim ta‘b, fosiq, qora va badniyat kishi erdi. Aqa va inisin-da, qarindosh urug‘in-da hech kishi qo‘ymay o‘lturdi kim, yurt o‘zumga boqiy qolg‘ay teb. Bilmadi kim, dunyo foni turur. Axir podshohlig‘i ikki yilg‘a etmay tarixi etti yuz oltmish ikkida vafot topdi. Sayinxon avlodni Berdibekda munqati’ bo‘ldi. Holo o‘zbek ichinda *masal* turur: “*Nor bo‘yni Berdibekda kesildi*”. Andin so‘ng Jo‘chixononing o‘zga o‘g‘illarining avlodni podshohlik qildilar” [2; 109].

Yodgorxonning vafot topgani zikrida Abulkayr-xonning o‘g‘illari va qarindoshlari o‘rtasidagi taxt talashuvlar orqali ko‘p kishi nobud bo‘lgani aytigan mazkur voqeadan, jarayonni tasvirlash maqsadida muallif qari (oqsoqol) kishilarning so‘zlaridan keltirib o‘tadi. “*Otang evin yov chopsa, birga chop*” [2; 118], so‘zlarini keltirib, Berkaxonning ota yurtiga urush qilganini aytib, to‘zg‘igan elni yig‘ganini ta‘kidlaydi.

“Elbarsxonning Urganchni olgani zikri”da burungi o‘tgan o‘zbeklarning ahli tajribalaridan aytib tururlar: “*To‘raning davlatli bo‘lurining nishoni ul turur kim navkarga mehribon bo‘lur va badavlatining nishonasi qarindoshg‘a mehribon bo‘lur*” [2; 123]. Elbarsxonning bu so‘zlarga amal qilmagani yonidagi beklarinining mardakligidandir. U beklarning so‘ziga kirib o‘z qarindoshlaridan bir nechasini o‘ldirdi. Va buning oqibati ham yaxshilikka olib kelmadidi.

“Shajaratay turk”da *masal* janri talablariga mos keladigan kichik syujetga ega bir voqeasiga tasvirlangan. Bu aynan masal janrining hikoyat mazmunida qo‘llanganini isbotlaydi. Voqeasiga Dinmuhammad bilan bog‘liq bo‘lib, o‘zbek xalqi orasida masalga aylanganligi aytildi. “Jovdin ayrilg‘andin so‘ng tirik tushgan beklarni Dinmuhammad sulton oldiga olib keldilar. Bu falon bek, bu falon bek, teb Sultonning oldindan bir-bir o‘tkaza erdilar. Sulton ot ustinda erdi, bir bekni olib keldilar. “Bu kim turur?” – teb so‘radi. Olib kelgan kishi “Hofiz qo‘ng‘irat”, – tedi. Anda sulton aytadi. “Sen, Hofiz, hamisha Ubaydxon oldinda Urganch musulmon ermas, kofirdur!” – der ermish sen. Ne sababdin bizni kofir dey turursen?” Anda Hofiz yukundi. Taqi aytadi: “*Ushbu zamon musulmonliq birlan kofirlilik ma‘lum bo‘lur*.” Sulton hech nimarsa temadi. Hofiz qo‘ng‘iratning bu so‘zi shul kundin beri o‘zbek orasindan masal bo‘lub qoldi” [2; 136].

Muallif Qolxon zamonda Urganchda benihoyat arzonchilik bo‘lganini aytib, “*Qolxon xon bo‘ldi, bir pulg‘a bir non bo‘ldi*”, deb xalq ichidagi gaplarni keltiradi. Poyanda Muhammad sulton haqidagi voqealar da ajoyib hikoyatni berib o‘tadi. “Poyanda Muhammad sulton kam aql erdi. Bir kun otasi ko‘runushda o‘lturg‘anda kelib yukundi-da aytadi: “Mening yoshim Abul Muhammaddin ulug‘. Ani xon deytururlar va meni sulton. Sizning hukmingiz birlan aytadurlar yo‘zlarini aytamidurlar?”

Xon bu so‘zga ne aytarin bilmay turub erdi. Xonning bir yaxshi begi bor erdi. Turumchi otli, turkmanning Layna (Labna) urug‘indin, benihoyat aqlli kishi erdi. Aning aytg‘an yaxshi so‘zlarini ko‘p turur. Ul aytadi: “Muning to‘rasini, podshohim, men berayin?”

Xon aytadi: “Andaq qill!” – tedi. Turumchi Poyanda Muhammad sultong‘a boqib aytadi: “Sizni Xudoyitaolo berganda otangiz sulton erdi. Ukangiz dunyog‘a kelganda otangiz xon erdi. Kishining otasi ne bo‘lsa – o‘g‘li shul bo‘lur. *Sultondan tuqqanni sulton derlar va xondin tuqqanni xon derlar*”, – tedi. Bu so‘z ahmaqqa‘a

ma'qul bo'ldi, qo'pub ketdi. Ul ham otasidin so'ng va-fot topdi" [2; 142]. Mazkur naqlida ham xalqning eng dono, aqlli va donishmand kishilar to'g'risida, ularning yaxshi so'zлari ibrat uchun kitobxonga yetkaziladi. Asarning badiiy qimmatini oshirishga xizmat qiladi. Naql tarixiy voqeа tasviriga singib, tarixiy obrazni jonli xarakterini yaratishga yordam berган.

"Po'lod sultonning sifati"da u haqdagi bir qancha naqlar hikoya qilinadi. Abulg'ozining aytishicha, kichik paytlarida bu podshoh haqida ko'p naqlar aytilgan. Uning qilgan ishlari xalq ichida unutilib ketmasligi uchun uch-to'rt naqlni keltirib o'tishni ma'qul topadi. Shu naqllardan birida Abdullaxon Urganch ustiga bostirib kelgani aytildi. Avval kelganida Abdullaxon Yangi ariqdan qaytib ketgan edi. U Yangi ariqda turg'anda yosh yigitlardan besh yuz kishi jang qilishga choqlanganda, Po'lod sulton men ham borurman, deb, otlanibdi. Inisi Temur sulton: "Yosh o'g'lonlarga qo'shilib, qayga borursan? – deb, man qilibdi. Barcha beklar ham man etibdi. Qabul qilmay ketibdi. Borib qorovullar bilan urushganda g'olib kelibdilar. Urush qizigandan keyin ajralib bilmabdi. Yovning ko'maki ko'p kelibdi. Qaytib qochibdilar. Po'lod sulton barchadan oldin qochib kelib, otdin tushub, Xevaqning darvozasida bo'sag'asiga minib, qulochini yoyib, "kelur bo'lsang, kel! Jov shahrga nechuk kirursan emdi?" – deb faryod qilar ekan [2; 147–148]. Mazmun sarlavha-da keltirilib, syujet bilan bayon qilinsagina, chinakam naql yuzaga keladi. Po'lod sulton to'g'risidagi naqlar yumoristik xarakter kasb etadi. Muallifning naqlarni keltirishdan maqsadi, asarga ko'tarinki kayfiyat olib kirish bo'lgan. Shu orqali tarixiy shaxs to'g'risidagi voqealarni ham bayon qilishga erishgan.

Tarixiy shaxslar tilidan aytilgan naql va masallar tarixiy shaxsning donoligi, tadbirkorligi, jasorati va aqliy qobiliyatini ifoda etib, paremik xususiyatini yuzaga chiqaradi. Voqeaning jonli badiiy poetik tasvirini yaratishi bilan birga tarixiy jarayondan to'g'ri xulosa chiqarishga chaqiradi. Xalqona tilda ifodalangan masal (maqol)lar xalqimizning ijodiy-badiiy tafakkuri yuskaligini bildiradi.

A.Abdurahmonov "Turkiy xalqlar og'zaki ijodi" kitobida qadimgi turkiy xalqlar adabiyotining janr xususiyatlariiga to'xtlib, otalar tomonidan keltirilgan hikmatli so'zlarni "sav" janri sifatida talqin qiladi. Savni adabiy janr sifatidagi o'rmini "Devonu lug'atit-turk", "Qutadg'u bilig" asarlarda keltirilgan misollar bilan dalillaydi.

*Bordi qadim donolar,  
Tog'day yuksak bilimda.  
Eslab o'gitlarini  
Quvonch ortar dilimda.*

Qadimda donolar va otalar so'zлari, o'gitlarini "sav" janri sifatida atalganligini ta'kidlaydi. "Sav" voqeiy tasvirga xos bir necha janrning umumlashma nomi, ya'ni hozirgi adabiyotshunoslikdagi epik tur ata-

masiga yaqin turadi. Devonda "Otalar so'zi" iborasi "sav" atamasini bilan ifodalangan. "Savda shundag' ke-lir" – otalar so'zi shundoq keladi [8; 168]. "Otalar so'zi" bilig ma'nosiga yaqin turadi, ammo bu ikki atama-ning farq qiluvchi xususiyatlari mavjud. Bilingda dono fikrlar va hikmatli so'zлarning qisqalik, lo'ndalik, ayni paytda ko'chma ma'nolik xususiyatlari mujassamla-shadi. Bilingning ijodkori zamondosh bilga bo'lishi ham mumkin. "Otalar so'zi"ning janr xususiyati o'tmishdan meros bo'lib qolgan pand-nasihat, axloq, odob ifoda-langan asarlarni qamrab oladi" [18; 331]. A.Hayitmetov Navoiyning lirik asarlari misolida o'git va hikmatli so'zlarni o'rgangan edi. O'gitlar Navoiyning ma'rifa-tomuz va mav'izatangiz baytlari orqali ifoda etilganini ko'rsatadi [1; 101].

"Shajaratyi turk" asarida hikmatli so'zlar va o'git-lardan ko'plab namunalar uchraydi. Asarda buyuk podshohlar va sarkardalar haqidagi naqlar va ularning o'gitlari – ibratli so'zлaridan parchalar berilgan. Nayman podshohi Tayangxonga O'ngxonning boshini olib kelishadi. Bunday ulug' podshohni va qari kishini nima uchun o'ldirdinglar. Tirik olib kelishi kerakligini aytib, beklarini aybladi. Tayangxon O'ngxonning boshiga kumush qoplatib, eshikka qaratib, taxtining ustiga qo'ydi. Bir kuni O'ngxonning quruq kallasi tili ni og'zidan chiqarib, tebrandi. O'sha kuni uch marta shundai qildi. Buni naymanning qarilari irim bildi. Shu sababli ular Chingizxon dan yengilib, qatl etildi [2; 53].

O'git adabiy janr sifatida "Devonu lug'atit-turk" asarida "o'tluk" tarzida keltirilgan. "Qissasi Rabg'uziy"-da "foyda" termini ostida o'gitlar berib o'tilgan. "Shajaratyi turk"da Abulg'ozi tarixi tasvirlangan sahifalarda uning tilidan bir o'git bayon etiladi. Abulg'ozi jang pay-tida yovning qo'lidan qochishga harakat qilib, o'zini suvga tashlaydi. Oti va kiyimlari bilan suvda suzish qiyin bo'lganida bir qari kishining unga aytgan o'gitini eslab, u aytgan so'zlarga amal qilib, dushman qo'li-dan qutulib ketganligini hikoya qilib beradi. "Bir qari kishi bor erdi. Ul aytur erdi, har qachon jovdin qoch-ganda sarupoy birlan ot yoldasangiz, bir oyoqingizni quyushqondin o'tkarib, otning quyruqina qo'yung! Bir oyoqingizni uzangida qo'yung! O'zingiz tik turing! Bir qo'lingiz birlan egarning kin qoshina bosing! Bir qo'lin-giz birlan otning jilovini ko'tarib tortib tuting! Mundoq qilmasangiz ot Sovutli, sarupoli kishini olib chiga bilmas, teb" [2; 169]. Oqsoqollar so'zi tarixiy qahramonlarni qiyin vaziyatlardan olib chiqishga yordam beradi. Yuz bergen favqulodda holatlarda o'gitning natijasi o'laroq tarixiy shaxsga to'g'ri yo'l ko'rsatiladi. Bu kitobxon uchun ibrat va o'rnak vazifasini bajaradi.

Abulg'ozi o'z tilidan kichikligida oqsoqollardan eshitgan o'gitini Dinmuhammadning noto'g'ri ishlari bayonida berib o'tadi. Va bundan o'quvchini to'g'ri xulosa chiqarishga chaqiradi: "Biz kichik erkanda oqso-qolliliklar aytur erdi: "Yomon ishni bu ozdur, mundin ne bo'lur", – teb qilg'uchi bo'l mang. Bizning yurtimiz

bir saru echku sabab bo'lub buzulg'an turur" [2; 129]. Tarixiy real voqealarning xulosasi – o'git janri orqali ifoda etiladi. Mana shu jihat o'gitning paremik xususiyatga egaligini ko'rsatadi.

Naql, masal (maqol), o'git va hikmat janrlari tarixiy asarlarda uch asosiy paremik xususiyati bilan ahamiyatlidir. Bular: ko'pchilikning hayotiy tajribasidan kelib chiqib to'plangan dono fikrdan iboratligi; umuminsoniy ahamiyatiga ega bo'lgan favqulodda dono fikrlarning obrazli ifoda etilishi; bu tipdag'i asarlarning ixcham, nisbatan barqaror kristal shaklga ega bo'lishi. Shu jihatlar biz tahlilga tortgan asarlarda to'la namoyon bo'lgan. Tarixiy shaxslar tilidan aytigan ibratli so'zlar tarixiy voqealarning hissa-xulosasi sifatida xalqimizning donishmandligi, zakovatini o'zida aks ettirgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurahmonov Abdurashid. *Turkiy xalqlar og'zaki ijodi. (Eng qadimdan islomgacha bo'lgan davr)* – Samarqand. 2006.
2. Абулғозий Баҳодирхон. Шажарайи турк. Чўлпон. 1990.
3. Азербайджанско-русский словарь. – М.: 1965.
4. Арабско-русский словарь. – М.: 1957.
5. Гаффаров М.Н. Персидско- русский словарь. – Ташкент: Том 2. 1974.

6. Имомов К. Ўзбек халқ наасри поэтикаси. – Тошкент: Фан. 2008.

7. Киргизско-русский словарь. – М.: 1965.

8. Мирзоҳидова Л. "Девону луғатит-турк"даги масаллар. Бадиий матн таҳлили ва талқин муаммолари. Н.М.Маллаев таваллудининг 90 йиллигига бағишиланган илмий-назарий конференция материаллари. – Тошкент: 2012. Баёз.

9. Мирзо Улугбек. Тўрт улус тарихи. – Т.: Чўлпон. 1994. (Бўрибой Аҳмедовнинг кириш сўзи, изоҳлари ва таҳрири остида)

Паремия. Бахтин М. [www.wikipedia.org/wiki](http://www.wikipedia.org/wiki).

10. Персидско-русский словарь. – М.: 1970.

11. Раҳмонова З. Адабий тур муаммоси. Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2019. №-21-сон.

12. Саримсоқов Б. Паремик кечинма табиати. Ўзбек тили ва адабиёти. 1993. 5-6 сон. // Тўртинчи адабий тур. Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2002. 28 июн сони.

13. Таджикское-русский словарь. – М.: 1954.

14. Темирова М. Ўзбек ва қирғиз фолклорида мақоллар муштараклиги. – Т.: 2016.

15. Тилавов Б.Т. Поэтика таджикских народных пословиц и поговорок. – М.: 1967.

16. Ўзбек классик шеърияти жанрлари. Ўқитувчи. – Т.: 1979.

17. Ҳайитметов А. Адабий меросимиз уфқлари. – Тошкент: Ўқитувчи. 1997.

## MA'NOLAR MAHZANI

### “QUTADG‘U BILIG” HIKMATLARI



Uzoq yashsab olamni qaritgan oqsochli keksa nima degan eshitgin:  
bilim va fazilatlarni o'rgan va ularni juda ham qadrла, bilim va fazilat ham  
oxir-oqibatda seni ulug'likka eltadi.

Bilim o'rgan, zakovat kasb et, behuda yurma, xayrli payt kelganda,  
ular seni ro'shnolikka chiqaradi.

Zakovatli istalsa, sen tugal zakovatlidirsan, kishilik istalsa, odamiyiling kamolotdan ortiqdir.

Odamga to'g'rilik, xushfe'llilik xislatlari zarurdir, u shular tufayli tilagan tilaklariga etadi.

**Yusuf Xos Hojib**



# YER YUZIDA SOG'INTIRAR YOLG'IZ MAKON....

*(Qalqaman Sarin she'riyatida Vatan mavzusi)*

**Annotatsiya:** Maqolada atoqli qozoq shoiri Qalqaman Sarin she'riyatida tug'ilgan yer, Vatan mavzusisi haqida so'z boradi. Shoirning "Arqatdagi uyimiz" she'ri chuqur tahlil qilinib, yurtga muhabbatini o'zgacha ohang va takrorlanmas misralarda ta'riflagan shoir she'riyatiga alohida nazar tashlanadi.

**Kalit so'z va iboralar:** Vatan mavzusidagi she'larga sharh, Qalqaman Sarinning „Arqatdagi uyimiz“ she'rining mazmuni va g'oyasi

**Аннотация:** В статье рассказывается о родине известного казахского поэта Калкамана Сарина и стихах, посвященных Родине. Углубленный анализ стихотворения поэта "Наш дом в Архам" акцентирует внимание на идее и содержании стихотворений, посвященных Родине.

**Ключевые слова и фразы:** Комментарий к стихам на тему Родины, стихи Калкамана Сарина на тему Родины. Содержание и идея стихотворения "Наш дом"

**Annotation:** The article tells about the birthplace of the famous Kazakh poet Kalkaman Sarin and poems dedicated to the Motherland. An in-depth analysis of the poet's poem "Our House in the Arkhat" focuses on the idea and content of the poems dedicated to the Motherland.

**Key words and phrases:** Commentary on poems on the theme of homeland. Kalkaman Sarin's poems on the theme of homeland. The content and idea of the poem "Our House in the Arkhat".

Vatan – kindik qonimiz to'kilgan, jonga jondosh, qalbga sirdosh eng ulug' kalom. Vatan – muqaddas zamin, mo'jizali maskanlari bilan yuraklarga jo bo'lgan, har qarich yeri-yu, kaftdek tuprog'i zar, ko'zga gavhardir. Vatan tuyg'usi – bu o'z xalqini sevish, u bilan faxrlanish, uni hurmat qilish va qadriga yetish deganidir. Vatan tuyg'usi-bu o'z bilimi, tafakkuri bilan jahon taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan vatandosh buyuk allomalarimiz, mutafakkirlarimiz mehnatalarini unutmastlik demakdir. Bulbul o'z tikonzorida yayrab sayraganidek, odamzot ham o'z ona tuprog'idagina baxt osmonida uchmog'i mumkin. Ona Vatanni tarannum etmagan, kuylamagan ijodkor topilmasa kerak. Chunki ijodkor uchun, ayniqsa shoir-yozuvchilar uchun o'zi tug'ilib-o'sgan maskani – Vatanini kuylash-dek zavqli va sharafli baxt bo'lmaydi. Vatan mavzusida yozligan asarlarning tub mohiyati bir bo'lsada lekin, ularning hech biri bir-biriga o'xshamaydi. Shu o'rinda mustaqillik davrida o'z olovli she'rlari bilan kitobxonlarga tanilgan Qalqaman Sarin ijodida asosiy o'rnlarda turuvchi Vatan mavzusidagi she'rlar o'zgacha ohang va takrorlanmas misralarda jo bo'lganligi sababli yurakka yaqin deyishimiz mumkin. Shoirning Vatan mavzusidagi bitiklari zamondoshlari nazmini takrorlamaydi. Qozoq xalqi so'z qadrini tushungan xalq. Og'zaki so'zlashuv nutqidagi to'qson so'zning mazmun-mohiyatini to'qqizta so'z bilan qisqa va ixcham iboralar orqali yetkazishga yaxshi odatlangan. Bu bepoyon va go'zal yurtda yashagan xalqimiz



Asilbek SARTAYEV,  
Berdaq nomidagi QDU  
adabiyotshunoslik  
(qozoq adabiyoti)  
magistranti



tafakkurining o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'lsa kerak [1,45].

Bir paytlar ko'pchilikning yodida qolgan Qosim Amanjolov va Abu Sarsenboyevning Vatanga bag'ishlangan she'rlari boshqa shoirlar ijodida ham davom etgan. Albatta, bu qonuniydir. Ma'lumki, Vatan, muhabbat mavzulari adabiyotda abadiy mavzudir. "Арманымның бейнесі" she'riy to'plami orqali o'zing shijoatli ovozi, teran tuyg'ulari bilan kitobxonlarni maftun etgan Qalqaman Sarin ijodida ona zamin mavzusi alohida o'rinn tutadi. Shoир Arxat qishlog'ida tug'ilgan. Sharqiy Qozog'iston viloyatining Abay tumani hududidagi Arxat tog' jinslari qatlamlaridan iborat. Tepalikda shamol va suvdan muzlab qolgan adirlardagi toshlar turli shakldagi haykaldek taassurot qoldiradi. Tog'ning nomi haqida aniq ma'lumot yo'q. Bir rivoyatda aytlishicha, qozoq xalqida muhabbat ramzi sanalgan "Qo'zi Ko'rpes - Bayan Suluv" qahramonlaridan biri Aybas shu yerda o'z tulporini yo'qotib, tog' nomi ham shu tulpor nomidan kelib chiqqan. Tabiatli afsonaviy va go'zal diyorda tug'ilgan shoirning she'rlari chinakam ilhomdan tug'ilganiga shubha yo'q. Shoир o'z ona yurti tarixini o'rganib, uning oldidagi farzandlik burchi va mas'uliyatini chuqur his etadi. U o'z ona yurtining tabiatini, qishdag'i kumush qorni, bahor yomg'irining hidini, yozda dala dashtning jaziramasini, kuzdag'i ma'yus bog' timsolini misralarida keltiradimi, avvalo, shoirning o'z dunyoqarashi va ichki olami ko'rinish turadi:

Бәрі есімде бал ғұмыр, бала кездің,  
Арман құдым. Ат міндім. Дала кездім.  
Қазыналым, қымбатсың маған мәнгі,  
Қарашығы секілді қара кездің [2,42].

Shoir she'rlarida ona qishlog'iga muhabbat va sog'inch tuyg'ulari chambarchas bog'langan. Do'mbiraning qo'sh toridek egizak tuyg'ular shoир qalbini hamisha Vatan madhini kuylashga undaydi. O'zining tug'ilib o'sgan qishlog'i bag'rida qolgan bolalikning beg'ubor damlarini yo'qotib, shoир ma'yus tortadi, orzu-armon ortidan quvib shaharga intilgan o'zini aybdor his qiladi, Ona qishlog'idan uni tark etganligi uchun kechirim so'raydi:

Тұған ауыл. Бәрі есте...Балалық шақ,  
Қалаға кеп қанғырдық қалам ұстап.  
Кешір мен, күнәсіз балалығым,  
Қала алмадым ауылда саған ұқсан [2,41].

She'rda ajib surat, bolalikka sog'inch tuyg'usi, qalblarni larzaga keltiruvchi, yuragingni kuydiruvchi buyuk muqaddas tuyg'u - Vatan tuyg'usi bilan hamo-hang tasvirlangan. Shoirning "Қарауыл. Қараөлең" , "Тесіктас" , "Арқаттағы біздің үй" , "Ертістің бойы" , "Астана" , "Тұған ауыл" , "Ауылға бардың" kabi

she'rlari Qalqaman Sarinning haqiqiy Vatan madhini kuylovchi ijodkor ekanligidan dalolat beradi. Vatan madhi uchun so'zni qurol qilgan shoир jonajon qishlog'ining sog'inch bilan kun-u tunlarni o'tkazgan. Tug'ilgan qishlog'i Arxatga bag'ishlangan she'rlarida Vatan obrazi shunday tasvirlanganki, uni o'qiganda shoirning qalbi ona yurt siyomasi sifatida shoirning hayot va ijod yo'lini yoritib turadi. Bunga uning birgina "Арқаттағы біздің үй" she'ri misolida to'la iqror bo'lish mumkin. She'rni o'qir ekansiz ko'z oldingizga qishloq-dagi quyosh botishi, oyning osmonni to'q sariq va qizil ranglar bilan yoritishi, tiniq qorong'u osmonda yulduzlar ko'rinishi va to'liq sukunat faqat o'yinqaroq bolalarning ovozi bilan buzilishi ko'z oldingizga keldi. Sarkuis, Sarqirama, Tulaq to'g'aylaridan do'lana terayotgan bolalarning shirin hayotiga guvoh bo'lasiz. Shoirning dunyoning yechilmagan sirlariga to'la Te-shiktoshda bitilgan orzularini o'qiyotgandek bo'lasiz:

Саған деген көңілдегі күй – үнім,  
Сағынышым, сан мың мақам иірім.  
Таңғажайып тағдырың ба, Тесіктас,  
Сенсің менің ең алғашқы биғім [2,29].

Shoir o'z Vatanini faqat balandparvoz so'zlar bilan madh etish bilan tug'ilgan yer oldidagi farzandlik farzini ado etish mumkin emasligini teran his qiladi. Uning fikri aniq va haqiqatdir. Vataniga mehr qo'ygan shoир o'z ona qishlog'i oldida qilayotgan ishlaridan qanoatlanmaydi:

Тұған ауыл, сен үшін тер төкпедім,  
Кешір мені, кеш мені сен текті елім.  
Бір сағыныш мазалап ертеп-кеш,  
Жүреді ылғи жанымды өртеп менің [2,41].

Bu ham shoirning fidokorona haqiqatidir. Shoир o'z vataniga, dala-dashtlariga cheksiz mehr-muhabbatga to'la qalbsiz hayotni tasavvur qila olmaydi. O'z ona Vatanini chin yurakdan sevish, e'zozlash shoirga xosdir. Bu shoirning ona qishlog'i oldidagi farzandlik burchini oshiradi. Qalqaman Sarin o'z ona yurtining o'tmishi va buguni haqida fikr yuritadi. Shuning uchun ham uning she'rlarining badiiy quadrati, hikmati juda baland. Xalq ruhida ozodlik, vatanparvarlik tuyg'ularini singdirishda she'riyatning roli va o'rnı beiqiyosdir. She'riyat o'ziga xos timsollar, ramz va ohanglar orqali kishi ruhida shunday buyuk tuyg'ular uyg'otadiki, ularni qilich va qurol kuchi bilan ham yo'q qilib bo'lmaydi. Sevimli shoirimizning "Астана" she'ri xuddi shunday ijod mahsulidir. Ushbu she'r Astananing buyuk tarixini va bugungi kunini o'zida mujassam etgan yuksak ijod namunalardan biridir. She'rning ilk satridanoq Vatanga, Astanaga, uning buyuk tarixiga bo'lgan muhabbat, hurmat, ehtirom, g'urur va iftixor tuyg'ulari yaqqol sezilib turadi:

Астанам! Ару қалам, асқақ ордам,  
Қалың жұрт, қазағыма қақпа болған.  
Ту ұстап, тұлпар мінген бабаларым,  
Бермеген ел намысын жатқа қолдан.  
Бозоғым, бозбеткейлім, баққа оранған,  
Тарихтың қойнауынан тапқан олжам.  
Баянды бақытымның бастауындей,  
Айналдың Астанаға аппақ арман [2,39].

Bolaligi Arxat qishlog'ining chang ko'chalarida o'tgan lirik qahramon Vatanni sog'inadi. Beg'ubor bolaligi o'tkan uy hamma uchun qadrlı bo'lishiga shubha yo'q. Shoır o'z tuyg'ularini ifodalashga yangi iboralar, yangi qofiyalar izlab ovora bo'lmaydi, tevarak-atrofdagi hayotga jon bag'ishlaydi, uni ko'zlari bilan xayol elagidan o'tkazib, sirli so'z bilan chizadi. Shoır she'rlari oddiy tushunchalar bilan ajralib turadi. Qalqaman sarin she'rlarining buyukligi o'sha oddiyligida aslida:

Шаңдақ жол жатыр шақырып тағы шалғайға.  
Жазғырма мені... Жазылған тағдыр маңдайға.  
Кетуге бірақ қия алмай тұрмын тамсанып,  
Анамның берген ақ құртын салып таңдайға [2,44].

Shoır tabiatdagı jismlarnı tasvirlar ekan ularga katta ma'no yuklaydi, hodisalardan falsafiy umumlashmalar yasaydi. Vatanini, zaminini seuvuchı, yam-yashıl o'tloqlar, chang-to'zonlı yo'llarnı qadrlaydigan shoır she'rlarining asosiy leytmotivi qishloq sog'inchidir. Shoır Vatanga, yerga muhabbat ona suti bilan beriladi, degan xulosaga keladi:

Аүылға бардым.. Бала күндерім кекілді,  
Алдынан шықты. Ақ жауын жуып бетімді.  
Алақаныма тамшысы жылы тиеді,  
Аяулы анамның аппақ жаулығы секілді [2,43].

Inson hayotida to'liq baxtiyor bo'lishi uchun tug'ilgan yer havosidan nafas olishi va Vatan tuyg'usini his qilishi kerak. "Bizning barcha muhabbat tushunchalarimiz bir so'zda – Ona Vatanga birlashadi", deydi donishmandlar. Shoır ham tug'ilib o'sgan Vatani bag'rida yashayotgani uchun o'zini baxtiyor deb biladi. Shuning

uchun shoır she'rlarini vatanning ruhiy manzaralari deyish mumkin. Ijodkor ona yurtti kishilar ruhiyatiga ko'chira olgani uchun ham uning bitiklari yuksak ahamiyatlidir. Badiiy qiymati beqiyos bo'lgan ushbu satrlar shunchaki yaltiroq dabdbaba, suronli chaqiriq emas, chinakam tuyg'ular taranumidir:

Бар байлығым сенде менің,  
Өтсе-дағы уақыт сырғып.  
Жаратқанға тәубе дедім,  
Жаратпаған бақытсыз қып [2,36].

Shoirning boshqa insonlardan farqi shundaki, ular boshqalar his qilmaganni his qiladi, ko'rma-ganni qalb ko'zi bilan ko'radi. Atrofimizdagı barcha tirik tabiatda Vatan bor. Qushlarning ham, hayvonlarning ham tug'ilgan yeri bor. Biroq tabiatdagı mavsumiy yoki iqlim o'zgarishlari tufayli boshqa mavjudotlar doimo o'zlarining yashash joylarini o'zgartiradilar. Faqat insongina o'z Vatanini boricha sevish qudratiga qodir. Vatanga bo'lgan bu muhabbat Xudoning insoniyatga bergen in'omi bo'lsa kerak. Xulosa qilib aytganda, Qalqaman Sarinning Vatan mavzusidagi she'rlaridan saboq olib, Vatanning munosib avlodni bo'lib yetishamiz, deb o'ylayman. Inson qalbini tarannum etuvchi bunday asar bugungi avlod tarbiyasida katta tarbiyaviy, estetik ahamiyatga ega bo'lishi shubhasiz.

#### Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Қазіргі қазақ өдебиеті: даму үрдістері, есімдер мен оқигалар. М.Әуезов атындағы Әдебиет және өнер институты "Print expresss" баспасы, 2017.
  2. Қ.Сарин. Арманымның бейнесі. Астана. "Нұра Астана" 2011.
  3. Көрібаев.Б қазіргі қазақ лирикасы. Караганды. 1993.
  4. А.Байтурсынов. Әдебиет танытқыш. Алматы 1896.
- Қ.Сариннің авторлық сайты [http://kalkamansarin.kz./](http://kalkamansarin.kz/)



# O'SIMLIKLARNING POETIK MIFOLOGEMMA VAZIFASINI BAJARISH HODISASI HAQIDA

(*O'zbek va qoraqalpoq folklori asosida*)



Rustam  
SAPARNIYOZOV,  
Qoraqalpoq dav-  
lat universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'simliklarning poetik mifologema vazifasini bajarish hodisasi masalalari o'zbek, qoraqalpoq va dunyo folklori materiallari misolida qiyosiy talqin qilingan.

**Kalit so'zlar:** o'simlik, poetik mifologema, daraxt, terak, tut, mifologiya

**Аннотация:** В статье дается сравнительная трактовка феномена растений как поэтической мифологии на примере узбекского, каракалпакского и мирового фольклора.

**Ключевые слова:** растение, поэтическая мифология, дерево, тополь, шелковица, мифология

**Annotation:** The article provides a comparative interpretation of the phenomenon of plants as poetic mythology on the example of Uzbek, Karakalpak and world folklore.

**Key words:** plant, poetic mythology, tree, poplar, mulberry, mythology.

Turkiy xalqlar, shu jumladan o'zbek, qoraqalpoq xalqlarining turmush tarzida ham daraxtlar bilan bog'liq irim-sirimlar keng tarqalgan. Bu bejiz emas, chunki qadimgi odamning dastlabki ozuqasi daraxt mevalari bo'lgan. Shu bilan birga odamlar o'simliklarni avaylab-asrab, ularning ba'zilarini ilohiy tushunchalar bilan bog'liq hisoblaganlar. Biz ham bu maqolamizda o'simliklarning poetik mifologema vazifasini bajarish hodisasi haqida o'zbek va qoraqalpoq folklorini qiyosiy talqin qilish orqali so'z yuritmoqchimiz.

Hammamizga ma'lum, o'simliklarni ilohiy tasvirlash va ularda inson ruhi istiqomat qilishi, o'simliklar, xususan daraxtlar insonni yovuzlikdan asrashi to'g'risidagi mifologik qarashlar barcha xalqlar folklori uchraydi. Folklorshunos A.Musaqulovning yozishchicha, "o'simliklarni ayol va er jinslaridan iborat deb bilish etnografiya tarixida juz'iy hodisa emas. Shu sababli, jinslarning intim munosabatlari o'simliklarga ham ta'sir ko'rsatadi deb tushunilgan. Ko'pgina xalqlarda o'simliklar ruhi odatda yashil barglar va gullar bilan bezangan yigit, qiz sifatida tasavvur qilingan" [1;68]. Daraxtlarni "erkak" va "ayol" jinsiga ajratib talqin qilish an'anasi komi xalqi mifologiyasida ham mavjudligi qayd etilgan [2;198].

Mevali daraxtlarning inson singari jinsga mansub deb tasavvur qilish qoraqalpoq xalq qarashlarida ham uchraydi. Olma daraxtining mevasiz o'sishini qoraqalpoqlar erkak daraxt sifatida tushunadilar va bunday daraxtlarni bog'da o'sishiga yo'l qo'ymaydilar. Ellikqal'aliklar erkak olma xosiyatsiz deb tasavvur qiladilar. Ularning tasavvuricha, erkak olma tagida soyalagan kelinchak farzandsiz bo'ladi, deb irim qilinadi.

O'simliklarni bunday jinslarga mansub deb tushunish asnosida folkorda daraxtga uylanish yoki daraxtga turmushga chiqish motivi, shuningdek, ayrim magik xarakterdagi udum va marosimlar kelib chiqqan. Masalan, M.S.Andreevning "Tadjiki dolini Xuf (verxov'ya Amu-Dar'i)" nomli tadqiqotida shunday ma'lumotlar keltiriladi. Tojikiston Respublikasining Xuf vodiysida g'alati bir odat qayd etilgan: ketma-ket to'rtta eri o'lgan beva yana turmush qurishga qaror qilsa uni erga berishdan avval daraxtga nikohlaganlar. Bunda mulla kelin bilan "kuyov" (ya'ni daraxt)dan turmush qurishga rozi yoki rozi emasliklarini so'ragan, "kuyov" nomidan daraxt tagida o'tirgan bir kishi javob qaytarib turgan. Xufliklar orasida mavjud bo'lgan xalq qarashlariga ko'ra, ayol qismatiga sabab bo'lgan palakat erkakka emas, daraxtga urishi, ya'ni kelasi yil bahorda shu ayolni o'z "nikohi"ga olgan daraxt qurishi kerak emish. Agar ko'klamda o'sha daraxt barg chiqarmasa, ya'ni qurisa, ayol palakatdan forig' bo'lgan hisoblanib, o'zi xohlagan kishiga erga tegishi mumkin bo'lgan. Mobodo daraxt qurimasa, uni boshqa bir daraxtga "nikohlaganlar". Tekkan eri o'laveradigan ayoldan palakatni aritishning bu o'ziga xos usuli Ishkashim tojiklarida ham qo'llanilgan [3;136-137].

Etnograf olim Sh.U.Ustoyev esa beva ayolni daraxtga "nikohlash" odati Surxondaryo viloyatining Boysun tumanidagi Darband qishlog'ida ham qayd etilgani haqida shunday ma'lumotlarni keltiradi. Olim Sh.U.Ustoyev tomonidan 1977-yilda darbanrdlik Mohtoba Shodiqulovadan yozib olin-gan ma'lumotga ko'ra, Mohtoba 17 yoshida turmushga chiqqan bo'lib, tez orada uning eri olaman dan o'tgan. Shundan keyin uni shu qishloqlik Xo'ja ismli kishiga erga bermoqchi bo'libdilar. Qishloq mullasi boshchiligidagi odamlar yig'ilishib Mohtobani "shaftoli ruhi"ga nikohlash marosimini o'tkazishgan. Mulla Mohtobani hovlidagi katta shaftoli daraxtining yoniga o'tqazib qo'yib, daraxt ruhiga shunday murojaat qilgan: "Mohtoba Shodiqul qizini tanmahramlikka olishga rozimisan?" Shaftoli daraxtining tagida o'tirgan guvohlardan biri uch marta "Ha, ha, ha!" deb javob bergan. Shundan keyin mulla "Mohtoba Shodiqul qizi, o'z vakolatini Xo'ja Sharif o'g'liga bergen shaftoli ruhiga turmushga chiqishga rozimisan?" – deb so'ragan. Nikoh o'qib bo'lingach, Mohtoba kosadagi suvning beshdan bir qismini shaftoli daraxti tagiga to'kkani va qolganini mullaga uzatgan. Mulla kosadagi suvdan bir necha ho'plab ichgach, Mohtobaga qaytarib bergen. Shundan keyin Xo'ja Sharifga turmushga chiqqan Mohtoba ayni paytda shaftoli ruhining "xotini" hisoblangan va har yili navro'z bayrami, Ro'za

va Qurbon hayitida o'zi "nikohlangan" shaftoli daraxti tagiga hamda vafot etgan erining qabri ustiga is-chiroq, pilik yoqqan. Mohtoba o'sha shaftoli daraxtiga hech kimning yaqinlashishiga ruxsat ber-magan, uning shoxlarini sindirmagan. O'sha daraxt keksayib qurigandan keyin esa uning novdalaridan uying tomini yopishda qurilish materiali sifatida foydalanganlar [4;169].

Sh.U.Ustoyevning keltirishicha ayolning ramziy ma'noda daraxtga "turmushga chiqishi" odati Surxondaryo viloyatining Boysun tumanidagi Besh erkak qishlog'ida yashovchi o'zbek-qo'ng'irotlar orasida ham kuzatilgan. Bu qishloqda eri o'lgan bir ayolni bolalari va mol-mulki begona bo'lmasisi degan maqsadda qaynog'asiga nikohlab berganlar. Bunda o'lgan erining kichik ukasiga uzatilayotgan beva ayolni terakka nikohlaganlar [4;169].

Daraxtga "erga tegish" udumi aslida tote-mistik qarashlar mahsuli bo'lsa-da, o'simlikka xos sifatlarning odamga ko'chishiga ishonishga asoslangan magik tasavvurlarni ham o'zida mu-jassamlashtirganligi xarakterlidir. Shuning uchun ham ramziy xarakter kasb etuvchi bu odat jahon xalqlari orasida ko'p bora qayd etilgan: masalan, Bengaliyada kelin bilan kuyov turmush qurishdan avval har xil daraxtlar bilan "nikohlanadilar". Shu tariqa ular, birinchidan, o'zlarining taqdiri bilan bog'liq ayrim ko'ngilsizliklardan forig' bo'lgan hisoblansa, ikkinchidan, daraxtlarday serpusht, ya'ni serfarzand bo'lishga erishamiz deb o'yланар. Qadimgi yunonlar esa to'y kuni bitta dub daraxtini kesib, xuddi kuyovga o'xshatib "yasantirishgan" va aravada kelin bilan birga olib kelishgan. Ana shu dub daraxti Zevs timsoli deb tasavvur qilingan. Ana shu e'tiqodiy qarashlarni qiyosiy tahlil qilgan B.A.Litvinskiyning fikricha, "bu odamning joni yoki jonlaridan bittasi daraxtda mavjud bo'ladi degan totemistik qarashlar kompleksining kontaminatsiyasi"dir [5;107].

Odam joni yoki uning "egizak ruhi" daraxtda yashashi to'g'risidagi totemistik qarashlarning o'ziga xos talqinini "O'g'uznomda" ham ko'ramiz. Bu asarda tasvirlanishicha, O'g'uzxon ovga chiqqanida bir katta ko'l bo'yidagi daraxt qobig'ida o'tirgan go'zal qizni uchratib qoladi: "O'g'uz qag'an avg'a ketti, Bir kel aras(i)nda alindan bir (j)ig'ach kördi. Bu (j)ig'achnuq kabuchag'inda bir kiz bar erdi, jalguz olтурur erdi. Jakshi köryklig' bir kiz erdi. Anuq közü köktyn kökräk erdi, anuq sachii mýrän usug'i däg erdi, anuq tishi ýnjy däg erdi" [6;29-30]. "Ko'zi ko'kdan-da ko'kroq", sochi jilg'a to'lqiniday serjilo bu qizga hoqon uylanadi va undan Ko'k, Tog', Dengiz ismli o'g'illar ko'radi. O'g'uzxon uylangan bu qiz daraxt qobig'ida (balki kovagida) o'tirganligi uning

tabiat stixiyasini o'zida mujassamlashtirganligini ko'rsatadi.

Dunyo xalqlari mifologiyasida xudolar va qahramonlar, turli xil personajlarning daraxt ostida uchrashishlari, daraxt tagida nikohdan o'tishi, daraxt yonida qovushishi, g'ayrioddiy personajlarning daraxt tagida tug'ilishi kabi motivlar keng tarqalganligi ham bevosita daraxt totemi to'g'risidagi qarashlar asosida kelib chiqqan an'ana hisoblanadi. Masalan, qadimgi xitoy miflаридан бирда аytishicha, afsonaviy Kun'-lun tog'da o'sadi-gan ulkan daraxt yoniga borgan ma'buda Sivan-mu Dunvangun degan ilohni uchratib qoladi. Shu yerda ular qovushadilar va in' bilan yan kuchlaring qo'shilishi natijasida yaratilish jarayoni ro'y beradi [6;53].

Xalqimizda tushda qurigan yoki shoxlari singan daraxtni ko'rish xosiyatsizlik alomati deb qaraladi. Folklorshunos V.N.Burnakov tomonidan hakaslardan yozib olingen materiallar bu tasavvur ham umumturkiy xususiyat kasb etishini ko'rsata-di. Hakaslar "Agar tushingda birorta keksa daraxt kesilganligini ko'rsang yoshi keksa qarindoshlar-ning dan biri o'ladi, mobodo yosh daraxt qurisa yoki kesib yuborilsa bu – navqiron qarindoshlar-ning dan birining o'limidan nishona" deyishadi. [7;134].

Totemistik qarashlarga ko'ra odamning tug'ilishi muayyan daraxt bilan bog'liq, chaqaloqlarning joni tug'ilishdan avval daraxtda makon topadi va u o'lgandan keyin yana daraxtga qaytadi (ya'ni daraxt sifatida yashashda davom etadi) deb tasavvur qilinganligi sababli tushning daraxt bilan aloqador yuqoridagi kabi talqinlari yuzaga kelgani haqida ma'lumotlar mavjud.

V.V.Evsyukovning keltirishicha, daraxt tagida tug'ilish motivining eng qadimiyl tasviriy ifodalaridan biri antik yunon madaniyatiga mansub bo'lib, miloddan avvalgi II asrga oid devoriy lavhalardan birida chaqaloq-Zevsning tepasida qush uya qur-gan, tanasiga esa ilon o'rmalayotgan daraxt tagida yotganligi tasvirlangan. Antik manbalarda keltirilgan afsonalarda Rim shahriga asos solgan deb tasavvur qilinadigan egizaklar – Romul bilan Rimni esa to'fon tufayli yoyilib oqayotgan Tibr daryosi sohilidagi Rum-in nomli daraxt tagidan topilganligi naql qilingan. Hatto bosqinchi Kirning tug'ilishi to'g'risidagi afsonada ham daraxt bilan aloqador totemistik qarashlar o'z aksini topgan: Kir dunyoga kelishidan ancha av-valroq uning bobosi Astiag bir tush ko'radi. Tushida uning qizining qornidan o'sib chiqqan tok novdalari butun Osiyo bo'ylab tarvaqaylab ketgan emish. Bu tush Astiagning tug'ilajak nevarasi Kirning Osiyo mamlakatlari bo'ylab olib borgan bosqinchilik yu-rishlaridan bashorat bergen edi.

Xalqimizda homilador ayollar tezroq ko'zi yori-sin uchun birorta mevali daraxtni quchoqlatish odati ham mavjud bo'lgani haqida professor M. Jo'raevning birqancha tadqiqotlarida aytildi. Ma-salan, Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanidagi G'ishti qishlog'ida yashovchi Salomat bibi Hay-darovaning aytishicha, agar homilador ayolning tug'ish muddati o'tib ketsa, ya'ni ayolning o'zi yo eri bilmasdan tuyu go'shti yegan bo'lsa, ona "yuki"ni o'n ikki oy ko'tarmasin, tezroq tug'sin de-gan maqsadda o'rik, tut kabi mevali daraxt yoniga olib borib, uning tanasini quchoqlatadilar. Bunda momolar o'sha daraxt tagida is-chiroq yoqadilar, keyin homilador ayol qulochini keng yoyib daraxt ni quchoqlaydi va orqasiga qaramasdan o'z uyi-ga qaytib keladi [8;53]. Bizningcha, bu irim ham daraxt totemi bilan aloqador mifologik qarashlar asosida kelib chiqqan bo'lishi mumkin. Chunki homilador ayol qynalmasdan yengil bo'lsin degan maqsadda unga daraxt quchoqlatish, tug'ruq paytda daraxt yoki uning biror novdasiga qo'llini tegizib turish kabi odatlar jahon xalqlari orasida mavjud bo'lganligi ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan. Ma-salan, budda afsonalarida aytishicha, Mayya ismili ma'buda Buddani tug'ayotgan paytda "plaksha" deb ataladigan muqaddas daraxt shoxiga tayanib turgan emish. Yunon miflari talqinicha esa Apol-lonning onasi ham ikki qo'li bilan palma daraxtini quchoqlagan holda tuqqan ekan [7]. Dog'istonliklar ham tug'ruq chog'ida qynalib qolgan ayolning dardini yengillashtirish uchun muqaddaslashtiril-gan daraxtlardan madad tilaganlar. Buning uchun tug'ayotgan ayolga qarindosh bo'lgan keksa kam-pirlar sochlarni yoygan kuyi yalangoyoq bo'lib daraxt yoniga borishgan va iloha Psatxani sharaflov-chi qo'shiqlarni aytib, onaning tezroq ko'zi yorishini so'raganlar.[9;111]

Mevali daraxtlarning serhosillik xususiyati ga egaligi magik qarashlarga ko'ra u bilan bevo-sita aloqada bo'lgan ayolga ham ko'chadi, degan tasavvurlar asosida farzand tilash marosimlarining daraxt kulti bilan bog'liq talqinlari shakllangan. Et-nograf olim S.Mirhosilovning yozishicha, Toshkent viloyatining Baytqo'rg'on qishlog'ida daraxtlarni serhosillik timsoli deb tasavvur qilish bilan aloqador bir magik udum mavjudligi qayd qilingan. Xalq qarashlariga ko'ra, uzoq umr ko'rgan azim daraxtlar befarzand ayollarni pushtsizlik dardidan xalos qilish, ya'ni farzand ato etish xususiyatiga ega, deb tasavvur qilingan. Shuning uchun farzand ko'rma-gan ayollar "bola yo'llim ochilsin" degan niyatda ana shunday daraxtlarni quchoqlaganlar [10;28]. Nazarimizda, udum qadimgi animistik tasavvurlar-ga bog'liq holda kelib chiqqan bo'lib, daraxtni jonli

narsa deb tasavvur qilgan qadimgi odamlar daraxtga xos serhosillik, uzoq umr ko'rishlik kabi xususiyatlar uni quchoqlagan ayolga ham o'tadi deb tushunilgan.

Folklorshunos A.Musaqulovning ma'lumotiga ko'ra, Turkistonning Ila vodiysida "Bo'g'oz terak" nomli ziyoratgoh bo'lgan. Befarzand ayollar ana shu ziyoratgohga kelib, bu yerda o'sadigan teraka uch marta ta'zim qilishgach, bir necha marta quchoqlasa homilali bo'ladi deb ishonishgan [1;75].

Arslonbob atrofidagi Olmali mozor, Terak mozor degan joylarda o'sadigan daraxtlar farzand ato etish xususiyatiga ega degan mifologik tasavvurlar qirg'izlar orasida ham keng tarqalganligi S.M.Abramzon tomonidan qayd etilgan.[11;56].

Shunday tushunchalar qoraqalpoq xalqining orasida ham mavjud. Masalan, Qoraqalpog'istonning Taxiatash tumani Saraykul qishlog'ida yashovchi Tagan bibi Kakabaevnaning aytishicha yashovchilar o'sha aholi hududida o'sadigan tut daraxtining qoshiga kelib, teraka uch marta ta'zim qilishgach, bir necha marta quchoqlab, uning atrofidan yetti marta aylanib chiqsa homilali bo'ladi, deb ishonishgan. Tutning tubida yog'ochdan kichkina beshik yasab, tutdan osib qo'yishadi ekan. Shuning uchun bu tut daraxtini karomat deb biladi va uni hech kim chopib tashlamaydi. Chunonchi, uning atrofini tozalab, ziyoratgoh joyga aylantirg'anlar. Bu tut daraxtining paydo bo'lishi haqida rivoyat saqlanib qolgan. Unda keltirilishicha, tut o'sayotgan tutning qoshida katta anhordan suv oqib turadi ekan va o'sha anhor ichida bitta tut daraxtining niholi ham oqib kelgan. Shu tut niholini bitta mulla qo'liga olib, O'ra otaning yo'liga deb, yerga ekkan ekan. O'ra ota degan kishi diniy ilmdan savodli, ohun bo'lgan. Bolalarning tishi og'risa, O'ra ota ga borib, o'qitsalar o'sha vaqtida tish og'irigi qolar ekan. O'ra ota nomiga ekilgan tut daraxti vaqtning o'tishi bilan katta bo'lgan. Aholi yashovchilar sal kasallanib qolsa, bu tut daraxtining qoshiga kelib, yaxshi niyatlar bilan atrofidan aylanib chiqqan va ular shifo topganlar. Shundan keyin barcha odamlar ham tut daraxtiga ziyorat qiladilar. Bu udum hozirgi vaqtgacha davom etib kelmoqda.

Daraxtning magik xususiyati orqali homilador bo'lish, ya'hi daraxtdan farzandli bo'lish dunyo mifologiyasining universal syujetlaridan biri hisoblanadi. Ko'pgina turkiy xalqlarning etnomadaniy arsenalida muqaddaslashtirilgan daraxtlarni quchoqlash orqali o'simlikka xos serhosillik xususiyatining ayolga ko'chishiga asoslangan rituallar mavjuddir. Xususan, yoqlarda befarzand ayol o'rmonga boradi va to'qayzordagi baland o'sgan daraxtlarga murojaat qilib o'ziga pusht so'raydi. Qirg'izlarda esa

bolasi bo'Imagan yoki farzand ko'rsa-da, yoshligida nobud bo'lib ketadigan ayollar olma daraxtining tagida ag'anaydilar. So'ngra qurbanlikka so'yilgan jonivor terisini olma shoxiga osib qo'yadilar.

Qorachoy xalq afsonalaridan birida aytilishi-cha, qadim zamonlarda qattiq jang bo'lib, ko'p odamlar qirilib ketibdi. Shunda erkaklar bilan bavar dashmanga qarshi jangga otlangan ayollar o'z bolalarini o'limdan omon saqlash maqsadida daraxtlarning tagida qoldirib ketibdilar. Oradan ancha vaqt o'tgach, jangdan qaytgan kishilar kelib ko'rishsa, faqat oq qayin tagida qoldirilgan go'dak-largina tirik ekan. Chunki qayin o'z sharbati bilan bolani boqib, o'limdan saqlab qolibdi. Ular oq qayinni mo'tabar daraxt hisoblashadi, shuning uchun ham befarzand qorachoy ayollari tog'da o'sadigan yakka oq qayin yoniga borib o'zlariga surriyod tilaydilar.

Oq qayindan surriyod tilash, umuman, farzandalab ayollarning daraxtlarni tavof qilishi, daraxtni quchoqlashi udumlarining zamirida daraxtning hosildorlik g'oyasi va hayotiy qudrat bilan bog'liqligi, mevali daraxtlarga xos serhosillik xususiyatining ayolga ko'chishiga bo'lgan ishonchlar, muqaddas daraxtlarda yashaydigan ma'budlarga topinish, shuningdek, odamning daraxtdan paydo bo'lganligi (ya'ni "ona-daraxt"dan tug'ilganligi) haqidagi mifologik tasavvurlar yotadi. Chunki dunyo xalqlari mifologiyasida barcha mavjudotni, shu jumladan, o'rmondagi dov-daraxtlarning ham yaratuvchisi hisoblangan "Ona-daraxt" obrazi mavjud. Xususan, nganasan xalqining afsonalarida "ona-daraxt"ning nomi "Xua-nami" deb tilga olingen [11;163].

Xullas, daraxt bilan bog'liq totemistik tasavvurlar dunyo xalqlari mifologiyasining mushtarak elementlaridan biri bo'lib, uning qoldiq ishonuvsilar tarzidagi ayrim jihatlari o'zbek va qoraqalpoq folkloridagi epik qahramonning meva (olma, anor, arpa, makkajo'xori so'tasi kabi) vositasida g'ayrioddiy ravishda tug'ilishi, daraxt ostida tug'ilish, chaqaloqni daraxt (chinor) ustidagi qush uyasida qoldirib ketish, odamning o'simlikka evrilishi natijasida u yoki bu daraxtning paydo bo'lishi singari an'anaviy motivlarning yuzaga kelishiga asos bo'lgan.

Ajdodlarimizning ibridoit tasavvurlarida ilohiy sanalgan o'simliklar to'g'risidagi qarashlar asta sekinlik bilan xalqimiz badiiy tafakkuriga ko'chgan va ibridoit inson ongidagi qadimgi mifologik tasavvurlar izlari obrazlasha borgan.

O'simliklar bilan bog'liq xalq qarashlari va mifologik tasavvurlarning tarixiy asoslari ajdodlarimiz tarixining dastlabki davrlaridagi olamning yaratilishi bilan bog'liq ibridoit e'tiqodiy tasavvurlari bilan bog'liq holda vujudga kelgan. Inson ibtidosi-

ni dastlab o'simlikdan kelib chiqishiga ishongan odamlar keyinchalik inson vafot etgach, uning ruhi o'simliklarga ko'chishiga ishonishgan. Shu tariqa odamlarning o'simlik kulti bilan bog'liq mifologik tasavvurlari ijtimoiy hayotida, marosim va irimlarda bo'y ko'rsatadi, keyinchalik og'zaki poetik asarlarining maydonga kelishi bilan badiiy tafakkurda o'z ifodasini topa boshlaydi. Folklor asarlaridagi qahramonning daraxt ichiga kirib ketishi, daraxtga aylanishi, daraxt tagida sehrli vogelarning sodir bo'lishi, meva yeb xomilador bo'lishi, o'simlikka tanasidagi yovuz kuchlarni, dardlarni o'tkazib yuborish singari epik motivlar shakllangan.

Umuman organizmizda, o'simliklar bilan bog'liq mifologik qarashlarning badiiy tafakkurga ko'chishi natijasida poetik mifologema vazifasini bajarishi hodisasi maydonga kelgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Musaqulov A. O'zbek xalq lirikasi. – Toshkent: Fan, 1995. – B.68.
2. Уляшев О.И. Представления о природе. Промысловые культуры // История Республики Коми. – М.: Дрофа, ДиК, 1998. – С.105-107; Шарапов В.Э. Мужское/женское в дендрарной символике обрядов и поверий у коми) // ХВИИ Ломоносовские международные чтения. Выпуск 2: Поморские чтения по семиотике культуры. Сб. научных докладов и статей. – Архангельск: Поморский государственный университет, 2006. – С.192-200.
- 3.Андреев М.С. Таджики долины Хуф (вер-

ховья Аму-Дарьи). Вып.И. Сталинабад, 1953.

4.Устоев Ш.У. Розосветные деревья в обрядах населения горных районов Сурхандарьинской области // Труды Байсунской научной экспедиции. Вып.3. Археология, история, этнография. – Ташкент: Санъат, 2007.

5. Литвинский Б.А. Семантика древних верований и обрядов памирцев (1) //Средняя Азия и ее соседи в древности и средневекове. – М.: Наука, 1981.

6.Шербак А.М. Огуз-наме. Мухаббат-наме. – М.: Издательство Восточной литературы, 1959.

7.Есюков В.В. Мифология китайского неполита. История и культура Востока Азии. – Новосибирск: Наука, 1988.

8. Jo'rayev M. Boxoro etnofolkloristikasi haqidada.

9.Маремшаева И.И. Эволюция этнического сознания карачаево-балкарского народа: Дисс. докт. исткор. наук. – Махачкала, 2002.

10. Мирхасилов С. К изучению реликтов доисламских верований у узбеков в дореволюционном прошлом // Этнографическое изучение быта и культуры узбеков. – Ташкент, Фан, 1972.

11.Абрамзон С.М. Предметы культа казахов, киргизов и каракалпаков Материальная культура и хозяйство народов Караказа, Средней Азии и Казахстана. – Л.: Наука, 1978.

12.Грачева Г.Н. Культовый комплект нганасан// Материальная культура и мифология. – Л.: Наука, 1981.



# XORAZM MAROSIM FOLKLORINING AREAL XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qadimgi kultlar bilan aloqador marosim qo'shiqlaridagi ramzlarning o'ziga xos xususiyatlari xususida so'z boradi. Shuningdek, marosimlarda ijro etiladigan qo'shiqlarning barchasi irim – inonchilar ta'sirida yuzaga kelgan bo'lib, ularda tabiat olamining barcha ko'rinishlari o'z ifodasini topgan.

**Kalit so'zlar:** O'zbek xalq qo'shiqlari, marosim qo'shiqlari, qadimgi kultlar, mifologik tasavvur, hosildorlik kulti, zardushtiylik dini.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются особенности символов ритуалов, связанных с древними культурами. Кроме того, на все песни, исполняемые на церемониях, влияют непримиримые убеждения, и в них отражаются все формы мира природы.

**Ключевые слова:** Узбекские народные песни, обрядовые песни, древние культуры, мифологическое воображение, культ плодородия, зороастрийская религия.

**Annotation:** This article discusses the features of the symbols of rituals associated with ancient cults. In addition, all songs performed at ceremonies are influenced by irreconcilable beliefs and reflect all forms of the natural world.

**Key words:** Uzbek folk songs, ritual songs, ancient cults, mythological imagination, fertility cult, Zoroastrian religion.

stiqlol yillarida milliy – ma'naviy merosga bo'lган e'tibor natijasi o'larоq yurtimizda mazkur jahbada salmoqli ishlар amalga oshirildi. Xususan, asriy qadriyatlar negizida qaror topgan boy musiqa merosimizning o'tmish taqdirini idroklash, tarixini chuqur va xolis o'rganish masalalari yangi bosqichga ko'tarildi. Qolaversa, bugungi kunda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev barcha soha va tarmoqlar qatori madaniyat va san'at, adabiyot, ommaviy axborot vositalari rivojiga katta e'tibor qaratayotganliklari tahsinga loyiq. Ayniqsa, keyingi paytda bu soha ravnaqini yangi bosqichga ko'tarish bo'yicha ulkan ishlар amalga oshirilmoqda. Xalqimizning ko'p asrlik ma'naviy merosi sifatida vujudga kelgan marosimlar uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tib, xalq hayotining ajralmas qismiga aylanib ulgurdi.

Marosim folklori namunalari folkloarning eng qadimiylanjarlari sirasiga kiradi. Marosim folklori bo'lmish oilaviy-maishiy marosimlar o'zida milliy qadriyat va urf-odatlarni mujassamlashtirgani bilan ahamiyatlidir. Marosim folklori va uning ikki qismi – mavsumiy marosim va oilaviy marosimlar folklori har bir xalqning o'zligini namoyon etuvchi tayanch manba hisoblanadi. O'zbek xalqining mavsumiy va oilaviy marosimlari tizimi hamda folklorida uning olamni anglash, unda insonning o'rni va vazifasini belgilash bilan bog'liq dunyoqarashlari aks etgan. Xalqning barcha hayotiy tajribalari, bilim va xulosalari avvalo ana shu mavsumiy, oilaviy marosimlar tizimi va unda kuylanuvchi folklor namunalarida mujassam top-



Nasiba SOBIROVA,  
Filologiya fanlari  
doktori  
(DSc), dotsent,  
Xorazm  
viloyati XTXQTMOHM  
“Tillarni o'qitish meto-  
dikasi”  
kafedrasi mudiri



gan. O'zbek marosim folklori o'tgan asrning 30-yil-lariga qadar deyarli tadqiq etilmay kelingan. O'zbek xalq marosim folklori namunalarini o'rgangan, nashr etgan, tadqiq qilgan bir qator olimlar M.Alaviya, B.Sarimsoqov, M.Jo'raev, A.Musaqulov, D.O'raeva, O.Sobirov, O.Safarov, Sh.Turdimov, L.Xudoqulova,S.Davlatov, O.Ismanova, G.Mardonovalarning ilmiy-nazariy qarashlari alohida ahamiyatga ega. Xalqimizning xilma-xil urf-odat va rasm-rusumlardan beshik to'yi va nikoh to'yi marosimlari V.N.Basilov, H.Ismoilov, A.Ashirov, M.Sattorov, G.Tosheva kabi olimlar tomonidan etnografik jihatdan o'rganilgan. Marosim folklori janrlarning to'planishi va o'rganishida folklorshunos olima Muzayyana Alaviya xizmatlari kattadir. Muzayyana Alaviya Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm, Samarqand, Buxoro, Andijon, Farg'ona, Toshkent viloyatlarida folklor ekspeditsiyalarida bo'lib, xalq qo'shiqlari, afsona, rivoyat, ertaklarni to'plagan[1].

O'zbek xalq qo'shiqlarining salmoqdar bir qismi marosimlar bilan uzviy bog'lanib ketadi. Marosimlar, irimlar, hosildorlik inonchlari, animistik, totemistik qarashlar, shomonlik magiyalari negizida esa mifologik tasavvurlar yotadi. Shunday ekan, mif va marosimni bitta hodisaning nazariy va amaliy aspekti deb qarashga to'g'ri keladi. Ibtidoi ma'naviy madaniyat yadrosini bir – biri bilan o'zaro chambarchas bog'langan mif va marosimlar tashkil etadi [2]. Marosim inson hayotida muhim hodisalar so-dir bo'lganida vujudga keladi va kishilar hayotidagi eng muhim voqealarni (masalan, tug'ilish, uylanish, o'lim) qayd etadi, rasmiylashtiradi. O'zbek oilalari-da yosh oilalarni tarbiyalash uchun o'ziga xos ma'naviy "zina" sifatida xizmat etadigan, chaqaloq tug'ilgandan, to ulg'ayib, yangi oila qurgungacha bo'lgan hayotiy muhim voqealarni qayd qiladigan marosimlar tizimi ("Chaqaloq dunyoga kelishi", "Ism berish", "Chaqaloq chill'a", "Beshik to'y", "Socho'to'y", "Tishto'y", Birinchi qadam", "Sunnatto'y", "Muchalyosh", "Nikohto'y" kabilar) vujudga kelgan. Ushbu fikrlardan kelib chiqqan holda marosim qo'shiqlari tarkibidagi ramziy ifodalarni ham mifologik dunyo-qarashdan ajratgan holda tekshirib bo'lmaydi. Marosimlarda ijro etiladigan qo'shiqlarning barchasi turli irim – inonchlari ta'sirida yuzaga kelgan bo'lib, ular-da tabiat olamining barcha ko'rinishlari o'z ifodasini topgan. Shu boisdan ham "An'anaviy xalq qo'shiqlarining tashqi ma'nosи bilan bir qatorda tinglovchi bir-daniga ilg'ab ola olmaydigan, xalqning tarixiy dunyoqarashi, marosimlari, irimlari bilan bog'liq siyrat ma'nolari ham bor. Ma'lum darajada mifologik tafakkur bilan bog'liq bo'lgan bu ichki ma'no etno – folkloristik tadqiqotlar olib borish zaruratini tug'diradi"[3]. Xalq qo'shiqlaridagi "siyrat ma'nolari"ning negizida esa asosan ramziy ifodalar yotadi. Biz ularni quyida turlarga ajratgan holda ko'rib chiqamiz.

### Tabiat olami bilan aloqador ramzlar

Tabiat olami juda keng qamrovga ega. Inson tabiat olamida yashar ekan, o'zini uning ajralmas bir bo'lagi sifatida tasavvur qilib kelgan. Tabiatdagi o'simliklar, hayvonot, qushlar olami bilan munosabat-ga kirishgan. Osmon jismalarini o'zicha tasavvur qilib, ularga baho bergan. Natijada tabiat hodisalari bilan bog'liq ko'plab ramziy ifodalar yuzaga kelgan. Bularni tubandagicha guruhlash mumkin:

A) O'simlik dunyosi bilan aloqador ramzlar. Ibtidoi insonning hayoti o'simliklar dunyosi bilan uzviy bog'langan. O'simlik inonchlari bilan aloqador qoldiq e'tiqodlar ko'p va rang-barangdir. "Ibtidoi hayot ke-chirayotgan inson uchun o'simlik olami universal vazifalarni bajargan. O'simliklar insonlarga boshpana uchun quriladigan uyga ashyo sifatida xizmat qilishdan tashqari, ulardan oziq – ovqat, kiyim, qurol, ulov, dori – darmonlar ham olingan[4]. Bu esa insonlarning o'simliklarga bo'lgan e'tiqodini yanada oshirgan, ularga nisbatan kishilarda inonchlар paydo bo'la boshlagan. Mifologik tafakkurda inson, o'simlik, umuman tabiat yaxlit tarzda idrok etilgan. Shu sababdan bo'lsa kerak insonlarni o'simliklardan paydo bo'lishi yoki aksincha holat qonuniy deb tushuniladi[5]. Jeyms Frezerner ko'rsatishicha, o'simliklar xudosi Attis daraxtdan paydo bo'lib, keyin inson qiyofasiga kirgan. Uning onasi Nana qizlik paytida ko'kragiga bodom va anor qo'yib, ularning ta'sirida Attisga homilador bo'lgan[6]. Kishilik jamiyatining ilk davrlarida o'simliklar dunyosining katta o'ren tutganligiga shuba qilmasa ham bo'ladi. Daraxtlar insonni meva bilan ta'minladi, ular hayotida inqilob yasagan olov ham daraxtlar vositasida yuzaga chiqdi, daraxt insonga birinchi qurolni taqdim qildi. Daraxt va o'simlik dunyosi bilan aloqador ko'plab mavhum va sirli hodisalar insonni sehrli olamga yetakladi. Daraxt – totem, inson uni o'ziga ajdod deb hisoblaydi, daraxt-fetish, daraxt – ruh va jon maskani, pirovardida ma'budiylilik alomati. Bularning hammasi dunyo mamlakatlari folklorshunosligida o'z ifodasini topgan. Xorazm marosim folklori ham bundan chetda qolgan emas. O'simlik dunyosini ilohiyashtirish qoldiqlari bu yerda uzoq davrlar saqlanib qolgan. Shuningdek, boshqa joylardagi kabi Xorazmda ham ko'plab "muqaddas" daraxtlar bo'lib, ularga dindorlar tomonidan latta-puttalar ilib tashlangan. Bunday daraxtlar asosan, qabristonlarda bo'lib, bu maskanda barcha o'simliklar tabulashtirilgan. Ularni kesish, sindirish ta'qiqlangan. O'simliklar inonchini belgilaydigan asosiy bosh g'oya turli variantlarda namoyon bo'lsa-da, ular to'laligicha animistik tasavvurlarga borib taqaladiki, daraxtlar ruh va jonnini saqlaydigan maskandir. Demak, daraxt mevasi farzand ramziga egadir. Bunday lavha Xorazm dostonlarida ham uchraydi. "Oshiq Mahmud" dostonida Ganjaboy degan befarzand kishi xudodan farzand tilab yurganda, bir kuni tushida uning qo'liga bitta qizil

olma beradilar. Shundan sal o'tmay o'g'il farzandga ega bo'ladi va ismini Mahmudjon qo'yadi[7]. Xorazmda daraxtlarga nisbatan inson sifatida murojaat qilish hollari hozirgacha uchraydi. Masalan, ikki-uch yilda meva bermagan daraxtri "Erkak novdadani" ekan, deb unga "urg'ochi novda"ni payvand qilishadi. Shu va shunga o'xshash qator omillar daraxtlarga bo'lgan inonch – e'tiqodlar asosida qator ramziy ifodalarning paydo bo'lishiga olib kelgan. Poetik simvollarga xos asosiy xususiyatlardan biri ularning milliy-maishiy va mintaqaviy xarakterga ega ekanligidir[8]. Shu jihatdan olganda Xorazmda yaratilgan qo'shiqlarda ham o'sha xususiyatlar ko'zga tashlanadi. Masalan, Xorazmda tolning oq va qora turlari o'sib, ular oq so'veit, qora so'veit deb nomlanadi. Qora so'veit magik xarakter kasb etib, davolash, poklash ramziga ega:

Sarhovuz bo'yłari qora tol ekan,  
Kirganda chiqqanda lolazor ekan.

(Xorazm xalq., 195-bet)

So'veitni soyasi, suvni qirog'i,  
Yigitning yolg'izi, ko'zni chirog'i.

(Xorazm xalq., 115-bet)

Qora tol novdasini suvga ezib cho'milish, quyosh urishidan aziyat chekkan bemorlarni sog'lom holiga keltiradi. Uning soyasida yotish ham davolanishing yana bir ko'rinishidir. She'riy misralarda so'veit soyasiga urg'u berilishi ham bejiz emas. Chunki so'veit soyasidagi yigit tushunchasi zamirida sevgi masalasi yotadi. Suv bo'yidagi daraxt tilga olinganda so'veit nomining qayd qilinishi uning magik xususiyatga ega ekanligi bilan bog'liq. Qolaversa tol ham sevgi ramzidir[9]. A.Musaqulov turkiy xalqlarda terak kulti ham mavjud bo'lganligini qayd qiladi[10]. Qo'shiqlarda terak bilan aloqador ramziy ifodalar ko'p uchraydi:

U ko'ringan terakmikan, tolmikan,  
Soyasida yotgan sevar yormakan.  
Soyasida yotgan bizning yor bo'lsa  
O'ynab kulib yurar kunlar bormikan?

(Xorazm xalq., 43-bet)

Xorazmda yaratilgan qo'shiqlarda gujum, qoromon, jiyya, ilishtirik kabi ko'plab daraxt nomlari uchraydi. Ularning ayrimlari poetik ramz darajasiga ko'tarilgan. Qo'shiqlar tarkibiga istagan bir daraxt kiritilavermaydi. Ularda qayd qilinadigan daraxtlar o'zining birorta magik xususiyati orqali xalq idrokidan joy olgan bo'lishi zarur. Masalan, gujum haqida. Uning niholini yoshi oltmishdan oshgan kishi ekishi lozim. Chunki gujum, meni ekkan kishi olamdan o'tgandan keyin soya beraman, der ekan. Gujumni kesish ta'qiqlanadi. Bu daraxt uni ekkan kishi vafotidan keyin tez o'sib rivojlanadi[11]. Gujum g'uj va chiroyli bo'lib, cho'girma shaklida o'sganligi uchun u oila va serfarzandlik ramzi sifatida e'zozlanib, eshik oldiga,

iloji bo'lsa hovuz bo'yiga ekiladi. Qo'shiqlarda gujum daraxtiga murojaat qilish tez – tez uchrab turadi:

Azon bilan chiqdim gujum tagina,  
Qora bola kirib ketdi uyina.  
(Xorazm xalq., 185-bet)

Gujumni tagida yonadi fonus,  
Man boraman balli joyda tursangiz.  
(Xorazm xalq., 187-bet)

Ba'zi qo'shiqlarda gujumnnig ikkinchi navi hisoblangan "Narvon" so'zi ishlatalidi:

Orqamni beribman beyik narvona,  
Salom xat berayin Toshkent borg'ona.  
(Xorazm xalq., 210-bet)

Sizni ayvon, bizni ayvon emasmi,  
O'rtasinda chini narvon emasmi. (Ojiza, 30-bet)

Misralarga e'tibor berilsa, ularning barchasida gujum – narvon daraxti haqida so'z ketar ekan, al-batta unda ikki sevishgan qalbning dil tug'yonlari aks etganini ilg'ab olish qiyin emas. Bundan ma'lum bo'ladiki, gujum sevgi, farzand oila ramzi va umuman hisoldorlik kultlari bilan bog'lanib ketadi.

B) Suv bilan aloqador ramziy ifodalar.

Hosildorlik inonchlari orasida suv kulti juda keng tarqalgan bo'lib, Zardushtiylik dinida olov, suv, yer va havo Axura Mazda tomonidan yaratilgan[12;33]. Elshunos G.P.Snesarevning yozishicha, muqaddas suv tushunchasi Markaziy Osiyo xalqlarida ilk bor ilohiyashtirilgan yer g'oyasidan ham ustun turadi[11;193]. Qadimda erta bahorda Amudaryo suvini kanallarga yuborish paytida, ilk oqqan suvga mirobni tashlaganlar[11;238]. Bu holat qadim davrlarda suvga sig'inib, unga qurbanlik qilish udumining ramziy ifodasidir. Darhaqiqat o'tmishda Amudaryoga bag'ishlab marosimlar o'tkazish, qurbanlik qilish odat tusiga kirib qolgan. "Avesto"ning "Vedevdot" va "Yasht" kitoblari da Amudaryoga bagishlab ko'plab rivoyatlar keltirilgan. Ularda Ardvissura – Anaxita Amudaryoning eng e'zozli ma'budasasi sifatida tasvirlanadi[12;77-78]. Suv poklanish ramzi hisoblanadi. Nikohdan oldin kelinni cho'miltirish odati ham ritual hodisa bo'lib, nikohga ishoradir. Yoki bolani 7, 20, 40-kunlarda suvga tanga tashlab, cho'miltirish odati ham Xorazmda hozirgacha saqlangan bo'lib, ushbu ritual ham suvning muqaddasligiga ishoradir. Tanga esa bolaning kelgusida boy-badavlat bo'lishiga ishonch ramzidir. Suvning qo'shiqlarda hovuz, daryo, yop, chashma kabi atributlari juda ko'p ishlataladi.

Hovuz bo'yida chakar,  
Yorimning labi shakar. (Xorazm xalq., 129-bet)  
Ulli yopdan oqqan piyolamakan,  
Bizning yor kelmaka uyalarmakan.  
(Xorazm xalq., 149-bet)

Yil fasllari ibtidoiy inson hayotida katta rol o'yagan. Fasllarning har biri o'z xarakteriga ko'ra insonlar uchun ramz darajasiga ko'tarilgan. Xalq qo'shiqlarida bahor, yoz fasllari hamisha sevgi, yasharish, gul-lab-yashnash kabi tushunchalarni tashiydi. Bu xususiyat boshqa xalqlar, xususan, rus folklorida ham uchraydi. Ruslardagi marosim qo'shiqlarida qishni haydash, bahorni chaqirish bilan aloqador maxsus qo'shiqlarning mavjudligi ayrim tadqiqotlarda qayd qilingan. Shu narsani ta'kidlash joizki, qo'shiqlarda qish – zimiston, bahor – sevgi, yasharish, kuz – xazonrezgilik, yoz gullab-yashnash kabi tushunchalarni ifodalaydigan ramz darajasiga ko'tarilgan. Shu sababli qo'shiq misralarida hamisha qish bahor va yozga qarama – qarshi qo'yildi:

Sori sadaf bir – birina soz etar,  
 Sori bola chelda turib noz etar,  
 Sori bola chelda turib noz etsa,  
 Uyga kelib qish ko'nglimni yoz etar.  
 (Xorazm xalq., 158-bet)  
 Qish o'tib bahor kelar,  
 Dilga yaqin yor kelar,  
 Omon bo'lsang ko'rarsan,  
 Quchog'i gulzor kelar. (Xorazm xalq., 215-bet)

Ko'ngilning qishligi kayfiyat tushkunligi ramzi. Bahor esa shodlik baxtdan nishona. Qishning ketishi, bahorning kirib kelishi sevgi – muhabbatdan darak beruvchi visolni eslatuvchi ramziy ifodadir. Kuz bilan aloqador qo'shiqlarda esa asosan sarg'ayish, sariq rangga murojaat qilish hollari uchraydiki bu holat hijron va ayriliq kabi ramziy ifodalarga ishora sifatida beriladi. Umuman, xulosa o'rnida shuni aytish mum-kinki, ibtidoiy e'tiqodlarning ayrim elementlari, masalan, animistik tasavvurlar Xorazm marosimlarida turli davriy ko'rinishda namoyon bo'ladi. Shuningdek,

marosimlarda sehr-jodu yetakchi o'rinni egallaydi. Xorazmda uning turli ko'rinishlari va xususiyatlari duch kelish mumkin. Uning asosiy qismini sehr-jodu tashkil qiladi. Ayniqsa, befarzand ayollarning sehrli usullarini va hosildorlik inonchlaring to'ylardagi marosimlarini misol qilishimiz mumkin.

### Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jo'raev. M. O'zbek folklor san'ati va folklor-shunosligi tarixi // "O'zbek milliy folklor san'ati va etnomadaniy qadriyatlar" O'quv qo'llanma. Mas'ul muh: Yo'dosheva. S.N. – Toshkent; Navro'z– 2014. B -8
2. Мелетинский Е.М. Введение в историческую поэтику эпоса романа , – М.: Наука ,1986, С.14.
3. Musaqlarov A. O'zbek xalq lirikasining tarixiy asoslari va badiiyati, DDA., 3-bet.
4. Курочкин А.В. Распространение символики календарной обрядности украинцев. // Обряды и обрядовый фольклор, с.141.
5. Еремика В.И. Миф и народная песня.// Миф, фольклор и литература ,С.6-7.
6. Фрезер Дж. Золотая ветвь, – М.: ИПЛ., 1968, С.327.
7. Oshiq Mahmud, // Anash xalfa, – Т.: Milliy kutubxona nashriyoti, 2006, 60-bet.
8. Лазутин С.Г. Поэтика русского фольклора, – М.: ВШ., 1981, С.113.
9. Турдимов Ш. Поэтические символы, АҚД., С.10.
10. Musaqlarov Sh. O'zbek xalq qo'shiqlarining tarixiy asoslari ,30-bet.
11. Снесарев Г.П. Реликты до мусульманских верований.
12. Bobojonov X., Sotliqov A. "Avesto" – bebaho madaniy meros, Xiva, 2000.



UDK: 32.01.303.377:37(01)

# TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING IJTIMOY MEXANIZMLARI

**Annotatsiya:** Maqolada ta'limgagi innovatsion texnologiyalarini joriy etish, innovatsion texnologiyalardan foydalanish, innovatsion faoliyat va innovatsion ta'limgagi texnologiyalari haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** innovatsiya, innovatsion faoliyat, innovatsion ta'limgagi texnologiyalari, ilmiy-innovatsion ishlamalar

**Аннотация:** В статье представлена информация о внедрении инновационных технологий в образование, использовании инновационных технологий и инновационных образовательных технологий, перспективных для нашей системы образования.

**Ключевые слова:** инновации, инновационная деятельность, инновационные образовательные технологии, коммерциализация научных и инновационных разработок.

**Annotation:** The article provides information on the implementation of innovative technologies in education, the use of innovative technologies and innovative educational technologies that are prospects

**Key words:** innovations, innovative activity, innovative educational technologies, commercialization of scientific and innovative developments.

**O**zbekistonda ta'limga sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning negizida har tomonlama yetuk kadrlarni tayyorlash masalasi muhim sanaladi. Bu jarayonda falsafiy fanlar o'ziga xos milliy tafakkur taraqqiyotini belgilovchi jihatlarni ifodalaydi. Ta'limga samaradorligiga erishish, yoshlarning malakali kadrlar bo'lib yetishilari uchun barcha zarur resurslar bilan ta'minlash, jamiyatning ma'nnaviy ehtiyojini qondirish, moddiy imkoniyatlarini kengaytirish muhim sanaladi. Davlat tomonidan ta'limga hamma sohalarini rivojlantirishga berilayotgan e'tibor natijasida hukumatimiz tomonidan ajratilayotgan resurslar bosh asos bo'limoqda. Davlatimiz bu borada ta'limga sifat nazoratiga alohida e'tibor qaratmoqda. "Albatta, yoshlarimizning bilim olishlari uchun barcha sharoitlarni yaratish, o'quv binolarini qurish, ularni zamonaviy jihozlash mumkin. Lekin farzandlarimizga yuksak mezonlar asosida ta'limga beradigan, yangicha, innovatsion fikrlaydigan muallim va o'qituvchilarni tayyorlash – bu eng og'ir vazifa bo'lib, juda katta mehnat va mas'uliyat talab etadi"[1;366].

Yurtimizda ta'limga innovatsion yondashuv natijasida ilm-fan bozorini kengaytirishga asosiy e'tibor berilmoqda. Ilm-fan xizmatlari bozorida falsafiy fanlarga munosabatni takomillashtirish va uning yo'nalishlarini belgilashda quyidagi holatlarni inobatga olish zarur:

– ta'limga fan tizimining, shu jumladan falsafiy fanlardagi xizmatlar bozorining rivojlanishi mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga bog'liq va u to'g'ri proporsional tavsifga egaligini;



Farida  
ESHNAZAROVA,  
Samarqand davlat  
universiteti  
mustaqil tadqiqotchisi



– yangi O'zbekistonda falsafiy ta'lif rivojini jahon standartlari darajasiga olib chiqish, hududga xos milliy ta'lifni yaratish va sohaning samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Jamiyatda falsafiy fanlar oliy o'quv yurtlarida o'qitilayotgan talabalarda yangilikka, faoliikka, kashfiyotga, mantiqiy fikrlashga moyillik qobiliyatini shakllantirib, ijtimoiy fanlar taraqqiyotiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ta'lifda innovatsion texnologiyalarni rivojlantirishda ilmiy g'oyalalar va texnologiyalar yaratadigan yosh iqtidorlarni o'sib borayotgan aqliy ehtiyojlarini qondirish va tayyorlangan mutaxassislarning yuqori harakatchanligini ta'minlanishi lozim. Shuningdek, ta'lifda talabalarda kasbiy tafakkur va chuqur innovatsion dunyoqarashga ega bo'lishida ta'lif jarayonida o'qitishning sifat ko'rsatkichlari muhim o'rinni tutadi.

Ta'lif muassasalarida falsafiy fanlar asosida ta'lif sifatini oshirish quyidagi ijtimoiy mexanizmlarga e'tibor berish lozim:

– ilmiy va innovatsion axborot mahsulotlarini ishlab chiqish;

– yuqori malakali jamiyatshunos mutaxassislarning tayyorlashning zamonaviy usullarini joriy etish asosida innovatsion g'oyalarni ishlab chiqish;

– falsafiy fanlar tizimi orqali ta'lif sifati va uzlusizligini ta'minlash;

– falsafiy fanlar sohasida pedagogik kadrlarni kasbiy darajasi va malakasini doimiy ravishda oshirib borish;

– yangi texnologiyalardan foydalanish asosida o'quv jarayonini uzlusiz takomillashtirib borish [2;233].

Barchamizga ma'lumki, jamiyatda falsafiy fanlar insonning intellektual salohiyati bosqichma-bosqich tarzda rivojlanishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda yurtimizda mazkur masalani hal etish borasida jamiyatda muhim shart-sharoitlar yaratilmoqda, insonning har tomonlama salohiyati va ehtiyojini ro'yogha chiqarish uchun falsafiy tafakkur masalasiga ham e'tibor qaratilmoqda. Mazkur maqsadlarni amalga oshirilishi borasida mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoev shunday degan edi: "Agar biz ta'lif-tarbiya, madaniyat va ma'naviyat sohasidagi ishlarimizni aniq tizim asosida tashkil etib, ularning samaradorligini oshirmasak, ertangi kunimizni qurilmaymiz, o'z maqsadlarimizga yetolmaymiz. Bu bora-da "Bir bolaga yetti mahalla ham ota, ham ona" degan shior doimiy kun tartibida turishi lozim. Biz yoshlarimizni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash uchun bor kuch va imkoniyatlarmizni safarbar etishimiz zarur. Bunday g'oyat muhim vazifani amalga oshirishda biz avvalo ko'pni ko'rgan kayvonni onaxonlarimizga, mahalla faollariga, muhtaram faxriylarimizga, siz, aziz opa-singillarimizning aql-zakovatingiz, bilim va tajribangizga tayanamiz" [3; 349-

350]. Ta'lifda falsafiy fanlarni rivojlantirish orqali innovatsion texnologiyalarni joriy etish va rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri bu ta'lif tizimini tubdan isloh qilishda moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, uning zamonaviy usullarini tatbiq etishdan iborat. Ta'lif tizimida davlat byudjeti mablag'lardan samarali foydalanish, byudjetdan tashqari mablag'larni ishlab topish mexanizmlarini takomillashtirish bilan bir qatorda, unga xususiy va korporativ mablag'larni investitsiyalash mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda ta'lif sohasida keyingi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk va mustaqil falsafiy mushohada yuritishga o'rgatishdan iboratdir. Mana shu jarayonda ta'lifning barcha bo'g'inlariga kirib kelayotgan innovatsion texnologiyalarning mohiyatini chuqur anglab yetish, har bir innovatsiyaga nisbatan ta'lif oluvchida erkin ijodiy tafakkurni shakllantirish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Bugun bizdan talab etilayotgan ta'lif bevosita ilm-fanga asoslanishi, unda ijtimoiy muhit uchun xizmat qiladigan ishlab chiqarishning aks etishi muhim ahamiyat kasb etadi. Biz ta'limga innovatsion texnologiyalarni olib kirayotgan ekanmiz, avvalo ularning inson va uning manfaatlari uchun qanchalik dolzarbligi, jamiyat bilan qanday integratsiyalashganga e'tibor berishimiz lozim.

Jamiyatda ta'lifning uzlusizligini ta'minlash asnosida yoshlarmizda teran falsafiy tafakkur, ilmiy mushohadaga chorlovchi innovatsion g'oyalarning shakllanishiga shart-sharoitlarni yaratib berishimiz kerak. Buning uchun uzlusiz ta'lif tizimidagi o'zaro aloqadorlikni shakllantirish, barcha sohalardagi singari ta'lif tizimining ham amaliy ahamiyat kasb etish jarayonlariga e'tibor qaratishimiz lozim. Bu borada yurtimizda ta'lif sohasida amalga oshirilayotgan innovatsiyalarning kundan-kunga dolzarblashib borayotganligini ko'rishimiz mumkin. Ta'limga bunday tubdan yangilanayotgan o'zgarishlarda falsafiy fanlarning ham alohida o'rni borligini unutmasligimiz darkor. Tabiiy va aniq fanlar jamiyatdagи ishlab chiqarishga innovatsiyalarning ko'proq olib kiradigan bo'lsa, falsafiy fanlar jamiyatni boshqarishda, insonning ongli ravishda ma'naviy taraqqiyot darajasiga xizmat qiladi. Shuning uchun ham innovatsion texnologiyalarning ta'lif tizimidagi o'rnini ko'rsatib berishda ham falsafiy mushohadaga tayanish, ijtimoiy muhit uchun yaratilayotgan yangiliklarning qay darajada xizmat qilishi masalalarini ham chuqurroq anglash lozim.

Jamiyatda ta'lifning markazida inson va uning kelajagi turishini anglab yetar ekanmiz, biz undan samarali foydalanish yo'llarini izlab topishimiz, ta'lifning barcha bo'g'inlarida innovatsion texnologiyalarni maqsadli jamiyatga yo'naltirishimiz darkor. Ta'lif jarayonining barcha ishtirokchilari bir maqsad sari birla-

shishi, tizimda yuksak marralar sari intilishi, ta'limning uzuksizligiga erishish uchun mehnat qilishlari lozim. Ta'limda yuz berayotgan innovatsion yondashuvlar, milliy qadriyatlarga munosabatlar va samaradorlikka erishish yo'llari zamonaviylikni taqozo etmoqda.

Jamiyatda yuksak ilmiy va falsafiy tafakkur asosida fan va texnologiyalar rivojini ta'minlash, yuqori intellektual qobiliyatga ega bo'lgan ilmiy mutaxassislarни yetishtirish zamon talabidir. Ilmiy va innovatsion jarayonlarni rivojlantirishda falsafiy bilimlar muhim rol o'ynaydi. Falsafiy bilimlar jamiyat taraqqiyotida o'ziga xos ko'priq rolini bajaradi, u ilmiy jarayon, ishlab chiqarish va ma'naviyat, mafkura tizimini bir-biri bilan bog'laydi.

Innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish jarayoni innovatsion faoliyat bilan bog'liq. Innovatsion faoliyat quyidagilarni o'z ichiga oladi.

Ilmiy-tadqiqot faoliyati yangi bilimlar olishga qaratilgan ilmiy yangiliklar, kashfiyotlarni qamrab oladi. Bu kashfiyotlarni amaliyatga tadbiq qilish jarayoni innovatsion faoliyat bilan bog'liq hisoblanadi. Loyihalarga asoslangan faoliyat bu instrumental-texnik bilimlarni olishga qaratilgan bo'lib, innovatsion loyihani shakllantirishga xizmat qiladi. Bu orqali ham provardida ta'lim jarayoniga qandaydir innovatsion loyiha singdiriladi.

Ta'limda innovatsion loyihani amaliyatga qo'llash uchun ma'lum sub'ektga amaliy ko'nikmalarini shakllantirish uchun bilimlarini oshirish bilan bog'liq faoliyat hisoblanadi. Innovatsion ta'lim bu rivojlangan yoki rivojlanayotgan ta'lim hisoblanib, ta'lim oluvchi uchun o'z-o'zini rivojlantirish imkonini beradi. Innovatsion texnologiyalar o'zi uchta bir-biri bilan bog'liq komponentlardan tashkil topadi. Bular: tahsil oluvchi ma'lum bir sohaga taalluqli bilimlarni nafaqat o'zlashtirishi balki, uni amaliyatga qo'llay olishi ham kerak. Bu zamonaviy ta'lim tizimida multimediali o'quv materiallari va o'quv laborotoriyalari yordamida amalga oshiriladi va modernistik informatsion tizimlar orqali yetkaziladi.

Ta'limning zamonaviy usullari – kompetentsiyani shakllantiradigan faol metodlar. Bunda talaba materialni passiv qabul qilmasdan, o'zi ham shu jarayonni faol ishtirokchisiga aylanadi. Masalan, o'qituvchi interfaol usullardan foydalanimuammoli ma'ruza o'qishi mumkin. Bunda endi talaba faqat eshituvchi yoki qabul qiluvchi emas, balki jarayonni faol ishtirokchisi ya'ni savollarga javob bergen, qo'yilgan masalaga o'z yechimini bergen holda ishtirot etadi. Provardida avvalo talaba darsda zerikmaydi. Bundan tashqari, mavzuni amaliyat bilan bog'lab anglash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Zamonaviy ta'lim tizimi o'zida informatsion, texnologik, tashkiliy va kommunikatsion tizimlarni birlashtirgan masofali ta'lim tizimi bilan ham chambarchas bog'liq bo'ladi. Bugungi ta'lim tizimida foydalanayotgan innovatsion texnologiyalar quyidagilardan iborat:

1. *Informatsion-kommunikatsion texnologiyalarni ta'lim olish jarayoniga singdirish.*

2. *Predmetni o'qitishda shaxs ustuvorligiga yo'naltirilgan texnologiyalar.*

3. *O'quv jarayoni va boshqaruvni jarayonini axborot-tahlili monitoringi.*

4. *Intellektual rivojlanish monitoringi.*

5. *Tarbiya texnologiyalari zamonaviy kadr tayyorlashda tarbiya texnologiyalaridan foydalanish.*

6. *Didaktik texnologiyalar.*

7. *Zamonaviy standartlarni ta'lim jarayoniga kiritib borish.*

8. *Zamonaviy baholash normalarini kiritish.*

Innovatsion texnologiyalarni joriy qilishda ta'lim muassasasining innovatsion potentsiali ham muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion potentsial ta'lim maskanining quyidagi pozitsiyalar tahlili orqali aniqlanadi.

1. Innovatsiyalarni ta'lim muassasalarini o'zgaruvchan ta'lim ehtiyojlari va ijtimoiy buyurtmaga yo'naltirilganligi. Bunda:

- talabalarning ta'lim natijalarini baholashning maqsadlari, mazmuni, tashkil etish texnologiyasi, yondashuvlarini o'zgartirish;

- o'qitish, o'rganish va baholashning integratsiyasi; o'quv-bilish faoliyatining turli xil mahsulotlarini tahlil qilish orqali talabaning qobiliyatlarini miqdoriy va sifat jihatidan baholashni birlashtirish;

- muhim pedagogik muammolarni hal qilish; ruhiy-ma'naviy jihatdan qulay ta'lim muhitini yaratish; talabalarning yuqori ta'lim motivatsiyasini saqlab qolish; ularning faolligi va mustaqilligini rag'batlantirish; o'rgatish va o'z-o'zini o'rganish imkoniyatlarini kengaytirish; talabalarning refleksiv va baholash faoliyati ko'nikmalarini rivojlantirish; o'rganish, maqsadlarni belgilash qobiliyatini shakllantirish, rejalashtirish va tartibga solish; muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish; o'quv dasturlari tanlashning turli xil variantlari to'g'risida talabalarni va ularning ota-onalarini xabardor qilish.

2. Ta'lim muassasasi muammolarini hal qilishga innovatsiyalarni yo'naltirilganligi.

- O'qitish usulini o'zgartirish, o'quv jarayonini tashkil etishning yangi shakllarini izlash, talablarni o'zgartirish va umuman olganda – ta'lim sifati;

- Uzluksiz ta'lim jarayonida uzluksiz baholash shakli;

- O'qituvchi portfoliosi – uning kasbiy mahorati va faoliyatini, malaka toifasiga muvofiqligini baholashning muqobil shakli sifatida foydalanish;

- talabani o'qitish jarayonida ota-onalarning faol ishtiropi (farzandining kuchli va kuchsiz tomonlarini yetarli darajada baholash va maktab bilan faol hamkorlik qilish);

3. Ta'lim muassasasining resurs imkoniyatlari.

- o'qituvchilarning malakasini oshirish bo'yicha tizimli ishlar;

- elektron portfolio yaratish tajribasi;
- auditoriyalarning tarmoq kompyuterlari (kompyuter xonasi, fan o'qituvchilarining shaxsiy kompyuterlari, ma'muriy tarmoq ularning tez va sifatli bog'lash imkoniyati);
- Kursni metodik ta'minoti (elektron darslik yoki manbalar).

4. Innovatsion rivojlanishning joriy innovatsion siklidan oldingi davr uchun ta'lismuassasasining yutuqlari va raqobatbardosh ustunliklari va ularning o'zaro bog'liqligi.

- Muayyan talabaning ta'lismuassasasining yutuqlari, uning yo'naliishini istiqboli shundan kelib chiqib profilga tayyorgarlik va kelajakda ta'lismuassasini belgilash;
- bitiruvchilarning ta'lismuassasini tuzish;

5. ta'lismuassasasi innovatsion muhitni, jamoanining innovatsion salohiyatini, potentsial o'sish nuqtalarini baholash;

- Ta'lismuassasasi uzoq vaqtadan beri nafaqat baholash jarayoniga, balki o'zini o'zi baholashga ham yo'naltirilgan haqiqiy (individual) baholash usullarini izlaydi (u amaliyatga yo'naltirilgan ta'limga qo'llaniladi va o'quvchilarni real hayotga imkon qadar yaqin vaziyatga qo'yish sharoitida ularning ko'nikmalari va qobiliyatlarini shakllantirishni baholashni ta'minlaydi);

• bu borada ko'plab uslublar mavjud. Masalan, SWOD analiz va boshqalar "zaif" yoki "kuchli" kabi yorilqlar bilan bog'liq pedagogik texnologiyalar ishlab chiqilgan.

6. Ta'lismuassasasi jamoasi tomonidan yan-giliklarni qabul qilishdagi sustkashlik, o'zgarishlarga qarshilik ko'rsatish va shu kabilarni prognozlashtirish.

• har qanday yangilik o'qituvchidan ham, talabandan ham yangi tashkiliy va bilim qobiliyatlarini talab qiladi. Shu nuqtai nazardan ko'pchilik masalaga konservativ yondashib yangilikni qabul qilmaslikka unga qarshilik qilishga urunadi. Bu quyidagilarda namoyon bo'ladi.

• O'qish vaqt masalasi: innovatsion baholashni amalga oshirish an'anaviy baholash tizimlariga qaraganda ko'proq vaqt talab etadi. Talabalarning individual o'sish dinamikasini qayd etish uchun materiallar bilan ta'minlash imkoniyatlari va tayyorgarligini haqiqiy baholash talab etiladi. Maqsadlarni belgilashda, rejalashtirishda va o'z ta'lismuassasini tashkil etishda qiyinchiliklar mavjud bo'ladi, talabalar mustaqil ta'lismuassasini o'zlarining to'plangan materiallar va tajribalarini tizimlashtirish va tahlil qilish uchun ma'lum murakkabliklarga uchraydi, ota-onalarning innovatsion ta'lismuassasini afzalligini anglashi uchun ma'lum vaqt talab etiladi va hokazo.

Yana bir masala innovatsion texnologiyalarni joriy qilishda ma'lum ijtimoiy xususiyatlar ham muhim

rol o'ynaydi. Ana shulardan biri qat'iyatlilik hisoblana-di. Qat'iyatlilik hayot davomida muhim shaxsiy xusu-siyatdir. Chunki u o'zining barqaror ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini asosiy ta'lismuassasini – o'ziga ishonch, o'zini o'zi anglashga yo'naltirish, o'zini munosib xulq-atvorda tasdiqlash, shaxsning o'ziga va boshqalarga bo'lgan munosabati bilan muhim hisoblanadi. Mu-vaffaqiyatli bo'lgan maqom, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishning muhim omili bo'lib, o'zini o'zi belgilash, shaxs sifatida o'z-o'ziga g'amxo'rlik qilishni oshirish, o'z-o'zini anglash kontseptsiyasini shakllantirish zarurligini rag'batlantiradi. Ideal o'zlik va real o'zlikni taqqoslash va ideallikka intilish qat'iyatli xulq-atvorda namoyon bo'ladi.

Yana bir muhim mexanizm o'quv muhitini yengil-lashtirish bo'lib, uning afzalliklari ta'limga tasdiqlangan. Ular talabani ta'lismuassasini chetlashtirishning oldini olishga yordam beradi; talabaning teng-doshlari orasida, universitetda, oilada, jamiyatdagi haqiqiy o'rnini tavsiflovchi munosib ijtimoiy-psixologik maqomga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Ta'lismuassasasi rivojlanishda qulay sharoitlarni amalga oshirish tajribasi ko'rsatadiki, talabalar og'zaki maz-munli muloqotda ko'proq tashabbuskor bo'lishadi, ular dadilroq savollar berishadi; o'zlarining ta'lismuassasini faoliyati maqsadlari va vazifalarini yanada muvaffaqiyatli shakllantirish; ko'proq mustaqil ishslash; guruhda yanada muvaffaqiyatli ishslash; o'quv faoliyati uchun ko'proq g'ayratli; o'quv materialini o'zlashtirishda yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lishga intiladi.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. *Milliy tiklanishdan – milliy yuk-salish sari*. – Toshkent: O'zbekiston, 2020.

2. Alikarieva A. *Ta'lismuassasini boshqarish taraqqiyot garovi sifatida// Sotsiologiyani o'qitish va sotsiologik tadqiqotlarni tashkil etishning dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari*. -Toshkent, 2018.

3. Mirziyoev Sh.M. *Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz*. 1-jild –T.: O'zbekiston, 2018.

### Internet resurslari

1. Gershunskiy B.S. Философия образования ([twirpx.com](http://twirpx.com))

2. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

3. <https://institute.global/policy/technology-and-innovation-global-education-systems>

4. <https://institute.global/policy/technology-and-innovation-global-education-systems>

# IJTIMOIY REALLIK TUSHUNCHASINING MAZMUN VA MOHIYATI: IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ijtimoiy reallik tushunchasining mazmuni mohiyatining ijtimoiy-falsafiy jihatlari tahlil etilgan. Zamonaviy ijtimoiy reallikning murakkablashuvi uning mazmun va mohiyatini klassik paradigmal negizida tadqiq etish yetarli bo'lmay qoldi. Endilikda uning yangicha paradigmal jihatlarini jumladan, noklassik va postnoklassik modellarida olib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur maqolada zamonaviy ijtimoiy reallikning mohiyatini adekvat aks ettiruvchi postnoklassik yondashuv negizida fanlararo yondashuv hisoblangan sinergetik paradigmaning roli asoslab berilgan. Maqolada ijtimoiy reallikning simulyatsiyalashuvi, virtuallashuvi ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy reallik, ob'ektivizm, sub'ektivizm, klassik, noklassik, postnoklassik modellari, simulyatsiya, naturalistik model, realistik model, konstruktivistik model, sinergetik model

**Аннотация:** В данной статье анализируются социально-философские аспекты сущности понятия социальной реальности. Сложность современной социальной реальности делает недостаточным изучение ее содержания и сущности на основе классической парадигмы. Теперь важно выявить ее новые парадигматические аспекты, в том числе в неклассической и постклассической моделях. В данной статье обосновывается роль синергетической парадигмы, представляющей собой междисциплинарный подход, основанный на постклассическом подходе, адекватно отражающем сущность современной социальной действительности. В статье показано симуляция, виртуализация социальной реальности.

**Ключевые слова:** социальная реальность, объективизм, субъективизм, классический, неклассический, постнеклассический модели, симуляция, натуралистическая модель, реалистическая модель, конструктивистская модель, синергетическая модель

**Annotation:** This article analyzes the socio-philosophical aspects of the essence of the concept of social reality. The complexity of modern social reality makes it insufficient to study its content and essence on the basis of the classical paradigm. Now it is important to reveal its new paradigmatic aspects, including in non-classical and post-classical models. This article substantiates the role of the synergetic paradigm, which is an interdisciplinary approach based on the postclassical approach that adequately reflects the essence of modern social reality. The article shows simulation, virtualization of social reality.

**Key words:** social reality, objectivism, subjectivism, classical, nonclassical, postnonclassical models, simulation, naturalistic model, realistic model, constructivist model, synergetic model.

**XX** asr va XXI asr boshiga kelib, borliqning bir qismi hisoblangan ijtimoiy borliqning murakkablashuvi, dinamizmi, transformatsiyasi kardinal ravishda jadallahish jarayoni kuzatildi. Ijtimoiy reallikning



Arıslanbay  
**ORAZBAEV,**  
Qoraqalpoq davlat  
universitetining  
mustaqil  
tadqiqotchisi



mazmun mohiyati haqida qadimgi davrdan boshlab hozirgi kungacha bo'lgan qarashlar tobora ortgan sari, haligacha uning asosiy mohiyati ochib berilmagan. Bu o'z navbatida ijtimoiy reallikning ijtimoiy falsafa ob'ekti sifatidagi mazmun mohiyatini tadqiq etishda nuqta qo'yilmaganligidan darak beradi. Bunga sabab, ijtimoiy reallik manzarasining transformatsiyasining ichki mantig'i bilan chambarchas bog'liq.

Adabiyotlarda ijtimoiy reallik haqida xilma xil definitsiyalar berilgan. Ammo, mazkur definitsiyalar da ijtimoiy reallikning muayyan bir jihatlarigina aks ettirilgan.

Mazkur maqlada yuqoridagi bo'shlqn to'liqitish maqsadida ijtimoiy reallikka poliparadigmal yondashuv zaruriyatasi asoslanib beriladi.

Ijtimoiy reallik nima? Ijtimoiy reallik tushunchasini ilk marta ilmiy diskursga fenomenologiya sotsiologiyasiing yirik vakili A. Shyuts kiritgan. Ijtimoiy reallik – bu umumiy qabul qilingan tamoyillar, qonunlar va ijtimoiy g'oyalarni o'z ishiga olgan shaxslar o'ttasidagi o'zaro tasir natijasidir. "Ijtimoiy reallik – bu inson tomonidan yaratilgan va uning sub'ektiv faoliyatining ob'ektivlashtirilgan natijasi bo'lgan hamma narsadir va bu boshqa dunyodan odamga berilgan narsa emas, balki o'z faoliyati mahsulidir. Ijtimoiy reallikni xarakterlovchi barcha ijobjiy va salbiy narsalar odamlarning ijtimoiy harakatlarining natijasidir. Ijtimoiy rivojlanish qonuniyatları inson yaratgan ob'ektiv reallikda amal qiladi" [1,C.16].

Adabiyotlarda ijtimoiy reallikning bir-biriga muqobil bo'lgan modellar ishlab chiqilgan. Mazkur modelarining qaysi birlari hozirgi ijtimoiy reallikni adekvatli in'ikos ettiradi? Ijtimoiy reallikni tushunishda qaysi paradigma mos keladi degan savollar ko'ndalang qo'yiladi. Darhaqiqat, ijtimoiy reallikning paradigmal jihatlari haqida quyidagi modellar ishlab chiqilgan: naturalistik model, realistik model, konstruktivistik model, sinergetik model va h.k.

Naturalistik modelga ko'ra, ijtimoiy borliq muayyan bir biologik organizm sifatida e'tirof etiladi. Bu haqida G. Spenser o'z tadqiqotlarida ko'rsatib bergen. Mazkur model negizida ijtimoiy reallikni tadqiq etgan mutafakkirlardan Z. Freyd, Maltus, Monteske, Vernadskiy va hakozolar asarlarida yoritib bergen. Ammo, ijtimoiy reallikning barcha mazmunini naturalistik model bilan bog'lash noto'g'ri. Biroq, ushbu model ijtimoiy reallikning mazmunini bir tomonlama ochib beradi. Shuningdek, ijtimoiy reallikning realistik modeli ham ishlab chiqilgan. Ushbu modelga ko'ra, ijtimoiy reallikning mohiyati uning konkret narsa sifatidagi ko'rinishidan avval qandayda bir ilohiy trantsental, mutlaq g'oya yoki xudo sifatida mavjudligi bilan belgilanadi. Mazkur paradigmal yondashuv Platon, F. Akvinskiy, Avgustin, Gegel va boshqalarning ta'limotlarida asoslab berilgan.

Ijtimoiy reallikni tushunishning boshqa mezonlari ham mavjud. Ijtimoiy reallikni tushunishning davriy

mezoni sifatida klassik, noklassik, postnoklassik tiplarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin. Masalan, muallif fikricha, ijtimoiy reallikning klassik, noklassik, postnoklassik mezonlarini quyidagicha, asoslab beradi:[2,C.176-191] klassik model=[ob'ektivizm]; noklassik model=[sub'ektivizm]; postnoklassik model=[ontologiyasining nomavjudligi (simulyakr, yolg'on obraz, virtuallashuv)]. Muallifning mazkur formulasi ijtimoiy reallikning modeliga to'liqroq javob beradi. Darhaqiqat, ijtimoiy reallikning klassik modelida jamiyat inson ongidan tashqarida mavjud bo'lishi ob'ektiv mazmunga ega voqelik sifatida e'tirof etiladi. Bunda ob'ektiv mazmunning ikkita jihatini ajratib ko'rsatish mumkin: 1. Ob'ektiv idealizmda (Platon, Gegel). 2. Materialistik model. Ammo, klassik modelda ob'ekt va sub'ekt bir-biri bilan ajralgan holda olib qaraladi.

Shu bilan birga, ob'ektning sub'ektga nisbatan dominant rolini bajaradi. Biroq, ijtimoiy reallikda sub'ektning rolini inobatga olmaydi. Mazkur mezon ijtimoiy reallikni tushunishning noklassik paradigmaida oldingi qatorga chiqadi. Bunda sub'ektning yaratuvchanlik, ijodkorligi va faolligi asosiy mezon sifatida belgilanadi. Masalan, shu o'rinda aytish mumkinki, aynan sub'ektivlik mezon ijtimoiy reallikning konstruktivistik modelida asoslanib berildi. Mazkur modelda ijtimoiy reallik ob'ektiv voqelik emas, balki sub'ektiv voqelik sifatida e'tirof etiladi. Ya'ni ijtimoiy reallik sub'ekt ongingin konstruktiv mahsulidir. Darhaqiqat, ijtimoiy reallikning nafaqat ob'ektiv tomonlari, shu bilan birga sub'ektiv jihatlari ham mavjud (insonlarning hohish-istatlari, hissiyotlari, manfaatlari va h.k.).

A. Shyutsning ishlab chiqqan fenomenologik sotsiologiyasi ijtimoiy reallikni tadqiq etishning noklassik modeliga kiradi. A. Shyuts ijtimoiy reallikni quyidagi cha tariflaydi: "Ijtimoiy fanlarning asosiy vazifasi ijtimoiy reallik haqida tartibli bilim olishdir. "Ijtimoiy reallik" atamasи bilan men ijtimoiy-madaniy olamdagи ob'ektlер va hodisalarining yig'indisini o'zlarining kundalik hayotini o'zlarining turlari orasida o'tkazadigan va ular bilan turli xil o'zaro ta'sir munosabatlari bilan bog'langan odamlarning oddiy ongi tajribasi sifatida tushunaman. Bu biz tug'ilgan madaniy ob'ektlar va ijtimoiy institutlar dunyosi, uning ichida biz o'z o'rnimizni topishimiz va ular bilan munosabatlarni o'rnatishimiz kerak. Biz, ijtimoiy sahnadagi aktyorlar boshidanoq o'zimiz yashayotgan olamni – ham tabiat olamini ham madaniyat olamini – sub'ektiv emas, balki sub'ektlararo olam sifatida qabul qilamiz, ya'ni hammamiz uchun umumiy bo'lgan, aslida berilgan yoki hamma uchun ochiq bo'lgan dunyo sifatida va bu o'zaro muloqot va tilni o'z ichiga oladi" [3,C.530]. A. Shyutsning ijtimoiy reallikning fenomenologik yondashuvini davom ettirgan P. Berger, T. Lukman o'zlarining "Ijtimoiy reallikni konstruktiviyalash" nomli asarida ijtimoiy reallikni "intersub'ektiv olam sub'ektiv ma'nolarni ob'ektivlashtirish jarayonida quriladi" [4,C.31-32], – deb ta'riflaydi.

Ijtimoiy reallikning postnoklassik modelida ijtimoiy reallikning simulyativligi, virtuallashuvi, raqamlashuvi bilan xarakterlanadi. Masalan, M.G. Morozov fikricha postmodernizm falsafasida ijtimoiy reallik virtual reallik sifatida olib qaralishini etirof etadi [5, C.125-127]. Darhaqiqat, mazkur holat hozirgi ijtimoiy reallikning manzarasida o'z aksini topmoqda. Masalan, fransuz faylasufi J. Bodriyyar zamonaviy jamiyatni giperreallik sifatida olib qarab, inson ongini fenomen sifatida simulyativ modelini ishlab chiqqan. J. Bodriyyar fikricha, "simulyakr – bu vogelikda hech qanday originallik bo'limgan bo'sh obraz, referenti mavjud bo'limgan kopiya" deb ta'kidlaydi [6,C.113].

Unga ko'ra, ijtimoiy jarayonlar va hodisalar voqelikdan uzoqlashgan holda yolg'on obrazlar sifatida namoyon bo'ladi. Bunga misol tariqasida, zamonaviy massmedia ijtimoiy reallikda bo'layotgan hodisalarni feyk obrazlar shaklida aks ettirish yuzaga chiqmoqda. Bunga misol, Rossiya va Ukraina o'tasidagi ziddiyatlarda axborot urushida simulyakrlar (yolg'on obrazlar, feyk axborotlar) hozirgi ijtimoiy reallikning manzarasini yaratib bermoqda. Mazkur holatni, yani ijtimoiy reallikni "niqoblangan obraz" sifatida J. Bodriyyar o'zining "Симуляки и симуляция" asarida obrazning evolyutsiyasini ketma-ket fazalarini keltiradi: "...Obraz mavjud, u reallikni aks ettiradi; Obraz reallikni niqoblaydi; U reallikning mavjud emasligini niqoblaydi; U reallik bilan hech qanday munosabatda bo'lmaydi, u o'zining shaxsiy toza simulyakr bo'lib qoladi" [7, C.23].

Demak, borliqning yangi modeli hisoblangan giperreallik inson ongida muayyan haqiqiy fenomen sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu narsalar ijtimoiy reallikning yana ham murakkablashuvi, xatolikning va noaniqlikning namoyon bo'lishiga olib kelmoqda.

Shu joyda shunday savol tug'iladiki, "insoniyat o'zi qanday ijtimoiy reallikda yashaydi?, qanday ijtimoiy reallik ma'qul?, qaysilar nomalum?, qaysi ijtimoiy reallik insoniyatni asrab qola oladi? va hakozo savollar bong urib boshladi. Insoniyat ijtimoiy reallikning bitta kemasiga o'tirdi. Demak, bu kemani qanday saqlab qolish kerak degan savol butun insoniyatni tashvishga solmoqda. Demak, ijtimoiy reallik tushunchasining mazmun mohiyati nafaqat ontologik xarakterga ega, balki shu bilan birga, uning aksilogik, ekologik etika, ahloqiy, gumanistik jihatlarini ham ochib berishni taqozo etmoqda. Demak, ijtimoiy reallikka poliparadigmal yondashuvni ijtimoiy reallikning xilma xil tomonlarini tadqiq etish bilan aniqlanadi. Darhaqiqat, ijtimoiy reallikni bitta paradigma bilan o'rganib bo'lmaydi. Shu sababdan ham ijtimoiy reallikni o'rganishda fanlararo yondashuv negizida tadqiq etish maqsadga muvofiq.

Postnoklassik modelda ijtimoiy reallikni virtual-lashtirish ya'ni raqamlashtirish bilan bog'liq. Agarda biz mazkur modeldan ijtimoiy reallikni insonparvar-

lashtirish va ekologizatsiyalashtirishni diqqat markazimizga olsakgina insoniyalashtirilgan ijtimoiy reallikning qurilishiga zamin yaratgan bo'lamiz. Aks holda, tabiyat – jamiyat va inson tizimida ziddiyatlarning keskinlashuviga sabab bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda ijtimoiy reallikni tushunish, baholash va boshqarishda xilma xil qarashlarning mavjudligi, uning ijtimoiy-falsafiy muammo sifatida tadqiq etishda yangicha metodologik yondashuvlarni bilish bilan aniqlanadi. Shundan kelib chiqqan holda, quyidagi taklif va xulosalarni beramiz.

Birinchidan, ijtimoiy reallik odamlarning va ularning o'zaro munosabatlarining ob'ektiv va sub'ektiv tomonlarining majmuasini beradi. Ikkinchidan, ijtimoiy reallikning mazmun mohiyatini tushunishda bitta, ya'ni yagona fan doirasida emas, balki bir nechta fanlarning integratsiyasi bilan bog'liq fanlararo yondashuv, transdissiplinar negizida o'rganishni taqozo etadi. Uchinchidan, ijtimoiy reallikning simulyatsiyasi salbiy oqibatlarga olib kelib, ijtimoiy ziddiyatlarining namoyon bo'lishiga sabab bo'ladi. Shu sababdan ham ijtimoiy reallikning mazmuniga aksiologik, ekologik, gumanistik elementlarni qo'shishni taqozo etadi. To'rtinchidan, zamonaviy ijtimoiy reallikning mazmun va mohiyatini teranroq va adekvat aks etiruvchi sinergetika paradigmasining metodologik imkoniyatlari kengroq hisoblanadi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Новая социальная реальность: системообразующие факторы, безопасность и перспективы развития. Россия в техносоциальном пространстве (Коллективная монография). – М.; СПб.: Нестор-История, 2020. – С.16.
2. Н.Б.Отречко. Определение концепта "социальная реальность" в социальной науке и социальной теории: от моно-к метадисциплинарному подходу. // Вопросы социальной теории. 2008 Том II. Вып. 1(2) -С.176-191.
3. Шюц А. Формирование понятия и теории в общественных науках. // Американская социологическая мысль. – М., 1996. – С.530.
4. Бергер П., Лукман Т. Социальное конструирование реальности. Трактат по социологии знания. –М.1995. –С.31-32
5. Морозов, М.Г. Типология подходов к анализу социальной реальности и проблема иллюзорности [Текст] / М.Г. Морозов // Успехи современного естествознания. – 2014. – № 11. – С. 125–127.
6. Бодрийяр Ж. Символический обмен и смерть /пер. с фр. М.: Добросвет, 2000. – С. 113.
7. Бодрийяр Ж. Симулякры и симуляция / пер. О. А. Печенкина. Тула, 2013. – С.23.

# JALOLIDDIN RUMIYNING TASAVVUFİY- IRFONİY QARASHLARI VA UNİNG DUNYO OLİMLARI TOMONİDAN O'RGANİLISHİ



Sunnatillo  
RAXMONOV,  
Samarqand davlat  
chet tillar  
instituti dotsenti,  
falsaфа doktori (PhD)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada yirik shoир va mutafakkir, mavlaviya tariqatining asoschisi Jaloliddin Rumiy hayoti va ijodining ilmiy nuqtai nazardan o'rganilganligi aks ettirilgan. Jaloliddin Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy" asari xalqlar orasida keng tarqalgan. Jaloliddin Rumiy hayoti va ijodiga bag'ishlangan turli tillardagi ilmiy tadqiqotlar mutafakkir ta'limotining asl mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** tasavvuf, tariqat, mavlaviya, "Ma'naviy masnaviy", "Fihim fihi"

**Аннотация:** В данной статье с научной точки зрения рассматривается жизнь и творчество великого поэта и мыслителя, основателя тарикаты мавлавия Джалалиддина Руми. Произведение "Маснавий манавий" была широко распространена среди народов. Научные исследования на разных языках, посвященные жизни и деятельности Джалалиддина Руми, служат раскрытию сути учения мыслителя.

**Ключевые слова:** суфизм, тарикат, зикр, Мавлави, Маънави Маснави, Фухима фихи

**Annotation:** In this article, from a scientific point of view, the life and work of the great poet and thinker, the founder of the Mavlavian tariqa, Jalaliddin Rumi, is considered. The work "Masnaviy manaviy" was widely distributed among the peoples. Scientific research in different languages, dedicated to the life and work of Jalaliddin Rumi, serves to reveal the essence of the thinker's teachings.

**Key words:** Sufism, tarikat, dhikr, Mavlevi, Manavi Masnavi, Fihima fihi.

Jaloliddin Rumiy 1207-yilning 30-sentyabrida hozirgi Afg'oniston shimalidagi Balx shahrida, sulton al-ulamo nomini olgan ulug' shayx Muhammad Bahouddin Valad xonardonida dunyoga kelgan. Otasi Bahouddin Valad so'fiy va fiqh donishmandi bo'lib, sulton Muhammad Xorazmshoh (1199-1220) tomonidan saroya taklif etilgan. Lekin, Bahouddin Valad uning taklifini rad etib, maktabdorlik va ilmiy-ijodiy ish bilan mashg'ul bo'lgan. Jaloliddinning onasi esa xorazmlik bo'lib, shajarada xorazmshohning qizi bo'lgan. Bahouddin Valad, oilasi bilan Makka safariga chiqib, Xurosonu Eronning shaharlarini kezib, zamonasining buyuk donishmandlari bilan hamsuhbat bo'ladi. Shundan so'ng, Bahouddin Valad Turkiyaning Kunya (Konya) shahrida oilasi bilan qo'nim topadi. Saljuq sultonlari tarafidan izzat-ikrom bilan qabul qilingan Bahouddin Valad shu yerda muqim yashab madrasada mudarrislik faoliyatini bilan shug'ullangan. Otasining vafotidan so'ng Jaloliddin Rumiy, uning o'rniiga Kunya madrasasining bosh mudarrislik lavozimida faoliyatini davom ettirgan. Mavlono Rumiy 1225-yil-

da Sharafuddin Lolo Samarcandiyning qizi Gavhar xonimiga uylanadi. Mavlononing bu nikohdan Sulton Valad va Alouddin Chalabiy ismli ikki o'g'li bo'lib, ular keyinchalik, Jaloliddin Rumiy nomi bilan asos solingan mavlaviylik tariqatini davom ettirganlar.

Mavlono Jaloliddin Rumiy buyuk faylasuf, mutafakkir va mutasavvif, salkam yigirma yetti ming bayt dan iborat "Ma'nnaviy masnaviy"ni, o'ttiz ming baytga yaqin "Devoni Shams"ni yozgan shoir, mavlaviya tariqatining asoschisi hamda musiqani zikrning yordamchi unsure, deb ulug'lagan shayx sifatida shuhrat qozongan.

Rumi o'zini an'anavy ma'nodagi faylasuf ham, shoir ham deb hisoblamagan, balki o'zini Allohga cheksiz muhabbat bildirgan inson deb bilgan. Jaloliddin Rumiy ilmiy merosini o'rganayotgan tadqiqotchi olimlarning fikricha, Rumiy ijodiga Imom G'azzolining diniy qarashlari, so'fiy shoir Sanoiy va Fariduddin Attorning ijodlari katta ta'sir ko'rsatgan. Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, Jaloliddin Rumiyning "Masnaviy ma'nnaviy" asarining mashhurlikga erishishida Jaloliddinning o'g'li Sulton Valad hamda xalifasi va mavlaviya tariqatining rasmiy birinchi rahbari Hisomiddin Hasan Chalabiyning hissalari beqiyosdir. Jaloliddin Rumiyning falsafa, tasavvuf hamda she'reyat bobida yuksak darajaga ko'tarilishida shayx Shamsiddin Tabriziy va Fariduddun Attorlarning xizmati katta bo'lgan.

Jaloliddin Rumiyning inson ma'nnaviy kamoloti haqidagi qarashlarini yorituvchi tadqiqotlar qanchalik ko'p bo'lmasin alloma ijodining nihoyasini belgilamaydi. Chunki, Rumiy ijodi serqirra bo'lib butun dunyo olimlari orasida keng tadqiq etilganligiga qaramay hanuz zamon talabi uning ilmiy merosiga qayta va qayta murojaat qilishni taqozo etmoqda. Jaloliddin Rumiyning faoliyati, ilmiy merosiga, asosan "Ma'nnaviy masnaviy" asariga bitilgan sharhlar nihoyatda ko'p bo'lib, dunyo tillariga tarjima qilingan. Shuningdek, mutafakkir hayoti va ijodiga bag'ishlangan asarlar, maqola va risolalarning sanog'i cheksizdir. Har qanday tadqiqot va sharhlar Rumiy ta'limotining asl mohiyatini anglashga ko'maklashuvchi vosita sifatida inson hayotini ma'nnaviy-axloqiy jihatdan boyitishga xizmat qiladi.

Jaloliddin Rumiyning serqirra ijodini o'rganishda Sharq va G'arb olimlari o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shganlar. Jaloliddin Rumiyning vafotidan so'ng dastlab o'g'li Sulton Valad otasining vorisi sifatida uning ishlarini davom ettirib, Rumiyning hayoti va ta'limotini o'zida aks ettirgan "Valadnoma" dostonini yozgan. Manbaalar orasida aynan ushbu asar Jaloliddin Rumiyning hayoti va faoliyati haqidagi eng ishonchli manbaga aylangan.

Keyinchalik, Eron, O'rta Osiyo, Hindiston va asosan Kichik Osiyoda Jaloliddin Rumiyning ilmiy merosini o'rganishga moslashgan "Dorul Masnaviy"

nomli maxsus maktablar ochilgan. Natijada, mutafakkirning shoh asari hisoblangan "Ma'nnaviy masnaviy" asari asosida o'sha davrning o'zidayoq o'nlab to'plamlar yaratilgan. Shuningdek, XV asrdan boshlab barcha mutafakkirlar Jaloliddin Rumiy ijodidan ilhomlangan holda o'z asarlarini yaratganlar hamda arab, turk va fors tillarida bir necha yuz jildlik tahlil va sharhlar bitganlar.

Bundan tashqari aynan o'rta asrlardan boshlab Jaloliddin Rumiy hayoti va ijodi o'rganish bo'yicha bir qancha olimlarning salmoqli tadqiqotlari diqqatga sazovordir. Jumladan, bu borada sharq allomalaridan Davlatshoh Samarcandi, Said Muhammad Fozilposh-sho Xoja Ahror Valiy, Hofiz Sheroziy, Alisher Navoiy, Abdurahmaon Jomiy, Husayn Voiz Koshifiy, Ya'qub Charxiy, Mirzo Bobur, Boborahim Mashrab, So'fi Oloyor, Mirzo Abdulqodir Bedil, Sadriddin Ayniy Muhammad Iqbol kabi olimlarning xizmatlari beqiyosdir.

Naqshbandiya tariqati shayxlardan Xoja Ahror Valiy, o'zining "Fiqroti Ahroriya" asarida Jaloliddin Rumiy ta'limotidan foydalangan bo'lsa [1. B. 106], Ya'qub Charxiy o'zining "Risolai abdoliya" asarida "Ma'nnaviy masnaviy"dan baytlar keltirib, nay timsoli sharhiga bag'ishlangan o'zining "Nay risolasi"ni yoza-di. Ushbu risolada Ya'qub Charxiy nay nolasini "Orif-larning muborak nafaslari"dir, deb e'tirof etadi.

Naqshbandiya tariqatining yana bir yirik vakili, shoir Abdurahmon Jomiy esa o'zining "Nafahot ul-uns min hazarot ul-quds" asarida Jaloliddin Rumiyning hayoti va faoliyati borasida qimmatli ma'lumotlarni keltirib, "Masnaviy"ni sharplash bo'yicha o'ziga xos Hirot maktabini yaratadi. Abdurahmon Jomiy Jalolidin Rumiyni sharaflab shunday yozadi:

*Man chi go'yam vasfi on oljanob,  
Nest Payg'ambar, vale dorad kitob [2. B. 47].*

Tarjimas:

*Men bu ulug' janob vasfida ne so'ylayın,  
Payg'ambar emas, lekin kitobi bor.*

Professor Hamidulla Boltaboev Abdurahmon Jomiyning ushbu misralarni Jaloliddin Rumiya munosib ko'rishi va ilohiy kitobni Mavlono "Masnaviy"-siga solishtirishi to'g'ri bo'lmasada, islam olamida shariflik rutbasi payg'ambarimizning Hadislardan so'ng ushbu kitobga nisbatan qo'llanilganini inobatga olgan holda, Jomiy tomonidan berilgan ta'rifining o'rinni qo'llanilganligini e'tirof etadi. Shuningdek, atoqli mavlaviyshunos olim Mavlono Obiddin Poshsho o'zining "Tarjima va sharhi Masnaviyi sharif" asarining kirish qismida Abdurahmon Jomiy misralarni yozib qo'yanligi, Jaloliddin Rumiy asariga berilgan ta'rifning haqqoniyligini yana bir bor isbotlaydi.

Buyuk o'zbek shoiri va mutafakkir Alisher Navoiy o'zining "Nasoyim ul-muhabbat" ("Muhabbat shabadalari") asarida Abdurahmon Jomiy keltirgan

ma'lumotlarni umumlashtirib, Jaloliddin Rumiyni "Ustozi" deb ulug'laydi [3. B. 25]. Shuningdek, Navoiy "Mahbul-qulub" asarining "Nazm gulistonining xushnag'ma qushlari zikrida" nomli bobida, "Rumiy "Ma'naviy masnaviy" asari bilan Allohga yaqinlik bag'rige g'avvos kabi sho'ng'igan. Bundan maqsad, ilohiy sirlar va tunganmas ma'rifatni nazmga solish imlosidan o'zga narsa emasdir" deb ta'kidlagan.

XVII asrga kelib Jaloliddin Rumiyning ilmiy merosini tarjima qilish va o'rganish borasida aniqrog'i, "Ma'naviy masnaviy" asarini o'zbek tilida sharhlash bo'yicha shoir va mutafakkir Boborahim Mashrab xizmatlari beqiyosdir. Boborahim Mashrab Jaloliddin Rumiyning "Ma'naviy masnaviy" asari asosida o'zining "Mabdayi nur" ("Nurning kelib chiqish joyi") nomli, o'zbekcha sharhli asarini yaratgan. "Mabdayi nur" asari diniy-axloqiy va afsonaviy, hikoyalari bilan boyitilgan.

Shuningdek, Markaziy Osiyo jadidchilik harakating namoyondalaridan bo'lgan dramaturg, shoir va olim Abdurauf Fitrat ham Boborahim Mashrabning "Jaloliddin Rumiya ta'siri ostida" ijod qilganligini ta'kidlagan. Jumladan, Abdurauf Fitrat "Jaloliddin Rumiya kabi Mashrab ham har narsa o'zimdan iboratdir" deganini va "Boborahim Mashrab ko'proq Jaloliddin Rumiydagi so'fiyona hayajonni o'z she'rlarida aks etirishga intilgan"ini yoritadi. Fitratning e'tirof etishicha, Boborahim Mashrab Jaloliddin Rumiyni o'ziga ma'naviy ustoz sifatida qabul qilgach "Masnaviy" dan ta'sirlanib o'zining "Mabdai nur" asarini yaratgan [4].

XVII-XVIII asrlarga kelib Jaloliddin Rumiyning ilmiy merozi boshlab mashhurlikda Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma"si va Sa'diy Sheroziyning "Guliston" asarlari bilan bir qatorda turgan. Shuningdek Mavlono Rumiyning ilmiy merozi nafaqat Sharqda, balki G'arb faylasuflari va adabiyotshunoslari, orasida ham shuhrat qozongan. Jumladan, nemis mutafakkiri, faylasuf logann Wolfgang Gyote Abulqosim Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Sa'diy Sheroziy va Abdurahmon Jomiylar qatori Jaloliddin Rumiya ijodini ham ulug'lab, uning ilmiy merozin "Xizr chashmasi" deb atagan. Giovanni Bokkachcho esa "Ma'naviy masnaviy" asarida qator hikoyatlar asosida novellalar yaratgan.

Buyuk nemis faylasufi Georg Vilhelm Fridrix Gegev esa Rumiy ijodidan nihoyatda ta'sirlanib, "Ruh fasafasi" nomli asarida Jaloliddin Rumiyni "Oliy Rumiy" deb ulug'lagan hamda o'zining "Etika" nomli asarida Rumiy ijodidn iqtiboslar keltirgan [5. B. 5].

XIX asr o'talaridan boshlab, Mavlono Rumiy ilmiy merozi AQSh, Kanada, Angliya, Avstraliya, Germaniya, Fransiya kabi qator G'arb mamlakatlarda ham katta qiziqish bilan qarshi olingan. Jumladan, nemis olimi, sharq adabiyoti professori Fridrix Rukert 1903-yilda Jaloliddin Rumiyning "Devoni Kabir" asaridan sharhlari keltirib, nemis kitobxonlari orasida katta shuhratga sazovor bo'lgan "G'azaliyot" nomli asarini nashr ettir-

gan. Fridrix Rukertning tarjimasi yana bir nemis faylasufi Konstantin Brunnerni ham ilhomlantirgan.

Rumiy ijodi va dunyoqarashiga qiziqqan fransiyalik Klement Havort (1854-1926) bir muddat Turkiyada yashab, so'fiy darveshlarning zikru samo' majlislaridan olgan taassurotlari asosida "O'rta Osiyoga safar xotiralari" va "Ko'nyo – darveshlar shahri" nomli asarlar yaratgan. Shuningdek, Klement Havort XIX asr oxirlarida Aflokiyning "Manoqib ul-orifin" (Rumiy haqidagi manoqib) asarini fransuz tiliga tarjima qilgan.

Fransiyalik yana bir yozuvchi, jurnalist Mishel Randun (1933-2008) 1960– yilda Mavlaviy haqida "Mavlono, tasavvuf va raqs" nomli asar yozadi. Mishel Randun ushbu asarida darveshlar guruhining zikri va zikr tushuvchilar rasmini ilova qiladi.

Angliyalik sharqshunos olim Reynold Allen Nikolson (1868-1945) esa o'z umrining taxminan o'z umrining qirq yetti yilini Jaloliddin Rumiyning ilmiy merozi o'rganishga bag'ishlagan. Reynold Nikolson "Rumiy barcha zamonlarning buyuk ilohiyshunos shoiri, "Masnaviy" esa irfoniy kitobdir" deya, ta'rif bergan [6]. Yunon, turk, fors va arab tillarini o'rgangan Reynold Nikolson o'ttiz yoshida Mavlono Jaloliddin Rumiyning "Ma'naviy masnaviy" va "Devoni Kabir" asarlari asosida o'zining ilk to'plamini nashr ettirgan [7].

Reynold Nikolson "Ma'naviy masnaviy" tarjimasi va sharhida: "Masnaviy" Jaloliddinning she'riyatdagi hayratga soluvchi iste'dodi kengliklarini "Devoni Shamsi Tabriziy"dan ko'ra ko'proq namoyon etadi. Mavlono g'azallari haqiqat, zavq-shavq va jozibaga undovchi she'riyatning eng baland cho'qqilarida parvoz etib, uni, irfon mulkinning malik ush-shuarosiga aylantirdi. Ammo bu g'azallar shunday bir olamda sayr qiladiki, hayotning oddiy mushohadalari bilan uning orasida ancha masofa mavjud. G'ayb va ahli shuhuddan boshqa hech kim bundan ogoh emas. Gap shundaki, "Masnaviy" birinchi navbatda ana shunday masala va tushunchalarga nazar soladi, inson hayotining mazmun-mohiyati hamda turmush tarzi bilan aloqa o'rnatadi" deb ta'kidlaydi.

Reynold Nikolson 1925-1940-yillar mobaynida "Ma'naviy masnaviy" asarini sharhlab, o'zining sakkiz jildlik asarini yozadi. Reynold Nikolson boshlab berган ingliz rumiyshunoslik maktabini uning shogirdi Artur Jon Arberri (1905-1969) davom ettiradi. Qur'oni Karimni ingliz tiliga tarjima qilgan Jon Arberri, Rumiyning bir necha ruboysiini va to'rt yuzga yaqin g'azallarini ingliz tiliga tarjima qilib, "Ichingdag'i ichingdadur" asarini o'rganadi. Shuningdek, Jon Arberri "Maorifi Bahol Valad" asarini ham yozadi. Professor Jafar Xolmuhammadning e'tirof etishicha Reynold Nikolson va Jon Arberring asarlari Yevropa xalqlarining Jaloliddin Rumiy va uning irfoniy meroziga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttirgan.

Jon Arberri Jaloliddin Rumiy haqida "Xudo haqqi, Mavlonusi solishtiradigan Jeffri Xauser va Uilyam

Shekspirdan boshqa biror shoirni bilmayman” degan munozarali fikrlarni ilgari suradi. Shuningdek, Jon Arberri Djovanno Bokachchoning “Dekameron” asaridagi ba’zi bir hikoyalalar Rumiyning “Ma’naviy masnaviy” asaridagi hikoyalarga o’xshab ketishi va Rumiyning hikoyalari chuqr falsafiy-irfoniy mazmun va g’oyalar bilan sug’orilganligini qayd etadi.

Buyuk Britaniyada yashab ijod qilgan Hindistonlik olim Idris Shoh (1924–1996) o’z asarlarida Mavlono Jaloliddin Rumiy hayoti va ijodini falsafiy tahlil qilgan. Naqshbandiya tariqati muridlaridan bo’lgan Idris Shoh o’zining “Yunesko” mukofotiga sazovor bo’lgan va bir necha marotaba qayta nashr etilgan “Sufizm” nomli asarida Jaloliddin Rumiyning qisqacha tarjimai holi va tasavvufiy qarashlari borasida ma’lumot bergen. Idris Shoh o’zining “Donishmandlikdan yuz hikoyat. Jaloliddin Rumiyning hayoti, ta’limoti va karomatlari” deb nomlangan asarida, Rumiyni “avliyo” hamda “us-toz” sifatida tasvirlab, “ta’sir kuchi orqali ta’lim” beradi deya e’tirof etgan [8. B. 240].

Jaloliddin Rumiyning hayotsevarlikni tarannum etgan ilmiy merosi G’arb shoir va yozuvchilarini ilhomlanitrgan. Jumladan, Germaniyalik mashhur islamshunos va sharqshunos olima, filologiya fanlari doktori, professor Annemarie Brigitta Shimmel (1922–2003) Jaloliddin Rumiy ijodi bo’yicha 40 yildan ortiq izlanishlar olib borgan. Annemarie Shimmel Rumiy haqida “G’arbda islam oriflaridan hech kim Jaloliddin Rumiy darajasida tanilgan emas, Gegelning dialektika haqidagi nazariyasi uchun sarchashma bo’lib xizmat qilgan Rumiy tafakkuri Yevropa adabiyoti, falsafasi va umuman, ma’naviy hayotida yuksak o’rein egallagan” deb tarif bergen. Shuningdek, Annemarie Shimmel Rumiy faoliyati to’g’risida to’xtalar ekan: “Uning hikoyalari sodda hayotiy voqealardan olingen bo’lib, insonlarni hamisha chuqr mulohaza yuritishga chorlaydi”, “U buyuk qudrat sohibi”, “Hech kim ilohiyotni Rumiychalik anglamagan va Rumiychalik asoslaman”, – deb xulosa bergen [9. B. 91].

Bundan tashqari, AQShda ham Rumiy ijodi borasida ko’plab olimlar tadqiqotlar olib borganlar. Jumladan, adabiyotshunos olim Koulman Barks (1937) Rumiy ijodiga mansub ko’pgina asarlarni ingiliz tiliga tarjima qilib, ulardan o’n uchta to’plam nashr ettirgan. “Men Rumiyni tarjima qilishni yoqtiraman, xuddi o’zimning dostonimni yaratayotganday. Biroq tarjima boshlashdan oldin, birinchi o’rinda – men Rumiy bilan g’oyib bo’lishim kerak, ikkinchidan, men dostonda ayni o’zimni – o’z shaxsim, quvonchim yoki o’zligimni aks ettirishim kerak”, deb yozadi Barks o’z tarjimalarida [10. B. 36].

Chor Rossiysi bosqini davrida Jaloliddin Rumiy “mistik shoir” sifatida e’tirof etilib, uning “Ma’naviy masnaviy” asariga taqiq qo’ylgan. Lekin, Buxoro amiri Amir Olimxon bolsheviklarga qarshi urushda Afg'oniston hukmdori amir Habibulloxon dan yordam so’ragan

vaqtida unga bir qancha nodir asarlar qatori Jaloliddin Rumiyning “Masnaviy”sini ham eng qimmatli sovg'a sifatida tortiq qilgani manbalarda qayd etilgan.

Bundan tashqari, Nozim Hikmat, Yunus Emro kabi ko’plab turk shoirlari ham o’z ijodlarida Jaloliddin Rumiy she’rlaridan foydalinishgan. XX asrning taniqli tasavvufshunos olimi Usmon Nuri To’pboshning “Bir ko’za suv” nomli asarida Rumiy hikoyalariha sharhlar keltirilgan. Ularda sof, pok bir ko’ngilga ega bo’lish faqat payg’ambarlar vorisi bo’lgan bir murshidi komilning tarbiyasi bilangina qo’lga kiritilishi ta’kidlangani e’tirof etilgan. Usmon Nuri “Mavlono hazratlari yashagan, his qilgan ma’no olami sarguzashtini jonlantirilgan bir kitobga joylab, insoniyatga buyuk bir mukofot qoldirdi”, deya Rumiyning “Masnaviy”sini ta’riflagan. Shuningdek, Usmon Nuri Rumiyning hayoti va ilmiy merosini chuqr o’rganib, oxiri “Inson hayoti onaniting to’lg’oq azobi va chaqaloqning yig’isi bilan boshlanadi. Inson ruhi vujuddan ayrilib, abadiy yo’chilikka chiqadi. Uning tug’ilishida ham, o’lishida ham iztiroblar mavjud. Bu kelish va ketish orasiga ko’ngil ko’zi bilan boqilganda, hayot so’ngsiz alamlar, iztirob to’la hollar va har xil bo’limg’ur xayollarga to’liqdir. Faqat g’aflat ko’ylagini yirtib, o’zi tug’ilgan olamning haqiqatlaridan voqif bo’lgan ulug’ zotlar uchun hayot bir imtihon, o’lim esa shabi arus, ya’ni bir visoldir. Hazrati Mavlono umri bo’yi bu visol onini kutib yashagan edi”, degan xulosaga keladi [11. B. 141].

Rus sharqshunosilaridan Yevgeniy Eduardovich Bertels Rumiyning “Ma’naviy Masnaviy” asarini “didaktik doston” deb e’tirof etgani holda, “Jaloliddin lirikasi bu sohada bashariyat erishgan yutuqlardan biridir. Agarda u G’arbda kengroq ma’lum bo’lganida edi, uning nomi jahon adabiyotining Shekspir, Gyote, Pushkin kabi buyuklari qatoriga qo’shilishi shubhasiz edi”, – deya ta’riflaydi [12. B. 133].

Bundan tashqari Jaloliddin Rumiy ijodi bo’yicha o’zbek olimlaridan filologiya fanlari doktori Ibrohim Haqqul, professor Najmiddin Komilov, tarjimon Asqar Mahkam, iste’dodli yozuvchi va tarjimon Ulug’bek Abduvahob, Miraziz A’zam, Sabohat Bozorovalarning tarjimalari hamda Rumiy ijodidagi hikmatli so’zlarni, hikoyatlarni sharhlash bo’yicha A.Tilavov, A.Xolmurodov, Xayrulla Qosimov kabi olimlarimizning xizmatlari beqiyosdir. Jumladan, Ibrohim Haqqul “Jaloliddin Rumiy insoniyat fikr va tuyg’u tarixida o’ziga xos yuksak bosqich yaratgan. Fikr va ma’rifat, ruh va haqiqat qu-yoshi edi” deb ta’riflagan bo’lsa, professor Najmiddin Komilov “Masnaviyi ma’naviy asari inson tafakkurini olovlanitrib, ilohiy mohiyatni anglash sari olib boradigan ishqning tafsiridir”, deb ulug’lagan.

Xulosa qilib aytganda, Mavlono Rumiy umum-bashariy zot bo’lib, asarları ko’pchilik forsigo’y va turkiygo’y shoirlar ijodiga katta ta’sir ko’rsatgan, masnaviyxonlik xalqimiz o’rtasida keng tarqalgan. O’zbekiston Fanlar Akademiyasi Beruniy nomida-

gi Sharqshunoslik institutida Rumiyning “Masnaviy ma’naviy” asari saqlanadi. Istiqlol yillarda Rumiyayot va ijodi hamda turli janrdagi she’rlaridan namunalarni o’zbek tiliga tarjima qilingan. Mavlono Jaloliddin Rumiy asarlarida insonning ham moddiy, ham ma’naviyayot uchun zarur o’gitlar mukammal badiiy ifodasini topgan “Ma’naviy masnaviy” asari O’zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol tomonidan o’zbek tiliga tarjima qilingan.

### Foydalaniłgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Xoja Ubайдуллоҳ Аҳрор. Фикроти Аҳро-рийя / Табаррук рисолалар. Нашрга тайёрловчи, таржимон, сўзбоши ва изоҳ уаллифи М.Ҳасаний, Б.Умрзоқ, Ҳ.Амин. –Т.: Адолат, 2004.
2. Абдураҳмон Жомий. Танланган асарлар / Тузуечи: Ш.Шоҳмуҳаммедов. –Т.: Адабиёт ва санъат нашириёти, 1971.
3. Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат / Муқаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 17-жилд. Т.: Фан, 2001. –Б. 322–330. Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 14-т. Маҳбубул-қубб. Т.: Фан, 1998.
4. Абдурауф Фитрат. Машраб // Танланган асарлар. 2-жилд. –Тошкент, 2000. –Б. 97.
5. Джавелидзе Э.Д. У истоков турецкой литературы. Джелаль-ед-дин Руми (вопросы мировоззрения). –Тбилиси: Мецниереба, 1979. – С. 5.
6. Nicholson R.A. Mowlavi (Jalaluddin Rumi). The Mathnawi. Hermes pub., 2003.
7. Selected Poems from the Divan-I Shams-t Tabriz, Cambridge University Press, 1898. – 418 pp.
8. Идрис Шах. Суфизм. М.: 1994. – С. 142–164. Идрис Шах. Сто рассказов мудрости. Жизнь, учение и чудеса Джелаледдина Руми. –М.: 2007. – С. 240
9. Шиммель А. Мир исламского мистицизма. М.: Алетея, 1999.
10. Coleman Barks. The Essential Rumi. Harper. –San Francisco, 1995.
11. Осман Нури Топбаш. Кувшин воды. По мотивам “Маснави” Маъляна Джалалятдин Руми. Перевод с турецкого А.Разоренова. Москва, 2007. – 292 с
12. Бертельс Е.Э. Избранные труды. История литературы и культуры Ирана. –М., 1988. – С. 558.

---

## SO'ZLAR SALTANATIGA SAYOHAT

---

## KIYIZGA QANOR KIYG'IZ




Qadimgi davrlardan ishlov berilib, turli ranglarga bo'yalgan qo'y junni qaynoq suvga bostirib tayyorlanadigan qalin gulli palos tilimizda "kigiz" so'zi bilan ifodalangan. "Kigiz" so'zining "kiyiz" shakli ham bor.

Dastlab qo'y juni qanorga bir tekis qilib gullangan shaklda yoyiladi, so'ng ustidan qaynoq suv quyilib, keyin qanor o'raladi va har bir o'ramga suv quyib boriladi, so'ng o'ram qayta-qayta dumalatib pishitiladi. "Kigiz" so'zining tub ildizi "qopla" degan ma'noni anglatgan.

Tag'in bir gap, tilimizga asli lotin tilidan kirib kelgan "filtr" so'zining tub ildizi ham "kigiz", "namat" ma'nolarini anglatar ekan. Darhaqiqat, kigiz va namat changni o'ziga ko'p yutadi.

**Eshqobil Shukur,**  
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi



UDK: 811.512.133

# G'ÖZI OLIM YUNUSOVNING O'ZBEK TILI SIYOSIY- HUQUQIY TERMINOLOGIYASI SHAKLLANISHIDAGI O'RNI

**Annotatsiya:** Maqolada ma'rifatparvar jadid adibi G'ozi Olim Yunusovning XX asrning 20–30-yillarida o'zbek siyosiy-huquqiy terminologiyasi sohasini shakllantirish, uning leksik, grammatic me'yorlarini belgilash ishlardagi lingvistik faoliyati o'rganilgan. Adibning soha terminologiyasi rivojiga, terminologik lug'atlar takomolidagi xizmatiga o'zi tomonidan yaratilgan "Ruscha-o'zbekcha huquqiy va siyosiy lug'at"ning leksikografik xususiyatlari asosida ilmiy baho berilgan.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy-siyosiy leksika, terminologia, terminologik tizim, so'z tanlash, leksikografik tamoyil, leksik-semantik struktura, lisoniy norma, okkazional yasalma, funksional uslub, lisoniy va nolisoniy omillar.

**Аннотация:** В статье изучена лингвистическая деятельность в 20-30 гг. 20 века просветителя джадида Гази Алима Юнусова по формированию области узбекской социально-правовой терминологической системы, определению его лексической и грамматических норм. Вклад литератора в терминологию сферы, его заслуга по усовершенствованию терминологических словарей оценивается с научной точки зрения на основе лексикографических особенностей "Русско-узбекского правового и социального словаря".

**Ключевые слова:** социально-политическая лексика, терминология, терминологическая система, выбор слова, лексикографический принцип, лексико-семантическая структура, языковая норма, окказиональное образование, функциональный стиль, языковые и неязыковые факторы

**Annotation:** The article examines the linguistic activity of the enlightened Jadid writer Gozi Olim Yunusov in the formation of the field of Uzbek political and legal terminology in the 20-30s of the XX century, the definition of its lexical and grammatical norms. The author's contribution to the development of terminology and the development of terminological dictionaries is scientifically evaluated on the basis of lexicographic features of the "Russian-Uzbek legal and political dictionary" created by him.

**Key words:** Socio-political lexicon, terminology, terminological system, word choice, lexicographic principle, lexical-semantic structure, linguistic norm, occasional artificial, functional style, linguistic and non-linguistic factors.



Gulnoza  
ERGASHOVA,  
ToshDO'TAU  
tayanch doktoranti

**XIX** asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlaridagi o'zbek tilshunosligi rivojiga hissa qo'shgan jadid ma'rifatparvarlari orasida G'ozi Olim Yunusovning lingvistik faoliyati alohida o'rinn tutadi. U tilshunoslik bo'yicha birinchi o'zbek professori, tarjimon, etnograf, folklorshunos, shevashunos olimdir. Uning tilshunoslik merozini, xususan, lug'atchilik faoliyatini tadqiq etish bugungi kun o'zbek tilshunosligining dolzarb masalalardan biri sanaladi.

G'ozi Olim Yunusov 1920 – 1922-yillarda Maorif komissarligi qoshidagi Ilmiy kengash va terminologiya sho'basida ishlaydi. Shu komissarlik qoshidagi Til va terminologiya qo'mitasida ilmiy kotib sifatida ham faoliyat yuritadi. O'zbek folklori va etnografiyası materiallarini toplash, imlo qoidalarini ishlab chiqish, o'quv qo'llanmalari yaratish borasida samarali ishlarni amalga oshiradi. Ayni paytda Adliya xalq komissarligida ham ishlab, ko'plab huquqiy hujjatlarni o'zbek tiliga tarjima qiladi. Iqtisod va adliya atamalaring lug'atini yaratish ishi bilan ham mashg'ul bo'laadi. Faoliyatining samarası sifatida 1926-yilda orttirgan tajribasi, to'plagan materiallari asosida "Ruscha-o'zbekcha qisqa huquqiy va siyosiy lug'at" [1,35] nomli terminologik lug'atini yaratadi.

O'zbek tili XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida yangi so'zlar, so'z shakkulari va ifoda vositalari bilan boyidi, shu bilan birga, sifat jihatidan ham ancha o'zgardi. Unda yangi me'yor (norma)lar, yangi xususiyatlar shakllandi va rivojlanib bordi. Bunday o'zgarishlar tilning fonetik tarkibi va alifbosida ham, imlo va talaffuzida ham, morfologik va leksik-semantik tuzilmasida ham, stilistikasi va grammatic qurilishida ham ozmi-ko'pmi o'z aksini topa boshladi. Ayniqsa, o'zbek tili leksikasida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bu davrda sanoat, qishloq xo'jaligi, fan, texnika va madaniyatning taraqqiyoti, iqtisodiy islohotlar hamda savdo munosabatlarining rivojlanishi bilan bog'liq holda o'zbek tili lug'at tarkibida juda ko'p yangi so'z va terminlar yuzaga kela boshladi.

Fan-teknika sohasida ilmiy tushunchalarini nomlash va bayon etishda terminlar asosiy o'rinn tutadi, hech bir fan sohasini terminlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Mazkur davrda har bir fan sohasi uchun o'ziga xos bo'lgan terminologik tizim yaratilishi ehtiyoji yuzaga keldi. Ana shunday terminologik tizimlardan biri siyosat va huquq sohasi tizimida mavjud bo'lgan tushunchalarini ifodalovchi o'zbekcha terminlar edi.

O'zbek lug'atchiligidagi terminologik lug'atlar yaratish ishi dastlab Nazir To'raqulov [2,90] tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa, professor G'ozi Olim Yunusovning "Ruscha-o'zbekcha qisqa huquqiy va siyosiy lug'at" bu yo'nalihsidagi ikkinchi leksikografik asardir.

G'ozi Olim Yunusov o'zbek leksikografiyasi tarixida birinchilardan bo'lib siyosiy-huquqiy terminologik

tizimni tartibga solish, me'yorlashtirish ishiga qo'l uradi. O'z navbatida, ushbu maqsad yo'lida mazkur sohaga oid terminologik tarjima lug'at yaratadi. Lug'atda o'sha davr talabi nuqtai nazaridan ruscha siyosiy-huquqiy terminlarning o'zbekcha tarjimasini aks ettirish maqsad qilinar ekan, adibning diqqat markazida terminlar tarjimasini mumkin qadar sof turkiycha, xalq tilidagi muqobillarini berish birinchi o'rinda turganligining guvohi bo'lamic. Bu haqda muallif shunday yozadi: "Bu birinchi tajriba bilan maydong'a kelganligi uchun, biz istilohlarni mumkin qadar soflashirishga tirishdik. Shuning bilan barobar o'zbekcha so'zlarning go'zal bo'lg'onlarini ola bermadik, balki bu so'zlarning xalq adabiyotida yoki eski adabiyotimizda ishlatilganlarini izlab topdik. Biz o'z boshimizdan so'z o'ylab chiqarishdan ko'ra tarixiy so'zlarni topib, ularni yana turmushga chiqarishni ortuqroq ko'rdik..."[2,3]

Haqiqatan, siyosiy-huquqiy terminlar tarjimasida muallifning mumkin qadar o'zbek tilining ichki imkoniyatlaridan foydalanishga harakat qilganligini, mazkur tamoyilga qat'iy amal qilganligini quyidagi misollarda ko'rishimiz mumkin: *бесспорядки*<sup>1</sup> – *to'palang, hukumatga qarshi xalqning ko'tarilishi, chuvolishi* (18); *больница* – *imloq, kasalxona, xastaxona* (6); *валюта* – *pul qiymati, aqcha* (22); *взятка* – *pora, rishvat* (8); *время* – *chog', vaqt, zamon* (10); *кодекс* – *tuzuk* (16); *оборона* – *qo'rav* (20); *паспорт* – *jon daftari* (22); *подростки* – *o'spirin bolalar, bo'lig' bo'l-magan bolalar* (23); *пособие* – *ko'mak, iona* (24); *прозакция* – *ig'vo, cho'g'ollik* (25); *ревность* – *kun-chilik, rashk qilish* (26); *реестр* – *ro'yxat, sajil* (26); *тантема* – *cho'tal* (29); *флод* – *do'nanma* (31), *фамилия* – *kuniya, nasab* (31).

Keltirilgan misollardagi *chuvolishi, imloq, xastaxona, aqcha, rishvat, chog', tuzuk, jon daftari, bo'lig' bo'l-magan bolalar, iona, do'nanma, cho'g'ollik, kun-chilik, cho'tal, kuniya, quruv* kabi leksemalar o'sha davr jonli xalq tili elementlaridir. Muallifning tarjimada bu kabi so'zlarni keltirishi ruscha terminlarga o'zbekcha muqobilni xalq orasida, muayyan ijtimoiy tabaqa, kattalar va bolalar nutqida faol qo'llangan so'z variantlarini keltirishga uringanligidan dalolat beradi.

Muayyan fan sohasiga oid terminlarni tartibga solish uzlusiz jarayondir. Bunda tarjima sifatida terminologik tizimga olib kirilayotgan termin adabiy tilga qabul qilinishi yoki qabul qilinmasligi ma'lum bir vaqt ni talab qiladi. Muallif bu narsani to'g'ri anglagani holda terminlar tarjimasini berishda unga muqobil sifatida eski o'zbek adabiy tilida, tarixiy manbalarda va xalq tilida qo'llangan bir necha muqobilarni yonma-yon keltirgan o'rinnlar ham uchraydi: *вознаграждение* – *suurg'ol, mukofot* (9); *выбор* – *saylov, intixob* (10); *документ* – *hujjat, vasiqa* (13); *закон* – *zong, qonun*

<sup>1</sup> G'ozi Olim Yunusov. Ruscha-o'zbekcha huquqiy va siyosiy lug'at. – Toshkent: O'zbekiston adliya xalq komissarligining huquqiy nashriyoti, 1926. -B.4. Keyingi misollarda lug'at sahifasi ko'rsatildi.

(14); **заклам** – *garov, zahn* (14); **наследство** – *varosat, enchi, meros* (19); **представитель** – *vakil, guimashta* (24); **пропаганда** – *o'gitlov, targ'ibot* (25); **свидетельство** – *ayg'oqlik, guvohlik* (27); **столица** – *o'rda, poytaxt* (29); **суверенитет** – *suverenitet, ulviyat* (29); **банк** – *bank, xazina* (5); **бюджет** – *budget, budja* (21); **верховный суд** – *ulug'yorg'u, oliv sud* (7); **взрыв** – *portlash, infiloq* (8); **доверенность** – *inonch, vakolatnoma, ishonchnoma* (13); **законоедение** – *huquq ilmi, fiqh* (49); **иностранные государства** – *chet davlatlar, qironlar* (15); **образец** – *namuna, o'rnak* (20); **прокурор** – *muddaoyi umumi, prokuror* (25) va h.k. Siyosiy-huquqiy terminlar tarjimasi-da keltirilgan *mukofot, saylov, hujjat, qonun, garov, meros, vakil, targ'ibot, guvohlik, poytaxt, suverenitet, bank, budget, oliv sud, portlash, ishonchnoma, huquq ilmi, chet davlatlar, namuna, prokuror* kabi leksemalar hozirgi siyosiy-huquqiy terminologik tizimda norma sifatida qabul qilingan bo'lisa-da, lug'at yaratilgan davrda ularning ruscha terminlarga muqobil sifatida tanlanishi to'la me'yorlashib ulgurmaganligini tushunish mumkin bo'ladi. Chunki, adabiy tilning me'yorlari kabi muayyan terminologik tizimning me'yorlashuvi ham davom etayotgan mazkur davrda muallif terminlar tarjimasida xalq tilidagi bir necha muqobil variantlarni keltirishni ma'qul topgan.

XX asr boshlaridagi o'zbek tili leksikasida o'sha davrda ayrim mualliflar tomonidan ishlatilgan, hali o'zbek adabiy tiliga kirib ulgurmagan, shevalarga oid so'zlar ham anchagina. G'ozi Olim lug'atda keng o'quvchilar ommasining manfaatini o'ylab, ya'ni tarjimadagi ruscha terminning o'zbek tilidagi barcha uchun tushunarli muqobilini keltirishni maqsad qilib, imkon qadar so'zlarning adabiy tildagi varianti bilan bir qatorda xalq shevalaridagi, so'zlashuv nutqidagi variantlarini ham qavs ichida keltirib o'tadi: **налог** – *soliq (solig')* (19); **консультация** – *bir muhim masalani qarab yechadurg'on (chedashurg'on) mutaxassislarning kengashi* (17); **склады оружий** – *yarog'lar ombori (anbori)* (27); **уэроза** – *do'q (do'g')* (30); **разрешение** – *yechuv (yeshuv)* (26); **замена** – *alishtiruv (alishdiruv)* (14); **большинство голосов** – *ko'pchilik tovushi (dovushi)* (6); **учреждение** – *muassasa, qurilma (urma)* (27); **обезображеный** – *birovning turqini, aftini buzish* (20).

Terminologik tarjima lug'atlarda har bir terminning o'zi atayotgan tushunchaning, narsa-hodisaning mohiyatini qay darajada to'g'ri, to'la va aniq ifodalashini belgilash muhimdir. Ayni bir tushunchani ifodalash uchun birdan ortiq terminning qo'llanishi, aksincha, bir necha hodisalarni ifodalash uchun bir terminning qo'llanishi terminologiyada narsa-hodisaning mohiyatini to'g'ri, to'la va aniq ifodalay olmaydigan terminlarning yuzaga kelishiga olib keladi [3,28]. Muallifning lug'atda ruscha, ruscha-baynalmilal siyosiy-huquqiy terminlar tarjimasini bir necha muqobillar asosida

berishini terminologiyadagi variantlilikni keltirib chiqaridan salbiy hodisa sifatida emas, balki o'zlashma terminlarni imkon qadar mahalliylashtirish, o'zbekchalashtirish yo'lidan borgan deb tushushunishimiz to'g'ri bo'ladi.

Ruscha terminlarni o'zbekchalashtirishda muallif umumiste'moldagi yoki yondosh terminologik tizimlarga oid leksemalarni huquqiy-siyosiy terminlar leksikasiga aylantirish, muqobil topilmagan o'rnlarda esa yangi terminlar yaratish yo'lidan ham boradi. Ku-zatishlarimiz lug'atdagи ruscha terminlar tarjimasida G'ozi Olim tomonidan o'zbek tili so'z yasalish qoliplari asosida bir necha yangi yasalmalar shakllantirganligini ko'rsatdi: **сооружени** – *yasash, asboblandirish* (28); **справка** – *aniqlama* (32); **фирма** – *nishon, savdoxona* (31); **арбитраж** – *vositachilik, bitimchilik* (6); **виза** – *guvohlandirish, ruxsat xati olish* (8); **епис** – *yozuv nushasi, ko'churuk* (11); **демократия** – *xalq hukumati, xalqchiliq* (12); **компенсация** – *qondirma* (17); **конфликт** – *to'qnashuv, qarshilashmoq* (17); **лишний свободы** – *erksizlandirmak, ozodlikdan mahrum qilmoq* (18); **музей** – *ajoyibxona* (18); **реность** – *kunchilik, rashk qilish* (26); **регистраторы** – *ro'yxatchilar* (26).

Misollardagi *asboblandirish, aniqlama, savdoxona, bitimchilik, guvohlandirish, ko'churuk, xalqchiliq, qondirma, qarshilashmoq, erksizlandirmak, ajoyibxona, kunchilik, ro'yxatchilar* kabi leksemalarning davr adabiy tili hamda hozirgi mavjud lug'atlarda uchramasligi ularning muallifning so'z ijodkorligi namunalari deyishimizga asos bo'ladi.

O'zbek tilida -*k* (*ik, uk*), -*ma*, -*chi*, -*chilik* affiksleri yordamida shaxs, narsa-buyum, mavhum otlar yasalish modeli mavjud, biroq misollarda keltirilgan harakat semasiga ega bo'lgan "ko'chir" leksemasiga -*uk* affiksining qo'shilishi; "*kun*", "*xalq*", "*bitim*" leksemalari ga mavhum ot yasovchi -*chilik* affiksining qo'shilishi, buyruq maylidagi "*aniqla*", "*qondir*" leksemalariga -*ma* affiksini qo'shish bilan yangi leksik ma'noli yasalmani yuzaga keltirish holati kuzatilmaydi. Xuddi shuningdek, o'r-in-joy oti yasovchi "*xona*" morfemasining belgi semasiga ega bo'lgan "*ajoyib*" leksemasiga hamda "*savdo*" so'ziga qo'shilib yangi semali o'r-in-joy oti holil qilish modeli ham mavjud emas.

Tilda shakllanayotgan terminologik tizimda lisoniy va nolisoniy omillar ta'sirida yangidagi-yangi terminlar jadal sur'atlar bilan rivojlanib borishi tabiiydir. Ayni shunday holat terminlar shakllanishining dastlabki, ilk bosqichida ro'y beradi. Natijada terminologik tizimni maqsadga yo'naltirilgan, motivlashtirilgan va malakali shakllantirilgan holatga keltirish zarurati tug'iladi.

G'ozi Olim taklif etayotgan yuqorida kabi terminlar keyinchalik o'zbek tili uchun norma sifatida qabul qilingan bo'lmasa-da, ularning yaratilishi muallifning XX asrning boshlarida o'zbek tilini ilmiy adabiy til darajasiga ko'tarish, terminologiyani tur-

kiylashtirish yo'lidagi maqsadining ifodasidir. Demak, adib tarjima lug'atini tuzishda faqatgina tilda avvaldan mavjud so'zlardangina foydalanmagan, balki ba'zi hollarda aytmoqchi bo'lgan fikrni, ya'ni tarjimadagi termin ifodalagan tushunchani aniqroq, ta'sirchanroq ifodalash maqsadida shunga mos so'zlarni topishga, lozim o'rnlarda ularni o'zi yasashga, original tarzda qo'llashga intilgan. Bu hol adibning til boyligiga ijodiy yondashganligidan dalolat beradi.

Darhaqiqat, o'zbek tili turkiy tillar ichida eng ko'p lahjali va shevali til bo'lganligi uchun adabiy tilning juda ko'p nazariy va amaliy masalalarini hal etish lajha va sheva materiallarini o'rganish, tahlil etish masalalari bilan aloqador. Adibning lug'atda jonli xalq tilidagi bunday so'zlarni termin sifatida qabul qilish tarafdoi bo'lishidagi asosiy maqsadini o'sha davrda unutilib borayotgan jonli xalq tili unsurlarini tarixiy yodgorlik sifatida toplash va asrash, ularni qayta "tiriltirib", yangi o'zbek adabiy tilida termin sifatida qo'llanish doirasini kengaytirish va shu asosda shakllanayotgan siyosiy-huquqiy terminologik tizimi ni jonli xalq tiliga yaqinlashtirish vazifasi bo'lganligini ko'rsatish mumkin. Chunki shevelarda tilimizning milliy xususiyatlari to'la va aynan saqlanib qolganligi tabiiy hol [4,37]. Bu esa adibning milliy tilga, xususan, xalq tiliga bo'lgan cheksiz muhabbatining yorqin ifodasi. Boshqacha aytganda, G'ozi Olim, birinchidan, xalq tilida unutilib borayotgan so'zlarning shakllanib borayotgan yangi o'zbek adabiy tili doirasida saqlanib qolishini nazarda tutgan bo'lsa, ikkinchidan, xalq tilida qo'llanayotgan so'zlar asosida o'zlashma terminlarga muqobil tanlash va adabiy tilga olib kirish orqali uni boyitish mumkinligiga e'tiborni qaratgan. Yangi o'zbek adabiy tilining, qolaversa, terminologiya sohasining ilk shakllanish davrida ana shunday so'zlarni rasmiy lug'atda qayd etish juda katta ahamiyat kasb etar edi.

Termin (lot. terminus – chek, chegara) – ilm-fan, texnikaning biror sohasiga xos muayyan bir tushunchaning aniq va barqaror ifodasi bo'lgan so'z yoki so'z birikmasidir. Terminning funksional xususiyati muvofiq u qisqa, aniq va bir ma'noli bo'lishi, ilmiy tushunchani ifodalay olishi va maxsus tilda ularning ajralib turishi uchun xizmat qilishi kerak. Bu funksiyaning amalga oshishi uchun termin shakli, tuzilishi va semantikasi adekvatlik, aniqlik, bir shakllilik kabi talablarga javob berishi zarur. Bu jihatdan G'.Olimning "Ruscha-o'zbekcha qisqa huquqiy va siyosiy lug'at'i" so'zligi bir qadar mukammalligi bilan ajralib turadi. Muallif lug'at tartib berishda huquqiy-siyosiy terminologik tizimning chegarasini aniq belgilashga, sohaga oid terminlarni lug'atga kiritishga, shuningdek,

umuiste'moldagi leksika asosida maqsadga yo'naltirilgan, motivlashtirilgan siyosiy-huquqiy terminlarni shakllantirishga harakat qilganligi kuzatiladi.

Siyosiy-huquqiy terminologiya tizimi murakkab bo'lganligi bois termin tarjimasini ifodalayotgan so'z hamda ibora shu sohadagi tushuncha va tasavvurni, huquqiy normalar mazmunini aniq shakllantira olishi kerak. Bunda tarjimaning eng muhim jihatlaridan biri umumiy adabiy til me'yorlariga to'liq rioya qilishdir. Siyosat va huquq bilan bog'liq bo'lgan faoliyatning barcha ishtirokchilari, qolaversa, keng xalq ommasi uchun ham tushunarli bo'lishi lozim. Muallif tarjimani amalga oshirishda bu talablarga rioya qilgan, biroq o'zi ta'kidlaganidek, "bu lug'at huquqiy atamalarning dastlabki loyihasi" bo'lganligi uchun ba'zi kamchiliklarga ham yo'l qo'yilgan. Bundan tashqari, zamonaviy ijtimoiy hayotda huquqiy tushunchalar rolining oshishi, yildan yilga takomillashib borishi, siyosiy-huquqiy terminlarning umumiste'mol leksikadan yaqqol ajralib turadigan uslubiy, semantik, struktur va so'z shakllanishiga oid o'ziga xos xususiyatlari bugun iste'molda bo'lgan yuridik terminlar lug'ati bilan mazkur lug'at o'rtasidagi tafvutlarni ham keltirib chiqqarganligi kuzatiladi.

Shunga qaramay, G'ozi Olim Yunusovning o'zbek siyosiy-huquqiy terminologiyasi tizimini shakllantirish, terminologik leksikografiyanı yuksaltirish yo'lida ilmiy-amaliy faoliyati o'zbek lug'atchiligi, o'zbek milliy tilshunosligining rivojiga qo'shilgan munosib hissa bo'lib, uni lingvistik nuqtayi nazaridan tadqiq qilish XX asrning 20-30-yilar davri o'zbek adabiy tili, ilmiy tilshunosligining rivojlanish va boyish tendentsiyalari belgilashda muhim sanaladi. Bu esa G'ozi Olim Yunusovning lingvistik faoliyatini yanada chuqurroq o'ganish va tadqiq qilish lozimligini ko'rsatadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'ozi Olim Yunusov. *Ruscha-o'zbekcha huquqiy va siyosiy lug'at.* – Toshkent: O'zbekiston adliya xalq komissarligining huquqiy nashriyoti, 1926. – 35 b.

2. To'raqulov Nazir. *Rus-o'zbek tilining siyosiy va iqtisodiy lug'atchasi.* – Toshkent: Turkiston jumhuriyatining davlat nashriyoti, 1922. – 90 b.

3. Sobirova E. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da huquqiy terminlarning berilishi: filol.fanlari bo'yicha falsafa d-ri (PhD). ... diss. avtoref. – Toshkent, 2022. – 55 b.

4. Normamatov S. O'zbek lug'atchiligining shakllanishi va rivojlanishida jadid ma'rifatparvarlarining o'rni: filol.fan. d-ri (DSc). ... diss. avtoref. – Toshkent, 2022. – 69 b.

UDK:342.725

# THE ROLE OF LISTENING IN LEARNING FOREIGN LANGUAGE

**Annotatsiya:** Ushbu maqola yangi tilni o'zlashtirish nuqtai nazaridan tinglash qobiliyatining ahamiyati va uning turli turlariga qaratilgan. Maqolada ko'rsatmalar bilan muntazam ravishda ishlataladigan tinglash bosqichlari mavjud.

**Kalit so'zlar:** Tinglash qobiliyatlari, malakali tinglovchi, keng va intensiv tinglash, diqqatni jamlash.

**Annotation:** This article is committed to the importance of listening skill and its diverse sorts in terms of obtaining a new language. The regularly used stages in order to do listening are given with their instructions in the article.

**Key words:** Listening skills, competent listener, extensive and intensive listening, concentration.

**Аннотация:** Данная статья посвящена важности навыка аудирования и его различным видам с точки зрения овладения новым языком. В статье приведены регулярно используемые этапы аудирования с их инструкциями.

**Ключевые слова:** Навыки слушания, компетентный слушатель, экстенсивное и интенсивное слушание, концентрация.

**A**s we all know, listening is the ability to understand talked dialect. Listening is basic skill that is present in most of the activities we carry out all through our lives. We listen to all kinds of things, for example, lectures; radio dramas; weather forecasts on the radio; recorded conversations in class. Over the years, listening skills have received the attention they deserve in second and foreign language learning in the teaching profession. Listening was one of the foremost ignored skills in second and foreign language classes, particularly until the late 1960s. Both researchers and teachers of foreign languages paid more attention to reading, grammar, and listening comprehension was not perceived as an essential feature of language learning. Field states that "in early days of English Language Teaching (ELT), listening served as a means of introducing new grammar through model dialogues" [1;89]. Recently, the profession of teaching foreign languages has begun to pay special attention to listening. Listening skills have been studied by many researchers. Listening plays an important role both in everyday life and in an academic context, as it is essential for people to communicate effectively. Of the four core language skills, listening has the most impact. In the 1970s, listening comprehension, which gained more importance as a skill, began to be used in language training programs in addition to speaking, reading and writing. Listening plays an important role in communication in people's daily lives. Vandergrift [5, 425-440] states that listening plays a major role in the learning of a second language. This role is for it gives the learner infor-



Maryam BAYRIYEVA,  
Karakalpak State  
University  
named after Berdakh,  
assistant teacher of  
the  
department of  
“The theory and  
practice  
of the translation”.



mation from which to build the knowledge requisite for operating the language. Listening assures the essential input for learners to acquire the language required for practicing a language. Rost [3] features that understanding spoken language is a significant circumstance for language acquisition. Most people think that being able to write and speak in a second language means they know the language, however, we believe that effective communication is impossible if they do not have effective listening skills. That said, listening is an essential skill for language learning, as we demonstrated above with clear statements. The purpose of listening teaching is to help English learners cope with listening in real life, but there are many kinds of listening in real life:

- listening to the announcements in stations, airports
- taking part in a meetings, discussions or seminars
- listening to the news, or to the radio

Diverse circumstances require various types of listening. In classroom situations, students can improve their listening skills and gain valuable input by engaging in the listening process through a wide range of intensive listening combinations.

Most researchers like to make the difference between “extensive and intensive” listening. The two types are described by Harmer (1998) to have a special importance. They provide students with the perfect opportunity to listen to other speakers than their teacher's. “They help them to develop their pronunciation and acquire good speaking habits they absorb”.

#### Extensive listening

This happens when teachers encourage students to use their materials and choose what they want to hear for the purpose of having fun and improving their language. Extensive listening material varies and can be found in a variety of resources such as story recordings, books, television, and passages taken from the radio. All sources mentioned tend to deal with spontaneous conversations, dialogues, interviews, etc. According to foreign language teachers, foreign language teachers can enrich their classes with effective input to perform a wide range of listening through the right tapes, properly selected at different levels, genres and topics. Creative teachers can recommend specific tapes and get students to talk about the tapes they enjoy most.

#### Intensive listening

Other types of listening are intensive. It is practiced in everyday situations and the ability to

listen intensively is considered an important part of listening ability. This refers to the process of listening to exact sound words, phrases, grammatical units, and pragmatic units. When it comes to intensive listening, when real people are talking in real life, they meet different characters, interact with the speaker, and interrupt the conversation, which is called “live listening”. Invite learners not to ask for clarification.

“Live listening” is one of the good ways to practice intensive listening. It can take many forms; like the teacher reading aloud in a classroom. Students engaged in this assignment hear a natural spoken language of a written passage. Along with other fun activities include storytelling, talks and interviews. [2;96]

Therefore, intensive listening and extensive listening are two important ways to ensure that hearing is achieved, and they must be used appropriately.

As the types of listeners, competent listener who is considered to have a high listening ability and one of the most essential type of listeners .The listener in this category is capable of:

- Understanding all the types of speech, concerning those easy to be understood by native listeners in the target community or the abstract.
- In case speech is unintelligible, the listener can seek clarification easily, he is able to depict whether his knowledge in a certain communication situations is enough to teach an acceptable level of understanding or not, as well as being able to note where the speaker is ambiguous and vague.
- It is noted that competent listener is elected to perform well concerning any task demanding oral comprehension

People go through several stages whenever they practice this. They must know about them in advance to understand the meaning.

#### Pre-listening

Pre-teach vocabulary in order to ensure maximum understanding

#### Listening

Extensive listening followed by general questions on context

Intensive listening followed by detailed comprehension questions

#### Post-listening

Teach any new vocabulary, analyze language

As the figure illustrates, there are three parts in a usual listening lesson: pre-listening, (while) lis-

tening and post – listening. 1) Pre-listening is the first step in establishing a context. The teachers are motivated and the students do some activities to prepare for what they hear.

2) The next stage is (while) listening, in which the learner completes the mentioned tasks or finds the answers. There are two kinds of materials and procedures. On the one hand, extensive reading helps students to master vocabulary and grammar, and is usually done outside of class.

3) The final stage is post-listening, where students have the opportunity to review the answers they have been listening to, provide feedback and reinforce what they have learned. It is useful for teachers as it helps to analyze specific difficulties students may encounter in listening activities. In addition to this, this section gives students the opportunity to express their opinions on a specific topic.

#### **Conclusion.**

Listening plays an important role both in daily life and in school, as it is extremely important for people to communicate effectively. Listening skills are important for learning purposes, because

through listening, students receive information and draw conclusions. In addition, listening is vital in a language classroom because it provides information to the student. That is, when learning a language, 50% of the time that students spend on mastering a foreign language will be devoted to listening.

#### **References:**

1. Field J. *Skills and strategies: Towards a new methodology for listening". ELT Journal (1998)*
2. Field J. "Listening in the language classroom". United Kingdom: Cambridge University Press.
3. Rost.M "Listening in language learning". New York.London. (1990)
4. Rost, M. "Introducing listening" . London. (1994).
5. Vandergrift, L. (2003). *From Prediction Through Reflection: Guiding Students: Through the Process of L2 Listening*. Canadian Modern Language Review/La Revue canadienne des langues vivantes, 59(3), 425-440.

---

## SO'ZLAR SALTANATIGA SAYOHAT

---

### OG'AM VA TOG'AM



"Og'a" so'zining tilimizda "aka" ma'nosini anglatishini hammamiz yaxshi bilamiz. "Og'a" so'zining tub ildizi "katta" degan ma'nini anglatgan. Qadimda tog'ani va otani ham "og'a" deb atashgan davrlar bo'lgan. Shuningdek, o'tmishda malikalar va saroy ayollarining ismlari oxiriga "og'a" so'zi qo'shib aytilgan holatlar ham kuzatiladi. Manbalarda ta'kidlanishicha, qadimgi turkiy tillarda "ona" so'zining "tay" degan shakli ham bo'lgan. Xuddi shu ona mazmudagi "tay" so'zi bilan "og'a" so'zining qo'shilishidan "tog'a" so'zi hosil bo'lgan va bu so'z "onaning akasi" ma'nosini anglatgan.

Bir-biriga mazmunan yaqin bo'lgan "og'a" va "tog'a" so'zlari shakl jihatdan ham bejiz uyqash emas.

**Eshqobil SHUKUR,**  
*O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi*

# RAMZ PSIXOLOGIK TA'SIR OB'EKTI SIFATIDA



Olimjon  
JUMABOYEV,  
O'zRFA O'zbek  
tili, adabiyoti  
va folklori instituti  
tayanch  
doktoranti



**Annotatsiya:** Maqolada ramzlarning ma'lum psixologik quroq sifatida inson ongiga ta'siri, uning odam ongida uzoq saqlanib qolishi va bu bevosita uni doimiy harakatga keltirib turishi bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** ramz, psixologiya, rang, narsa, voqeа, detal, auditoriya, ob'ekt, tadqiqot, nazariya, mifokonstruktsiya

**Аннотация:** В статье описывается влияние символов на сознание человека как известного психологического оружия, его длительное удержание в сознании человека, а также то, что оно непосредственно приводит к постоянному действию.

**Ключевые слова:** символ, психология, цвет, вещь, событие, деталь, аудитория, объект, исследование, теория, мифоконструкция

**Annotation:** The article describes the effect of symbols on the human mind as a known psychological weapon, its long-term retention in the human mind, and the fact that it directly leads to constant action.

**Key words:** symbol, psychology, color, thing, event, detail, audience, object, research, theory, mifoconstruction.

Ramzlar yaralishi va yaratilishi uzoq tarixiy jarayonni qamrab olgan. Ya'ni u ma'lum ma'noda ijodkorning g'oyasi sifatida ta'sir ko'rsatish, jalb qilish, chaqirish, birlashtirish, ajratish kabi vazifalarni bajargan. Avvalo ranglar ramzlarning mohiyatini tashkil etgani bois, bunda ulardan samaraliroq foydalanishga harakat qilingan. Bu avvalo, odamning tabiat, psixologiyasi, intuitsiyasi bilan bog'liq hisoblanadi.

"Odam organizmi rang va yorug'likning ozgina o'zgarishini ham sezadi. Ayrim ranglar turkumi harorat, kattalik va og'irlik muhitini yaratib, psixologik o'zgarishlarga olib keladi" [3:45].

Psixolog olimlar ham ramzlarning so'zdan tashqari ta'siri, uning narsa, voqeа va detal sifatida o'quvchi ongostida qolishi haqida alohida to'xtalib o'tishgan.

Xususan, rus tadqiqotchisi Ye.Koltunovaning "Символ как психологическая категория в психоаналитических теориях" nomli maqolasida "Символ является важной составляющей современного сознания, как на личностном так и на групповом уровнях" [4:5].

Psixologik tadqiqot olib borgan olimlar fikriga ko'ra voqeaneing nomi aksariyat odamlar xotirasida saqlanib qolmaydi. Voqeа bir vaqtning o'zida aynan ramziy belgilari bilan sodir bo'lsa, u nafaqat ongostida uzoq saqlanadi, shuning barobarida uning psixologik ta'siri ham ortadi. Bunga oddiy misol sifatida kundalik hayotimizda uchraydigan holatlarni eslash kifoya. Ya'ni kundalik voqealardan ko'ra ko'proq ularning mazmuni, detali, holati xotirada qoladi. Chunki, kundalik voqealar bir-biriga bog'liq holda davom etishi, takrorlanishi mumkin, ayni bir holat boshqalariga o'xshamaydi. Shu bois u ramz-majoz bilan bog'liq holda inson xotirasida yashab kelaveradi.

Atoqli psixolog Zigmund Freyd ramziy obraz-larning syujetga ko'chishini ikkilamchi qayta ish-lash[7:190], deb qayd etadi. Demak, yozuvchining ramz-majozdan foydalanishi ham uning vizual ta'sirini kengaytirib, mifokonstruktsiyani ongda hosil qiladi.

"Ramzni o'rganishda nafaqat falsafiy va madaniy asos, balki psixologik bilim ham katta ahamiyatga ega"[8:17], deydi psixolog E. Goncharova. Albatta, ramz o'z-o'zidan psixologik ta'sirga ega bo'lmaydi. U ma'lum rivojlanish yo'llini bosib o'tib, odamlarga ongi ravishda tushunarli bo'lgach, detal ramz darajasiga ko'tariladi va ma'lum ta'sir kuchiga, qudratiga ega bo'ladi.

Har bir ramz o'zining rivojlanish bosqichi, badiiy adabiyotga ko'chish yo'llari bo'lgani holda uning ma'lum davrda psixologik ta'sir ko'lami ham ortib boradi. Bu ijodkorning badiiy-falsafiy qarashlari, zamon tabalbariga mos harakatlari, qay darajada shakllangani bilan bog'liq. Shu bois olimlar ramz-majoz tushunchasini uzoq evolutsion jarayon sifatida ta'kidlab, markaziy mazmun epitsentri ekanini ta'kidlaydi. Birlamchi mazmunni faqat simvol orqali ifodalash, u orqali tushuntirish imkonli bor. "Simvolizm nafaqat o'ziga xos badiiy yo'nalish sifatida, balki bilvosita inson ongida obraz, g'oya yoki tuyg'uni uyg'otishning maxsus usuli sifatida ham tushuniladi" [7:191] deydi olima. Muayyan ong holatini uyg'otishning keng tarqagan usullaridan biri bu diqqatni tegishli ob'ektga yoki ob'ektni namoyish etishga qaratishdir. Shuning uchun ramz insoniyat taraqqiyotining dastlabki davrlaridayoq inson tafakkuriga xosdir.

Nemis olimi E. Kassirer ramzga antropologik məqom berib, uni inson ongingin tabiatini bilan shartlangan ekanini qayd etadi. Olimning qarashicha, fenomenal mavjudotga ega bo'lgan ramz, bu – inson va atrofdagi dunyo o'rtaсидаги bog'liqlik hisoblanadi.

Har bir shakl o'zining ijodiy kuchiga ega bo'lib, u orqali inson nimanidir eslaydi, idrok etadi. Har bir shaklda idrokning ma'lum bir ma'naviy usuli yotadi, Kassirer ularni "ramziy shakllar" deb belgilaydi. Eng umumiy shaklda ramziy shakl u tomonidan hissiy belgilar va obraz orqali ba'zi bir ruhiy ko'rinish sifatida tushuniladi[1:186].

Ba'zi faylasuflar va psixologlarning fikriga ko'ra, turli xil ramziy shakllar bir-biridan genetik jihatdan farq qiladi va shu bilan birga tarixiy o'ziga xos madaniyat doirasida bir-birining yonida mavjud bo'ladi, ya'ni ramz va majoz sinxronlik bilan ajralib turadi.

Albatta, qadimiylar tariximizda ham turli siyosiy jarayonlarni bosib o'tgan odamlar ma'lum ma'noda ehtiyyotkorlik va bilim, zakovat bilan qalam tebratish, odamlarni ogoh etish, ezzulik va yaxshilikka undash, podsho va ayonlar zulmidan saqlanish uchun harakat qilishgan. Shu bois ham aynan ma'lum guruh yoki shaxslar orasida psixologik ob'ekt sifatida ramzlar tushunilgan.

"... afsonada, aksincha, biz o'Ichovsiz qadimiylikning aksariyat qismi uchun an'anaviy shakllanishlar haqida gapiramiz. Ularning ildizlari ibtidoiy dunyoda, biz bugungi kunda ham qolgan ibtidoiy xalqlar orasida kuzatishimiz mumkin bo'lgan ma'naviy shartlar va sharoitlarga ega. Ushbu bosqichdag'i afsonalar va ramzlar, qoida tariqasida, avloddan avlodga og'zaki so'zlar bilan o'tadigan eski ta'limotidir"[2:120].

Lotman esa ramzning qadimiylar tabiatiga ham e'tibor qaratib, uning pozitsiyasini hisobga oлган holda, ramzda har doim arxaik narsa bor deb aytishimiz mumkinligini qayd etdi.

Belgilar tushunchasi tasodifiy tushuncha emas, chunki ularning asosiy guruhi haqiqatan ham chucher arxaik xususiyatga ega va jamoaning og'zaki xotirasiда saqlanadigan belgilar matnlari va syujetlarning mnemonik dasturlari oldindan yozilgan davrga to'g'ri keladi[5:240].

Ramzni talqin qilish, bu – bilimning dialogik shakli, ya'ni muallif va auditoriya o'rtaсидаги muloqot: ramzning ma'nosini haqiqatan ham faqat inson aloqasi doirasida mavjud. Umumiy psixologiyada ramz kategoriyasi alohida o'rganiladigan sohadir.

Ramzning eng batafsil, maksimal darajada ifodalandigan nazariyasini A.F.Losev tadqiqotlarida topish mumkin. Olim "Ramz mantig'i" maqolasida ramzning ta'rifi juda aniq va izchil berilgan.

A.F.Losev ramzni psixologiya va estetika, falsafaning markaziy tushunchalaridan biri sifatida haqli ravishda tan oladi[6:250] va bu borada juda mashaqqatli tadqiqotlar olib boradi. Tirk hissiy tafakkur bilan boshlanadigan bilish jarayoniga murojaat qilish mavhum fikrlashga o'tadi va amaliyot bilan tugaydi, bu esa ramzning mohiyatini tushunishga yordam beradi. Ramz voqelikning jonli tafakkuriga asoslanaadi, bu uning aksidir. Olimning qarashlarini asosli va to'g'ri baholagan holda aytish mumkinki, ramz ideal qarashlarning in'ikosidir.

Alisher Navoiy, Bobur, Gulxaniy, Boborahim Mashrab, So'fi Olloyor, Maxmur, Muqumiy, Zavqiy, Furqat singari mumtoz adabiyotimiz vakillari, shuningdek, Cho'lon, Abdulla Qodiriy, Oybek, Usmon Nosir singari ijodkorlar asarlarida ham bu jihatlar o'ta nozik imo-ishoralar, turli topilmalar va ramzlar vositasida aks ettiriladiki, buning barchasi ijtimoiy masalalar, odamlarning turmush-tarzi, boy va kambag'allar sinfi, turli xil nizolar bilan bog'langan. Adabiyotimiz o'z rivojlanish jarayonida mifologiyadan oziqlanganini inobatga olsak, ramziy-majoziy unsurlarning mumtoz adabiyotda uchrashi, ma'lum yashirin ma'nodan ko'tarilib chiqishi tabiiy hodisa.

O'zbek nasri mutazam rivojlanib borishi asnosida jahon hikoyachiligining ma'lum usul va uslublarini, taraqqiyot tendentsiyalarini boshdan o'tkazdi va shu asosda ularni o'rganib, o'zlashtirdi. Xususan, keyinги davrda Xurshid Do'stmuhammad, Nazar Eshonqul

va Isajon Sulton, Salomat Vafo, Zulfiya Qurolboy qizi kabi yozuvchilarning asarlarida o'ziga xos adabiy, intellektual, falsafiy beglilar ishora – ramzlar uchramoqdaki, bu asar mohiyatini chuqurroq tahlil etishga undaydi.

Jahon adabiyotshunosligida ramz va majoz na-faqat adabiyot, so'z san'atida, san'atning barcha tur-larida, rassomchilik, kino, haykaltaroshlik, teatr, raqs va boshqa sohalarda ham nihoyatda muhim adabiy-estetik hodisa ekani ta'kidlanishi ham uning barcha fanlar bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatibgina qolmay soha taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadi. Ramzning badiiy adabiyot nasriy janrlarida tutgan o'rnni belgilashda ham psixologik ob'ekt sifatida ham e'tirof etilishi yozuvchilar ijodida muayyan qarashlar ilgari surilishini, maqsad va vazifalar uning zamirida yotganini an-glatadi.

Darvoqe, XXI asrga kelib, adabiyot va san'at tabiatni nihoyatda ko'lami kengayib, rang-barangashib, auditorianing psixologiyasiga ta'sir etishga urinish boshlandi. Jumladan, dunyo adabiyotining eng yirik so'z san'atkori F.Kafka, A.Kamyu, J.Joys, E.Xeminguay, U.Folkner, G.G.Markes, H.Hesse, M.Bulgakov, Ch.Aytmatov kabi yetuk so'z san'atkori qo'llagan yuzlab realistik, modernistik, mifologik, fantastik, romantik, detektiv obrazlar va vositalar in-son ongini o'zgartirishi mumkin bo'lib qoldi. Aynan ramz va majoziy badiiy obrazlar yetakchi rolni bajarib, kishilarning doimiy ravishda diqqat markazida turuchi muhim ob'ekt sifatida ko'rinish berdi.

Bu albatta, jahon adabiyotining milliy adabi-yotimiz rivojiga qo'shgan ulkan ta'siri va hissasi bo'ldi.

Mustaqillik davri o'zbek adabiyotshunosligida ijodkor, yangilangan ijodiy uslub, ijodiy originallik, ijodkor laboratoriyasiga dunyo adabiyotshunosligida yangicha ilmiy yondashuvlardan tadqiqotlarda faol foydalanish tamoyili shakllandi[9:17].

Bugungi kunda fanlarning bir-biriga bog'liqligi ham tadqiqotlarni yangicha talqin etish imkonini ber-moqdaki, ramz va majoz tushunchasining yangicha qarashlari psixologik yechimlarni ham yuzaga keltiradi.

Ramz va majoz tushunchasi mazmun-mundari-jasining keng qamroviligi, badiiy tasvir yo'lining o'ziga xosligi, obrazlari olamining nihoyatda boyligi, ma'no diapazonining kengligi, turfa fanlar bilan aloqadorligi alohida e'tiborga sazovor. Bugungi zamonaviy o'zbek

hikoyalarda ham ramziy-majoziy tasvir ustuvor bo'lib, bu yangicha tahlil va talqinlarni yuzaga keltirib, har bir so'z, detal, timsol, raqam va badiiy obrazdan ma'no axtarishga undaydi. Uni peyzaj va kichik detal sifatida emas, shuning barobarida unda ijtimoiy-maishiy vosi-talar belgisi, siyosiy qarashlar namunasi sifatida bilish va o'rganish ham mumkin.

Rus tadqiqotchisi Konstantin Paustovskiy ta'biri-chi, "Yozuvchilik hunar va mashg'ulot emas"[10:134]. Demak, har bir adabiy unsurga qarab, unda adibning qalbi, dunyoqarashi va ijtimoiy jarayonlarga nis-batan fikri va munosabatini aniqlash mumkin bo'la-di. Unda sa'natkorona sifat va belgililar ishtirok etishi, ular ma'lum funksiyani bajarishi va ta'sir ko'rsatishi ramzning psixologik vazifasini anglashga xizmat qila-di.

Ayniqsa, zamonaviy o'zbek nasrining yetuk vakil-leri X.Do'stmuhammad, N.Eshonqul asarlarida jamiyatdan yiroq qahramonlar, o'ziga xoslik, tushkunlik, fojiaviylik, yakkalik, indamaslik sabablarini ilmiy asos-lash imkoni tug'ilmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Кассиер Э. Понятие символических форм в структуре наук о духе. Индивид и космос. –М.: СПб., 2000. С. 186.
2. Юнг К. Самосознание европейской культуры XX века. М., 1991. С. 120.
3. Набиев М. Рангшунослик. – Т.: О'qituvchi, 1995. 45-bet.
4. Колтунова Е. Символ как психологическая категория в психоаналитических теориях. Общая психология. Cyberleninka.ru
5. Лотман Ю. Семиосфера. Культура и взрыв. Внутри мыслящих миров. Спб., 2000. С. 240.
6. Лосев А.Ф. Философия. Мифология. Культура. М., 1991. С.250.
7. Фрейд З. Я и ОНО: Хрестоматия по истории психологии. – Тбилиси.: 1991, С. 190.
8. Гончарова Е.П. К вопросу психологическом оснащении символа. Cyberleninka.ru
9. Qo'chqorova M. Badiiy shartlilik. – Т.: Fan, 2021. 17-bet.
10. Паустовский К. Рождение рассказа. – Москва.: изд. Рус.язык, 1979, стр 134.

# *Ona vatanim madhi*

## O'ZBEKISTON

*Nurli bo'ston, hur guliston,  
Ona yurtim O'zbekiston.  
Jannatmakon go'zal diyor,  
Har bir yoshga katta imkon.*

*Yurtboshimiz singari,  
Xalqim uchun yashayman.  
Ajdodlarim singari,  
Buyuk inson bo'lgayman.*

*Onam kabi qadrlisan,  
Jonim beray sen uchun.  
Bir siqim tuprog'ing ham,  
Tabarrukdir men uchun.*

*Bayramingiz muborak,  
Jonajon yurtdoshlarim.  
Istiqloling muborak,  
Aziz O'zbekistonim!*



## VATAN

*Ostonadan boshlanar Vatan,  
Deydi mening bobom doimo.  
Shunday ekan hamma odamlar,  
Vatanini qilar himoya.*

*Vatan – mangu, Vatan – osmonim,  
Vatan – onam, Vatan – quyoshim.  
Vatan – jonim, Vatan – qo'rg'onim,  
Vatan mening ona makonim.*

## MAHALLA

*Men tug'ilib o'sgan go'zal maskanim,  
Mahallam – g'ururim, sen iftixorim.  
To'y-tomosha bo'lsa, kim imorat qursa,  
Yosh-u qari bari turar xizmatda.*

*Bir bolaga yetti qo'shni ota-onadir,  
Shuning uchun hamma ahil, bitta oila.  
Yoshi ulug'larning dildan hurmatin qilib,  
Kichiklarning izzatini qilar mahalla.*



Sabrina  
**ALLAMBERGENOVA,**  
Beruniy tumani 65-  
sonli IDUM 5-sinf  
o'quvchisi, 6-sonli bo-  
lalar musiqa va san'at  
maktabida fortepiano  
sinfasi o'quvchisi



## RESUME

1. In the "Philology" section of our magazine you will find articles by B. Kurbanbaeva, Sh. Kuvanova, M. Kurbanova, Z. Yakhshieva, B. Yusupova, Z. Kazimbetova, F. Elmuratova.
2. In the column "Source studies" J. Jovliev's article introduces readers to interesting information.
3. In the "History" section, B. Alimjanov, Q. Sobirov, O. Madaminov, T. Polvanova, J. Khasanov, U. Bekimmetov, A. Kholliev, S. Davletov, I. Madrimov, A. Tajiev, a number of scientists and researchers with their interesting articles and cite unknown information.
4. In the "Art Studies" section, Kadyrova will delight journalists with her interesting article.
5. R. Mahmudov's article is published under the heading "Linguistics".
6. In this issue, in the "Pedagogical pulpit" you will get acquainted with the lessons developed by the teacher of English L. Alimbaeva of the 61st comprehensive school of Beruni district, the teacher of the native language and literature of the 63rd comprehensive school O. Allamova on the basis of new pedagogical technologies.
7. You will learn about the meanings of some words used in our language in the next passage in the section "Journey to the Kingdom of Words".